

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK INSTITUTI

Dilshod SATTOROV

«ISLOM HUQUQI»

o‘quv-uslubiy qo‘llanma

Toshkent - 2006

Toshkent davlat yuridik instituti O'quv-uslubiy Kengashining 2006-yil 28-dekabr 5-sonli qaroriga kora nashrga tavsiya etilgan.

D.Yu.Sattorov. «Islom huquqi». O'quv-uslubiy qo'llanma. / Mas'ul muharrar: y.f.d. G.Matkarimova. –T.: TDYI nashriyoti. 2006. –88 bet.

Taqrizchi: Islom universiteti “Islom huquqi” kafedra mudiri,
professor A.Sh.Juzjoniy

Ushbu taqdim etilayotgan o'quv-uslubiy qo'llanma «Islom huquqi» o'quv kursi asosida yozilgan bo'lib, Toshkent davlat yuridik instituti, Toshkent Islom universiteti, yuridik fakultetlar hamda boshqa oliy o'quv yurti talabalariga mo'ljallangan.

Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanmada «Islom huquqi» fanini o'qitishdan maqsad, islom huquqining davlat va huquq g'oyasi rivojlanishiga, insoniyatning ma'naviy, madaniy taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, umumjahon madaniyatining ajralmas uzviy qismi sifatida o'rganishdan iboratligi haqida so'z yuritilgan.

© D.Yu.Sattorov.

© Toshkent davlat yuridik instituti, 2006-yil.

«Biz din bundan buyon ham aholini oliy ruhiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy meroslardan bahramand qilish tarafdorimiz. Lekin biz hech qachon diniy da'vatlar hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiy qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq bo'lishiga yo'l qo'ymaymiz. Chunki bu holni davlatimizning xavfsizligi, barqarorligi uchun jiddiy xavf-xatar deb hisoblaymiz»

I.A.Karimov.¹

KIRISH

Talaba yoshlarimiz tomonidan ulkan va boy madaniyatimizning uzviy qismi sanalmish Islom nazariyasi va tarixi, Islom falsafasi va huquqshunosligi, Islom madaniyati, axloqini o'rganishga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda.

Istiqlol sharofati bilan yuzlab talaba - yoshlarimiz o'quv yurtlarida dunyoviy ilmlar bilan bir qatorda diniy bilimlar olishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilib, imkoniyatlar ochib berildi. Shuningdek, Qur'oni Karimning o'zbekcha nashri, Xazrati Imom al-Buxoriy to'plab qoldirgan «Al-Jome' as-Sahih»ning o'zbek tilidagi 4-jildi, «Axloq va odobga oid hadis namunalari», «Ming bir hadis» hamda payg'ambarimiz hayoti va faoliyatini aks ettiruvchi o'nlab kitoblar va ko'plab diniy mavzudagi asarlar chop etilishi ham fikrimizning yaqqol dalilidir.

Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, din bizning qon-qonimizga, ongu shuurimizga shu qadar teran singib ketganki, uni hech qanday kuch, hech qanday tashviqot bilan chiqarib bo'lmaydi.

Islom huquqi huquqiy tizimlar ichida o'z o'rniga ega huquqiy tizimlardan hisoblanib, o'rta asrlarda sharq mamlakatlarida o'z rivojini topdi. Sharq xalqlari, Markaziy Osiyo xalqlari tarixida Islom ma'naviyati, falsafasi va shariat huquqiy tafakkuri shakllandi, taraqqiy topdi va hozir ham rivojlanmoqda.

Movarounnahr fiqh maktabi buyuk namoyondalari yozgan nodir asarlar tufayli o'z taraqqiyotiga ko'tarilgan Islom qonunshunosligi xalqimiz ma'naviy-huquqiy merosning uzviy ajralmas qismi sifatida asrlar davomida Markaziy Osiyo xalqlari hayotida muhim omil bo'lib xizmat qilib kelgan.

Dinu diyonatimizni muxtasar ifodalab, shunday deyish mumkinki, Oллоh bizning qalbimizda, yuragimizdadir. Shu nuqtai nazardan ham ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma talaba yoshlar hukmiga havola qilinar ekan,

¹ Odil Rahmon. Ogohlik-muqaddas burch. –T.: «Movarounnahr», 2000. 80-b.

davlatimiz yoshlarini Islom huquqi dunyosi bilan yanada chuqurroq tanishtirishga, olingan ilm sirlarini o'zlaridan keyingi avlodga to'g'ri talqin va tashviqot qilib etkazishlari uchun ilk qadamlardan biri bo'lib, xizmat qiladi degan umiddamiz.

Ma'lumki fiqh musulmon huquqshunosligi xalqimiz ma'naviy merosining ajralmas bir qismi sifatida asrlar davomida Movarounnahr xalqlari hayotida muhim rol o'ynagan. Diyorimizda keng tarqalgan fiqh nafaqat diniy-huquqiy muammolarni, balki xalqimizning butun turmush tarzini o'z ichiga olgan. Shu sababli davlatimiz huquq tizimi tarixini shariat, musulmon huquqisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Sobiq ittifoq davrida mustabid tuzum manfaatlarini ko'zlab islom dini va diniy ilmlarni o'rganish «dahriylik siyosati» bilan qoralangan. Kezi kelganda shuni ham aytish joizki, sho'rolar davrida respublikamiz uchun islomshunos kadrlar tayyorlash masalasi mutlaqo e'tibordan chetda qoldi, islom bilan aloqador tadqiqotlar ham ateizm nuqtai nazaridan amalga oshirilib, islomiy qadriyatlar asossiz holda qoralab ko'rsatildi.²

² Z.Xusniddinov. Islom: yo`nalishlari, mazhablar, oqimlar. -T.: O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2000. 4-b.

1-Mavzu. «Islom huquqi» fanining predmeti, uslubi va ahamiyati

1. Islom huquqi fanining predmeti va metodi.
2. Islom huquqi fanining tizimi.
3. Islom huquqi fanining maqsadi va ahamiyati.

Taqdirga tahsinlarkim, bugungi kunda islom dinining ma'naviy-ahloqiy va diniy-huquqiy meroslari nafaqat ahli din orasida, balki dunyoviy ilm sohiblari, keng miqyosdagi ahli jamoa orasida ham o'z qadrini topayotir.

Sharq xalqlari, jumladan, Markaziy Osiyo xalqlari tarixida Islom ma'naviyati, falsafasi va shariat huquqiy tafakkuri shakllandi, taraqqiy topdi va hozir ham rivojlanmoqda.

Movarounnahr fiqh maktabi buyuk namoyondalari yozgan nodir asarlar tufayli o'z taraqqiyotiga ko'tarilgan Islom qonunshunosligi xalqimiz ma'naviy-huquqiy merosining uzviy ajralmas qismi sifatida asrlar davomida Markaziy Osiyo xalqlari hayotida muhim omil bo'lib xizmat qilib kelgan.

Fiqh-Islom qonunshunosligi, Sharq xalqlari va Islom madaniyati erishgan buyuk qadriyatdir. U nafaqat diniy-huquqiy va ma'naviy-ahloqiy muammolarni, balki musulmonlarning butun turmush tarzini o'z ichiga olgan.

Shariat ilmlari nimadan iborat deganda, buyuk Islom mutafakkiri Abduraxmon ibn Naldunning mashhur asari bo'lmish «Al-Muqaddima»da keltirilgan fikrlar diqqatga sazovordir. U bashariy ilmlarni ikki qismga bo'ladi.

1. Inson tafakkuri orqali erishiladigan tabiiy ilmlar.

2. Naql (rivoyat qilish) orqali erishiladigan ilmlardan

iborat bo'lib, insonlar uni asoschisidan, yaratganning o'zidan oladilar.

Birinchi qism, hikmat va falsafaga mansub ilmlar nomi bilan atalib, insonlar ularni turli mavzular va misollarga doir dalillar orqali qo'lga kiritadilar.

Ikkinchi qism, naqliy va va'ziy ilmlar nomi bilan atalib, xabarlar (hadislar) orqali shariat asoschilaridan naql va rivoyat etiladi.

Islom huquqshunosligidan iborat bo'lgan fiqh ilmi, shariat hukmlari furu'ini o'rganuvchi fandir.

Bu fanning asosiy maqsadi shariat hukmlarini amalga oshirish iqtidori va malakasiga ega bo'lishdir. Fiqh ilmi hukmlarini Qur'oni Karim

va Sunnadan ishtihod orqali chiqarishga tayanadi. Ishtihod esa huquqshunoslar o'rtasida ixtiloflar yuzaga kelishi va musulmonlar orasida turli guruhlar tuzilishiga sabab bo'lgan.

Islom huquqi ikki o'zaro shartlashilgan (o'zaro shartlangan) xususiyatlari bilan tavsiflanadi (xarakterlanadi):

1) diniy kelib chiqishi;

2) huquqiy yozma manbalarining islom e'tiqodlari, ahloq-odob normalari, diniy marosim qoidalari, islomning bir butun diniy normalari bilan yaqin aloqadorligi:

Islom huquqi hozirgi zamonning eng yirik huquqiy tizimlardan biri bo'lib qolmoqda va insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning (oilalari, jamiyat, davlat) barcha asosiy sohalarini tartibga soluvchi normalarni o'zida mujassam etgan.

Islom huquqida mavjud bo'lgan aksariyat normalar Ilohiy kelib chiqish xususiyatiga ega sanaladilar, demak, ular – abadiy va o'zgarmasdir. Shu sababli nazariy jihatdan ular davlatning normativ huqukiy aktlari bilan almashtirilgan.

Musulmon fiqhshunoslari (yuristlari) asosiy manbalarida (Qur'oni Karim, sunna, ijma, qiyos) mutlaqo barcha savollarga javob mavjudligidan kelib chiqadilar. Vazifa faqat ularni topishdadir. Ular Qur'on va Sunna bilan to'g'ridan-to'g'ri tartibga solinmagan masalalarni hal etish uchun yangi normalarni aniklashning turli xil usullarini ishlab chiqishgan.

Demak, xulosa chiqarishimiz mumkin: Qur'on, Sunna va payg'ambarimiz Muhammad sallollohu alayhi vasallam sahobalarining sud-huquqiy qarorlari (individual yoki konsensus asosida chiqarilgan) qatorida aynan doktrina o'zida barcha ma'qul bo'lgan manbalarni jam etgan holda islom huquqining yuridik ma'nodagi mustaqil va etakchi manbasi bo'lib qoldi (tashqi formasi). Ayniqsa, aynan doktrinalar doirasida amaldagi islom huquqining aksariyat normalari ishlab chiqilgan.

Islom huquqining doktrinasi ishlab chiqilishi uning tizimlashtirilishining murakkablashtirilishi (bilan birga) undan foydalanishda qulaylik rivojlanish (shakllanish) imkoniyatini beradi. Shuningdek, bu jarayonda fiqhshunoslarning roli o'sib borgan. O'z kelib chiqishining dastlabki bosqichlarida musulmon-huquqiy doktrinasi Qur'on va Sunnani sharhlash asnosida asosan konkret (aniq) xulq-atvor qoidalarini izlash bilan mashg'ul edi.

Keyinchalik musulmon-huquqiy doktrinasi ulardan yangi huquqiy normalarni ajratib olishning eng ma'qul usullarini qat'iy tizimlashtirish jarayoniga o'tdi. Yana keyinchalik islom huquqining metodologik va

umumnazariy e'tirof etilgan asoslarini ishlab chiqish uchun o'zining asosiy kuchini qaratgan edi.

Islom huquqining asosini kazuistik metod tashkil etadi. U "ilm al-furu" yoki "mas'ail" (ishlarni tahlil etish) deb nomlangan. Gap shundaki, islom huquqining rivojlanishi umumiy mavhum (abstrakt) normalarni ifoda etish, bir turdagi xulq-atvor qoidalarini boshqalari bilan ketma-ket almashtirish yoki konkret (muayyan) sud qarorlariga umume'tiroflik kuchini berish yo'ldan bormagan.

Islom huquqi tuzilishining o'ziga xosligi shundan iboratki, bir maktab yuristlarining qonun-qoida mehnatlarini ifoda etuvchi barcha xulosalar bir-biriga zid bo'lib kelishi mumkin bo'lgan holatlarda ham teng ravishda haqiqiy deb tan olinadi (qonuniy deb).

Eskirib qolgan normalar hatto yangi ijtimoiy ehtiyoj talablariga javob bera olmay qolganda ham shariatning diniy-huquqiy tizimiga ko'ra nazariy jihatdan to'g'ridan-to'g'ri bekor qilinishiga yo'l qo'yilmagan.

Ushbu sharoitda vaqt o'tishi bilan islom huquqi turli tarixiy vaziyatlarda vujudga kelgan ko'pgina turli xil normalar to'plami (yig'indisi)ga aylanib qolgan edi va ular aksariyat holatlarda rasman aniqlashtirilmagan edi. Buning ustiga ushbu sharhlarning qoidalari vazifalari "sharoiti, vaqti va joyi"da kelib chiqqan holda kerakli normalarni tanlashdan iborat bo'lgan qozi (sudya) va muftiylar uchun majburiy bo'lgan.

Shuni ham qayd etib o'tish lozimki, islom huquqi qozi (sudya)lar uchun keng tanlash imkoniyatini yaratib bergan edi. Tasodif emaski, to hozirgi vaqtgacha zamonaviy qonunchilikda uning normalarini mustahkamlashda u yoki bu musulmon davlati hukumatini tashkil etuvchi ijtimoiy-siyosiy kuchlarning manfaatlariga (qulayroq) eng yaxshi usulda javob beruvchi ko'pgina bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan qoidalar ichidan tanlash imkoniyati saqlanib kelmoqda.

Mazmuniga ko'ra islom huquqining barcha normalarini ikki asosiy guruhga bo'lib o'rganish qabul qilingan. Birinchisiga insonning u yoki bu qilmishiga baho berish bilan bog'liq qoidalar kirgan. Bunga muvofiq islom huquqi barcha qilmish (harakat yoki harakatsizlik)larni beshta turkum (kategoriyaga) bo'ladi:

1. majburiy;
2. tavsiyaviy;
3. ruxsat etuvchi;
4. tanbeh beruvchi
5. ta'qiqlangan.

Ikkinchi guruhga muayyan vaziyatlardagi xulq-atvor qoidalarini ifoda etuvchi, shuningdek qilmishning shart-sharoiti va oqibatini belgilab beruvchi normalar taalluqli.

Islom huquqi tarmoqlarining klassifikatsiyasi uning doktrinasidan tomonidan ishlab chiqilgan va ulardan eng asosiylarini ajratib ko'rsatadi:

- shaxsiy status huquqi (oilalar va nikoh, meros va boshqa bir qator ularga tutashuvchi munosabatlar)
- delikt (jinoiy) huquq;
- fuqarolik huquqi;
- "hukumat normalari" (davlat, ma'muriy va moliya huquqini qamrab oluvchi) huquqi.

Bizning nazarimizda, islom huquqi butunligicha – bu sezilarli darajada, mulk ayirboshlash munosabatlari, shaxsiy nomulkiy aloqalardan tarixi vujudga kelgan xususiy huquq. Undagi asosiy o'rinni diniy-ahloqiy printsip va (kriteriy) mezonlarga suyang'an (orientatsiya qilgan) yurish-turish qoidalarini egallaydi. Ehtimol, alohida va ancha shakllangan tarmoq bo'lib shaxsiy status huquqi hisoblanganligi qonuniy bo'lsa kerak (to'g'ri bo'lsa kerak).

Bir qator izlanuvchilarning fikricha, musulmon huquqi ko'pgina normalarining xususiyatiga ega ekanligi uning zaifligi va shakllanmaganligidan dalolat bermaydi, balki, aksincha va ko'pchilik hollarda asosan mavhum unifikatsiyalangan yurish-turish (ahloq-odob) qoidalarini o'zida mustahkamlovchi hozirgi "zamonaviy" qonunchilikka xos bo'lgan mavjud kamchilik (etishmovchilik) (xaos)dan xoli bo'ladi.

Undan farqli o'laroq, islom huquqi har qanday nizoning alohida holatlarida shaxs individual xususiyatlarining maksimal hisobini kafolatlaydi, bu esa yuqori darajadagi adolatni ta'minlaydi. Axir qozi (sudya) biron bir ishni ko'rayotganda bir talay turli xil echimlardan (tegishliroq) muvofiqrog'ini tanlash huquqi mavjud bo'ladi, ba'zida bir-biriga zid bo'lgan qoidalarini ham. Buning ustiga normalar kolliziyasi holatida, odatda musulmon shaxsga qulayrog'i qo'llaniladi.

Nima bo'lgandayam, islom huquqi turli xil ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlarda qo'llash mumkin bo'lgan tartibga solish printsip (tamoyil), konstruktsiya (tuzilish) va metod (usul)lariga xos bo'lgan mustaqil huquqiy tizim (oilalar) hisoblanadi.

"Islom huquqi" predmeti haqida gap ketganda, islom huquqining boshqa davlatlar huquqiy fanlaridan umumiy va printsipial farqlarini har doim tahlil qilmoq lozim. Har doim shuni nazarda tutmoq lozimki, barcha

musulmonlar umumiy qonunchilik kodeksiga ega – bu ularning hayotida bir xilda qo‘llaniladigan shariat qonunlari.

Islom huquqi asoslari bilan tanishish istagini bildiruvchilar eng avvalo shuni e'tiborga olmoqlari lozimki, huquq haqidagi zamonaviy Evropaning ilm-fani tushunchasi va tamoyillarini islom tizimi qonunchiligiga tatbiq etib bo‘lmaydi (qo‘llab bo‘lmaydi).

2-Mavzu. Islom huquqi tizimi: sohalari va institutlari

1. Islom huquqi normalari va ularning turlari.

2. Islom huquqi sohalari va institutlari.

Islom huquqi normalarini turlash, sohalarga bo'lish eng muammoli masalalardan biri hisoblanadi.

Ushbu masalalarga yondashish va hal qilish turli davrlarda har xil oqimga mansub bo'lgan olimlar tomonidan turlicha bo'lgan.

Islom huquqshunoslari huquq normalarini manbalarga qarab ikkita katta guruhga bo'ladilar. Birinchi guruh - Qur'oni Karim va hadislar normalari: ushbu guruhga mansub normalar eng ishonchli, haqiqiy normalar sifatida qaraladi. Ikkinchi guruh - ijmo', qiyos normalari.

Asosiy normalar sifatida birinchi ikki manbada (Qur'oni Karim va sunnada) ko'zda tutilgan normalar tan olinadi. Islom huquqshunoslarining fikricha haqiqiy normalar faqat Qur'oni Karim va sunnada ifodalangan, boshqa manbalarga asoslangan normalar esa birinchilarni to'ldirishga xizmat qiladi va tom ma'noda shariat tarkibiga kiritilmaydi. Ko'pchilik mualliflar barcha manbalarda ifodalangan normalarni tan olishadi shunda ham birlamchi manbalarda ifodalangan normalarning ustunligini e'tirof etishadi.

O'zining aniqligi bilan Qur'oni Karim va sunnaning normalari ikki kategoriyaga bo'linadi: 1) aniq va turli xil boshqa izohlashga yo'l qo'ymaydigan normalar; Bu turdagi normalar ijtihodga yo'l qo'ymaydi. O'zlarining aniqligi va bir ma'noda tushunilishi bilan belgilanadi, bevosita va yagona tartibda amaliyotda qo'llaniladi; 2) boshqa ma'no ham keltirib chiqaradigan, turli izohlashga yo'l qo'yadigan, mavhum normalar. Bu normalar ijtihod orqali ularni aniqlashtirishga, konkretlashtirishga muhtoj.

Qur'oni Karimning Moida surasi 106-oyatida shunday deyiladi: "Ey mo'minlar, birovigizga o'lim kelganda – vasiyat qilar vaqtida o'zingizdan (ya'ni musulmonlardan) bo'lgan ikki adolat egasi yoki agar biror erga safar qilib, o'sha erda sizga o'lim etgan bo'lsa, o'zgalardan bo'lgan ikki kishi o'rtalaringizda guvoh bo'lsin!" Ushbu oyatda vasiyat bo'yicha meros qoldirishni rasmiylashtirish bilan bog'liq bo'lgan qoida o'z aksini topgan bo'lib uning mazmuni qanday bo'lsa shunday tushunilishi lozim. Mazkur qoidani boshqacha tushunish va sharhlash mumkin emas.

Mavhum, unchalik aniq bo'lmagan normalarda hatti-harakat qoidasi qat'iy, aniq bo'lmaydi. Uni aniqlash, sharhlash yo'li bilan tegishli xulosa chikarish lozim bo'ladi. Masalan, Qur'oni Karimning Nur surasi 56-

oyatida shunday deyiladi: “Namozni ado etinglar va zakotni beringlar va payg‘ambarlarga itoat qilinglar. Shoyad mag‘firat qilsangiz”. Ushbu oyatdagi “zakotni beringlar” ko‘rsatmasi umumiy, mavhum bo‘lib, unda qanday moldan, qachon va qancha miqdorda zakot berish kerakligi aniq ko‘rsatilmagan. Mazkur savollarga javob topish ijtihod usulidan foydalanishni, boshqa manbalarga murojaat qilishni talab qiladi.

YIII-asrdan e'tiboran turli islom huquqiy maktablarining shakllana boshlanishi, XII asrga kelib islom huquqiy nazariyasining to‘la shakllanishi ushbu huquq tizimini tarkibiy qismlarga bo‘lish, uning normalarini turlash masalalariga xam o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Amaliyotda u yoki bu masalani hal qilishda asosiy manbalarda tegishli qoida bo‘lmasa, masala hal qilinayotgan hududda hukmronlik qilayotgan huquq maktabi ta’limotiga, shu mintaqada keng tarqalgan yirik huquqshunos olimlarning asarlariga tayanib hukm yoki qaror chiqarish qoidaga aylandi.

Islom huquqi tuzilishini tavsiflashda uning normalarini tahlil etish muhim ahamiyatga ega. Islom huquqshunosligi islom huquqi normalariga shunday ta’rif beradilar. Ularning fikricha, islom huquqi normasi bu e’tiqod etuvchilar uchun bevosita Olloh tomonidan vahiy yuborish yo‘li bilan, yoki Olloh irodasini yirik shariat peshvolari tomonidan sharhlash orqali chiqarilgan xulosadan iborat. Har qanday norma ko‘rsatib o‘tilgan manbalardan biriga asoslanishi lozim.

Islom huquqining barcha normalari mazmuniga ko‘ra ikkita katta guruhga bo‘linadi. Birinchi guruh normalariga: insonning u yoki bu harakatini baholashga qaratilgan normalar kiritiladi. Bu masalada barcha normalarni beshta turga bo‘lish qabul qilingan majburiy, tavsiya etuvchi, ruxsat beruvchi, tanbeh beruvchi, ta’qiqlovchi.

Majburiy normalar islom ta’limotida farz amallar deb ataladi. Majburiy normalar qat’iy bo‘lib, uni bajargan kishi savob oladi, bajarmagan kishi gunohkor bo‘ladi. Ushbu normalarning farzligiga ishonmagan kishi iymonsiz hisoblanadi. Farz amallari ikkiga: ***farzi ayn va farzi kifoyaga bo‘linadi.***

Farzi ayn har bir musulmon albatta bajarishi shart bo‘lgan qoida, amal. Bunday normalarning umumiy soni mutaxassislarning fikricha, yuzdan ortiq. Qilgan dehqonchiligining hosilidan o‘ndan bir miqdorda har yili (ushr) berib turish, guvohlik berganda ko‘rgan va eshitganini to‘g‘ri ifoda etish, qo‘liga tushgan birovning haqqini egasiga qaytarish, meros qoldirmay turib qarzlarni ado etish, urning o‘z xotinini alohida turar joy bilan, o‘rtacha taom bilan ta’minlashi, xotinning mahrini chin ko‘ngildan berish kabilar farzi ayn normalaridir.

Farzi kifoya deb shunday normalarga aytiladiki, ularni bajarish bir jamoaga mansub bo'lgan barcha musulmonlar uchun shart emas; ularnig bir qismi ushbu normalarni bajarsa

qolganlarining zimmasidan mazkur majburiyat soqit bo'ladi. Musulmonlarning ushbu normalarni bajarmaganlari gunohkor bo'lmaydi. Agar farzi kifoya normalarini musulmon jamoasi a'zolaridan hech biri bajarmasa butun jamoa a'zolari gunohkor bo'ladilar. **Farzi kifoya** normalarining umumiy soni – **o'n beshta**. Shariat ilmlarini mukammal egallash, oddiy musulmonlarga shariat hukmlarini o'rgatish, Qur'oni Karimni yod olish, yordamchisi bo'lmagan faqir, zaif va qari kishilarni tarbiya qilish, etim qolgan bolalarni tarbiya qilish, Vatanni dushmandan mudofaa qilish uchun harbiy xizmatni o'tash kabilar farzi kifoya normalarga misol bo'ladi.

Tavsiya etuvchi normalar islom ta'limotida **vojib** amallar deb ataladi. Ushbu amal ham farz kabi musulmonlarning u yoki bu xatti-harakatini, ishni qilishga undovchi amaldir. Uni bajargan kishi savob oladi, bajarmagan – gunohkor bo'ladi. **Vajib** amallarni inkor qilgan musulmon iymonsiz bo'lmasada, qattiq gunohga qoladi. Bunday amallarning eng muhimlari qirqta: zakot to'lashga qodir bo'lgan kishining qurbon hayiti kunlari mol so'yib qurbonlik qilishi, va'daga vafo qilish, er-xotinning bir-biriga xushmuomalada bo'lishi, berilgan sovg'a va hadyalarni qabul qilish, bozorda sotayotgan narsasining kamchiliklarini aytib sotish, qozi yoki hakim bo'lgan kishi mazlumlarning shikoyatini tinglab adolatli hukm chiqarish kabilar vojib amallar jumlasidandir.

Ruxsat beruvchi normalar islom ta'limotida sunnat amal deb yuritiladi. **Sunnat** amallar Muhammad payg'ambarimiz rasululloh salollohu alayhi vasallam har doim bajarib yurgan va uni qilgan kishilarga savob bo'lishnii aytgan xatti-harakatlar qoidalardir. Bunday amallarni bajargan kishi savob oladi, bajarmagan kishi qattiq gunohkor hisoblanmasa-da, qiyomat kunida malomatga qoladi, payg'ambar Rasululloh salollohu alayhi vasallamning e'tiboriga loyiq bo'lmaydi. Sunnat amallar **etmishta**: o'g'il bolalarni o'n yoshga etmay turib xatna qildirish, ta'minotga qudrati etadigan kishilarning uylanishi, qiz voyaga etgach erga berish, nikoh to'yini xalqqa e'lon qilib o'tkazish, insonga zarar etkazadigan hayvonlarni yo'qotish, qarz so'ragan ishonchli kishilarga qarz berib turish, uy-ro'zg'or ishlarida xotin bilan maslahatlashish kabilar misol bo'ladi.

Sunnat amallarning bir ko'rinishi – **bu mustahabdir**. Mustahab, Muhammad payg'ambar Rasululloh salollohu alayhi vasallam har doim

qilmagan, balki bir ikki marta qilib keyinchalik tark etgan, qilmay qo'ygan amallar bo'lib, ularni bajargan kishi savobga qoladi, bajarmagan kishi gunohkor bo'lmaydi. Bunday amallarning eng asosiylari **125 tadir**. Zakot va ushrdan tashqari boshqa sadaqalar berish, xotin o'z erining qarindoshlarini yaqin ko'rishi, muhtoj kishilarga kerakli uy-ro'zg'or buyumlarini tekinga omonat berib turish, suv chiqarish, yo'l solish va ko'prik qurish kabi odamlarga foydali ishlar uchun moddiy yordam yoki xizmat ko'rsatish, oldi-sotti muomalasida chaqqon va jur'atli bo'lish, halolligida shubha bo'lgan mollarni harid kilmaslik, qarz bergan kishi iloji boricha qarzni tezroq to'lash kabilar mustahab amallardandir.

Tanbeh beruvchi normalar biror xatti-harakatni qilishdan qaytaruvchi normalardir. Bunday normalar islom ta'limotida **makruh va gumonli harom** bo'lgan ishlar deb ataladi. Mo'min musulmon kishi bunday ishlarni qilishdan saqlanishi lozim. Gunohidan qo'rqib bunday ishlarni qilishdan saqlangan kishi savob oladi, qilgan kishi gunohkor bo'ladi. Bularning eng mashhurlari uch yuzta. *Makruh va gumonli harom* amallar: ayollar erlari va mahramlarisiz safarga chiqishlari, sotuvchining o'z molini maqtab qasam ichishi, besabab xotinini taloq qilish, halolligi shubhali bo'lgan mollar bilan savdo qilish, qo'y yoki sigirning narxini oshirish uchun bir-ikki kun sog'may bozorga olib chiqish, zakot va ushr uchun molning yomonrog'ini ajratib berish kabilar bo'lib, ularni qilish gunoh hisoblanadi. Lekin bunday ishlarni qilgan kishilar iymonsiz bo'lmaydi.

Ta'qiqlovchi normalar u yoki bu xatti-harakatni sodir qilishni qat'iyan man etadi. Islom ta'limotida bu turdagi normalar *zulmiy va zulmiy bo'lmagan* haromlar nomi bilan ataladi. *Harom* islom dinida qattiq ta'qiqlangan amal bo'lib, uni qilish mutlaqo mumkin emas. Bunday amalni qilgan kishi katta gunohga botadi. Gunohkor bo'lishdan qo'rqib ushbu amalni qilmagan kishi savob oladi. Haromning haromligini inkor qilib uni halol degan kishi iymonsiz bo'ladi. *Zulmiy harom* ushbu amalni sodir qilgan kishigagina zararli bo'lib qolmasdan uning zarari boshqalarga ham tegadi. *Zulmiy harom* amallarning mashhurlari *to'qson uchta*. Bular: sizni o'ldirishga qasd qilmagan kishini siz ham o'ldirmangiz, birovning hech bir a'zosini kesib yoki urib aybdor qilmangiz, hech kimning molini talab olmangiz, sotayotgan molingizning ayblarini oluvchiga aytmay aldab sotmangiz, qiz bolani o'zi xohlamagan kishiga zo'rlab erga bermangiz kabi qoidalar bo'lib, ularda u yoki bu xatti-harakatni sodir qilish ta'qiqlangan.

Zulmiy bo'lmagan haromlarning zulmiy haromlardan farqi shundaki, bunday xatti-harakatlarni sodir qilishlardan zarar faqat ularni sodir qilgan

shaxsga tegadi. Jamiyat va boshqa shaxslar bunday turdagi haromlardan zarar ko'rmaydi. *Zulmiy bo'lmagan* haromni sodir etgan kishi o'z xatti-harakatidan afsuslanib, gunohini kechirishini so'rab xudoga iltijo qilsa, uni kechirish ehtimoli bor. Zulmiy haromni sodir etgan kishi esa hech qachon kechirilmaydi. Zulmiy bo'lmagan harom ishlarning eng asosiylari 125 ta. Qimor o'yinlar o'ynab boylik topish, sudxo'rlik qilish, pora olish, najas va harom narsalarni sotib olish, ishsizlik va yalqov bilan kun kechirish, tamagirlik qilish, zino qilish, zino ishlariga vositachilik qilish, adolat bilan ta'minlay olmasa ikki xotinga uylanish, afyun, tamaki, nasha, ko'knori kabi narsalarni sotib olish kabilar zulmiy bo'lmagan harom ishlar bo'lib, ularni qilish ta'qiqlangan.

Alohida holatlarda inson xulq-atvorini, uning shart-sharoiti (sababi) va oqibatini belgilovchi normalar ham islom huquqi nazariyasida bir necha guruhga bo'linadi. Ulardan birinchisi amallar – mubohdir. Muboh biror ishni qilish yoki qilmaslikni inson ixtiyoriga berish haqidagi qoida-norma. Ushbu normani bajarmaslik gunoh hisoblanmaydi. *Bu birinchidan. Ikkinchidan*, ushbu normada ko'rsatilgan xatti-harakatni sodir qilish biror bir holat hodisa, vokea bilan bog'lanadi. Masalan, Qur'oni Karimning Moida surasi 2-oyatida “ *Ehromdan chiqib halol bo'lgach, ov qilaveringiz*”, - deyilgan. Ushbu oyatdagi “ov qilaveringiz” ko'rsatmasi majburiy bo'lmay, balki ixtiyoriydir. Ovni faqat xohlagan kishi qilishi mumkin. Ov qilish “halol bo'lish” bilan bog'langan.

Vaz'iy hukm (qoida) deb ataladi. Ushbu qoida besh qismdan iborat bo'ladi: sabab, shart, mone', ruxsat va azima, sihha va butlon. Sabab biror bir narsa, vokea, hodisaning kelib chiqishiga, sodir bo'lishiga shart-sharoit sifatida xizmat qiluvchi fakt. Masalan, Qur'oni Karimning Baqara surasi 180-oyatida “Birovingizga o'lim kelgan paytda (o'zidan keyin) mol-dunyo qoldirayotgan bo'lsa, adolat-to'g'rilik bilan ota-onaga, qarindosh-urug'ga vasiyat qilish farz etildi”, - deyilgan. Bu erda o'lim – sabab, meros haqida vasiyat qilish oqibatdir. Shart, bu shunday narsa, holatdirki, bir narsaning, holatning bo'lishini ikkinchisi taqozo qiladi. Masalan, er-xotinlik bo'lmasa taloq bo'lmaydi. Lekin, birinchisining bo'lishi ikkinchisini talab qilmaydi. O'z navbatida shartning ikki turi mavjud: qonun tomonidan qo'yilgan shart va huquq sub'ekti tomonidan qo'yilgan shart.

Birinchi turdagi shartga nikohni tuzishda, savdo-sotiq qilishda, vasiyatni rasmiylashtirishda bajarilishi shart qilib qo'yilgan xatti-harakatlar, xulq-atvor qoidalari misol bo'lishi mumkin.

Ikkinchi turdagi shartda huquqiy munosabatda ishtirok etuvchi shaxsga shartni mustaqil belgilash vakolati beriladi. Masalan, er xotiniga

mendan beso‘roq tashqariga chiqsang sen taloqsan degan shartni qo‘yishga qonun bo‘yicha haqqi bor.

Mone' – biror-bir holatning, faktning mavjudligi tufayli xatti-harakatni qilish mumkin emasligini belgilovchi qoida. Masalan, umumiy qoidaga binoan uka akadan meros olishi mumkin. Lekin, uka akani o‘ldirsa meros olish huquqidan mahrum bo‘ladi. Chunki qonunda meros oluvchi meros qoldiruvchini o‘ldirsa meros olish huquqidan mahrum bo‘lishi haqidagi qoida mavjud.

Ruxsat va azima shunday qoidalaridirki, ularda huquq sub'ektiga engillik berish, qulaylik yaratish maqsadida umumiy qoida bo‘yicha ta'qiqlangan xatti-harakatni qilishga ruxsat beriladi. Masalan, Kur'oni Karimning Naxl surasi 106-oyatida shunday deyilgan: “Kim Ollohga iymon keltirganidan keyin (yana qaytib) kofir bo‘lsa (Ollohning g‘azabiga duchor bo‘lur). Lekin kim qalbi iymon bilan orom olgani holda (kufr kalimasini aytishga) majbur qilinsa, (uning iymoniga ziyon etmas)”.

Sahih va botil normalar shunday normalarki, ularning birinchisida qonunda belgilangan barcha talablar, shartlarning natijasida kelib chiqqan oqibat haqiqiy, qonuniy hisoblanadi. Ikkinchisida esa, qonun talablarini to‘la bajarmaslik oqibatida kelib chiqqan natija haqiqiy emas hisoblanadi. Masalan: qonunda belgilangan talablarga rioya qilingan holda tuzilgan nikoh haqiqiy nikoh deb tan olinadi va huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Nikohni qayd qilishga qo‘yiladigan talablarning ayrimlarini bajarmasdan tuzilgan nikoh haqiqiy hisoblanmaydi. Masalan, erkak kishining boshqa erkak bilan nikohda bo‘lgan ayol bilan nikohga kirishi nikohni haqiqiy emas deb tan olishga asos bo‘ladi. Ushbu nikoh hech qanday huquqiy oqibat keltirib chiqarmaydi.

3-Mavzu. Islom huquqi manbalari

- 1. Islom huquqining manbalari tushunchasi.**
- 2. Islom huquqining asosiy va ko‘shimcha manbalari.**
- 3. Qur'oni Karim islom huquqining asosiy manbasi sifatida, undagi huquqiy normalar.**
- 4. Sunnat tushunchasi huquqiy manba sifatida.**
- 5. Islom huquqining qo‘shimcha manbalari.**

Islom huquqi masalalarini o‘rganish bilan shug‘ullangan hozirgi zamon olimlari shariat huquq tizimining manbalari haqida turlicha fikrlarni bildirganlar. Masalan: X.Sulaymonova shariatda barcha huquq tarmoqlari, jumladan, jinoyat huquqiga tegishli masalalarni hal etishda uning uchta manbasi: Qur'on, sunna va ijmo‘ amal qilgan degan bo‘lsa, M.Mullaev musulmon huquqidagi mazkur uchta manba qatoriga qiyos va odat huquqini ham qo‘shgan.

Kur'oni Karim-islom huquqining asosiy manbasi sifatida.

Qur'oni Karim islomning muqaddas kitobi sifatida ma'lum. Ulamolar uni «Ollohning mo‘jizali kalomi bo‘lib, Muhammadga vahiy orqali tushgan, Tilovati ibodat hisoblanuvchi kitob» deb tavsiflaydilar.

Qur'oni Karim Ollohning so‘zi. Lafzi ham, ma'nosi ham arabcha holda, payg‘ambari Muhammad binni Abdulloh qalbiga Jabroil alayhissalom vositasida, payg‘ambarning Olloh tomonidan yuborilganligiga hujjat bo‘lsin deb tushirilgan.

«Al-Fotiha» surasidan boshlanib, «An-nos» surasi ila tugallanadi. Bizga ham yozma, ham og‘zaki ravishda mutavotir (uning shu ko‘rinishda boshidan ohirigacha aynan Jabroil alayhissalom keltirgan ilohiy kitob) ekanligiga hech shubha tug‘dirmaydigan tarzda etib kelgan darajada avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Har qanday o‘zgarish va soxtalashtirishdan saqlangan. Chunki Olloh taolo o‘zi uni saqlashni zimmasiga olgan. Ya'ni: «Hijr» surasining 9-oyatida Biz bu «Qur'onni nozil qildik va biz uni saqlaguvchimiz», - deyiladi.

Qur'oni Karim o‘ziga xos nodir uslubi, lafzlarining go‘zalligi va fikrlarning teran va o‘tkirliigi bilan eng fasohatli arablarni ham hayratda qoldirdi. Arab qabilalarining fasohatda shuhrat qozongan raislari Qur'on oyatlarining fasohati oldida o‘zlarining ojizligini sezdilar va arab tilidagi mahorati va fasih bo‘lishiga qaramay biror-bir oyat misolida so‘z

aytishdan o'jiz bo'ldilar. Ba'zi arab shoirlari Qur'oni Karim oyatlariga o'xshatib she'rlar to'qib ko'rdilar, ammo ularning aytganlari xalk ommasiga maqbul bo'lmadi va ularning dilidan joy ololmadi.

Qur'oni Karim 114 sura va 6666 ta oyatdan iborat. Ularning bir qismi Makkada, bir qismi esa Madinada nozil bo'lganligi ko'pgina adabiyotlardan yaxshi ma'lum.

Qur'oni Karim payg'ambarimiz Muhammad s.a.v. ga parcha-parcha tarzida vahiy qilinib, Ramazon oyida tushirilgan. Olloh taolo Qur'oni Karimda «Biz Qur'onni Ramazon kechalaridan bo'lgan Qadr kechasida tushirdik» (Qadr surasi 1-oyat) deb marhamat qiladi. «Baqara» surasida esa Olloh taolo: «Ramazon oyi shunday oyki, unda Qur'oni Karim odamlarga yo'l boshlovchi qilib yuborilgan. Uning oyatlari to'g'ri yo'l ko'rsatishda va yaxshi yomonni va oqu-qorani ajratishda ravshan dalildur» (185-oyat) deb xabar beradi.

Bu vahiyning birinchi bayoni «Laylatul qadr» kechasi boshlanib, uning vafotigacha, ya'ni 23 yil davom etgan deb hisoblaydilar. Keyinchalik islomda muqaddaslashtirilgan ana shu kecha diniy an'ana bo'yicha hijriydan 12 yil oldin ramazon oyining 27 kuniga o'tar kechasi milodiy hisob bilan 610 yilning 31-iyulidan 1-avgustga o'tar kechasi deb hisoblanadi.

Qur'onni vahiy qilinishining boshlanishi to'g'risidagi tasavvur, uning «Al-qadr» surasida ifodalangan.

Vahiyning boshlanishi to'g'risidagi diniy rivoyatlar, jumladan ibn Ishoq ibn Hishomning «Siratur rasul-Alloh» asarida yozilishicha, Muhammadning Makka yaqinida joylashgan Hiro tog'idagi g'orga borib tunab qolish va ibodat qilish odati bo'lgan.

Bir kuni kechasi u tushida osmondan kelgan «O'qi» degan ovozni eshitgan. U «Men o'qishni bilmayman» - deb javob bergan. Yana «O'qi» degan ovoz va joriy qiynoqlardan keyin farishta Jabroil o'rama qog'ozni ochib turgan va Muhammad ana shu surani o'qigan. Islom an'anasi buyicha ana shu kecha birinchi vahiy qilingan kecha deb hisoblanadi. «Al-alq» (Laxta qon) nomli 96-suraning dastlabki beshta oyati hisoblanadi.

Odatda Jabroil Muhammadga oyatlarni o'qib berar, u yodlab olib, o'z izdoshlariga etkazar, ular ham o'z navbatida shunday qilar edilar. O'sha davrda ko'pchilik shu jumladan Muhammad s.a.v. ham o'qishni va yozishni bilmaganliklari uchun yodlab olish u davrning birdan-bir usuli bo'lgan.

Bu vahiy milodiy yil hisobida 22 yil, hijriyda esa 23 yil davom etgan. Muhammad vafot etganida uning safdoshlari Qur'onni yod bilganlar.

O'sha paytda oz sonli kishilargina o'qish, yozishni bilganlar, savodli musulmonlar yozish imkoni bo'lgan narsalarga Qur'on oyatlarini aniqlik bilan yozib borganlar.

Qur'on matnlarining to'planishi tahlil qilinishi va muqaddas yozuv sifatida e'tirof etilishi Muhammad vafotidan keyin 20-25 yil davomida, dastlabki halifalar Abu Bakr, Umar, Usmon davrida amalga oshirilgan.

Abu Bakr hukmronligi davrida barcha suralarni to'la yod bilgan 7 tagina odam qolgan edi. Muhammad umrining oxirlarida 5 yil davomida unga kotiblik qilgan. Zayd ibn Sobit bitta suraning oxirinigina bilmagan, qolgan barcha suralarni yod bilgan. Ko'pchilik musulmonlar ayrim sura yoki parchalarni yod bilganlar xolos.

Bir necha janglardan so'ng, suralarni yod bilgan odamlar qolmasligi xavfi paydo bo'ldi.

Shuni hisobga olib, Abu Bakr eng yaqin safdoshi Umar maslahati bilan 633 yilda Qur'on suralarini to'plab, dastxat

qoldirishga qaror bergan va bu vazifaning bajarilishini Zaydga topshirgan. Bu to'plam dastavval suhif (sahifalar) deb nom olgan. Lekin bu nusxa saqlanib qolmagan.

Qur'onning hozirgi nusxasidagi 114 sura bilan taqqoslab ko'rilsa, Sukufda hammasi 109 sura bo'lganligi va 1, 34, 41, 45 va 96 suralar bo'lmaganligi aniqlanadi. Oradan 17-18 yil o'tgach, ilgaridan o'z ixtiyori bilan suralarni yozib yurgan va alohida to'plam qilib olgan ayrim kishilar qo'lidagi nusxalarni xalifalikning ayrim shaharlarida o'qish va ibodatlarda ulardan foydalanish kengayib borgan sari ana shu nusxalar orasidagi tafovut sezilib borgan.

Ilohiy yozuvda kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan xilma-xilliklarning oldini olish maqsadida Usmon barcha dastxatlarni to'plab, taqqoslab chiqish va ular asosida bo'lajak Qur'onning yagona nusxasini tayyorlashga amr bergan va o'zi bu ishga bosh bo'lgan. Usmon amrini bajarish uchun to'rt kishilik guruh belgilangan. Unga Zayd rahbarlik qilgan uning tarkibiga Qur'onni yaxshi bilgan sahobalardan az-Zubayr, al-Os, ibn Hishomlar kiritilgan.

Bular barcha suralarni qaytadan tekshirib, yagona nusxani tayyorlagan. Ilgarigi suralarning barchasi yo'qotilgan. Yangidan dastxat qilingan yagona nusxa tarixda "Halifa Usmon mushafi" deb nom olgan. Bu mushaf Madina shahrida saqlanadi.

Mushaf qo'lyozmasi tayyor bo'lganidan keyin tez orada Usmon buyrug'i bilan undan 2 nusxa ba'zi ma'lumotlar bo'yicha 4 nusxa olinadi. Qo'lyozma buqa terisiga ko'chirilgan, bu nusxalar Kufa Pasra, Damashq

va boshqa shaharlarga yuborilgan. Hozirgi kunda Islom olamida 4 ta qadimiy Mushaf nusxalarining borligi ma'lum. Ulardan biri Madinada saqlanayotgan asl nusxa bo'lib, ikkinchi nusxa Ka'bada, uchinchi nusxa Kohiradagi Misr milliy kutubxonasida saqlanmoqda. To'rtinchisi Toshkentda O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyida saqlanib, 1989-yil boshlarida Movarounnahr musulmonlari diniy boshqarmasiga topshirilgan. Qur'onning xususiyatlaridan biri - uning lafzi ham, ma'nosi ham Allohdan ekanligidadir. Payg'ambar alayhissalom uni faqat o'quvchi va boshqalarga etkazuvchi bo'lganlar, xolos. Mazkur xususiyatdan quyidagilar kelib chiqadi:

a) payg'ambar alayhissalomga Alloh tomonidan in'om qilingan ma'nolar ham bor, lekin ularni payg'ambar o'z lafzlari ila so'zlaganlar. Ular qudsiy hadislar deyiladi va Qur'on hisoblanmaydi, ularga Qur'on hukmi berilmaydi, ularni nomozlarda o'qib ibodat qilinmaydi, hujjat jihatidan Qur'on ila barobar bo'la olmaydi, chunki lafzi Allohdan emas;

b) Qur'on suralarini yoki biror oyatini arabchaga aynan oyat beradigan ma'noni bildiradigan so'zlar ila tafsil qilingan bo'lsa, Qur'on ma'nosini qanchalik aynan bera olsa ham, tavsir Qur'onga qanchalik muvofiq bo'lsa ham, unga Qur'on hukmi berilmaydi.

v) Qur'on suralarini yoki biror oyatini arab tilidan boshqa tilga tarjima qilinsa, tarjimada Qur'on bergan ma'noni berishga qanchalik diqqat qilingan bo'lsa ham, unga Qur'on hukmi berilmaydi.

Iyjoz va uning arkonlari

Iyjozning lug'aviy ma'nosi birovga ojizlikni nisbat berish. Demak, Qur'on kishilarni ojiz qoldirdi, degani ularning aynan Qur'onga o'xshash kitob keltirishdan ojiz ekanliklarini isbotladi, deganidir. Iyjozning 3 xil rukni bo'lib, shu ruknlarsiz iyjoz bo'lmaydi.

1. At-taxaddiy - munozaralarga, musobaqalarga chaqirish.
2. Al- muqtazo lil munoazala munozaraga chaqirilganlar uchun munozara qilishga sharoit bo'lish.
3. Intifoul moni' munozaraga hech qanday mone'lik bo'lmasligi.

Qur'oni Karimda iyjozning hamma uch rukni mavjuddir

1-rukni. "At-tahaddiy" Rasululloh sallollohu alayhi vasallam. "Men Alloh tomonidan sizlarga yuborilgan payg'ambarman, bunga hujjatim va

dalilim sizlarga o'qib berayotganim menga Alloh tomonidan vahiy qilingan shu "Qur'ondir" dedilar.

Kishilar payg'ambarning bu aytganlariga ishonmadilar. Ular aytdilarki: "Agar bunga ishonmasalaringiz, bu inson so'zi-ku, degan fikrga borsalaringiz, sizlar ham insonsizlar, binobarin, shu men aytgan Qur'ondek sizlar ham Qur'on keltiringlar, yoki ojiz bo'lsalaringiz, 10 ta sura keltiringlar, juda bo'lmasa laqal bir dona Qur'on surasidek sura keltiringlar», - deb ularni munozaraga chaqirdilar.

2-rukn. "Al-muqtazo lil munoazala" Munozaraga mos sharoitning vujud. Bu rukn eng aniq va ravshan rukndir. Chunki Rasululloh s.a.v. ularning umr bo'yi e'tiqod qilib kelgan dinlari botil, nohaq din ekanligini, balki o'tgan ota-bobolari ham noto'g'ri dinda bo'lganliklarini, ular e'tiqod qilib, "xudoimiz" deb atalgan butlari ibodatga zarracha mustahiq emasligini, balki aqlari yo'qligi uchun o'z qo'llari ila toshdan, yog'ochdan yasab olib xudoimiz deyayotganlarni bular hammasi yolg'on da'vo ekanligini e'lon qildilar.

3-rukn. "Intifoul-moni" munozaraga hech qanday mone'lik qarshilikning yo'qligi.

Birinchisi - Lafziy jihatdan qaralsa, Qur'oni Karimning lafzi arab tilida, harflari ham arab alifbosida, jummalarning tuzilishi, iboralarning uslubi ham arab uslubida inkor etuvchilarning ham ona tillari - arab tilidir.

Ikkinchidan - ma'naviy jihatdan qaralsa, o'sha davr shoirlarining she'rlarida va turli munozaralarida ularning aqlari etukligi, uzoqni ko'ra-bila olishlari, katta hayotiy tajribaga ega ekanliklari maqtalgan.

Qur'oni Karim ularga tahaddiy qilib deydiki: "Oralaringizda shunga etuk kishilaringiz bor, biz tushirgan Qur'ondek bir Qur'on keltiringlar bo'lmasa!"

Uchinchisi – vaqt jihati. Hammaga ma'lum va ravshanki, Qur'oni Karim hammasi birato'la bir vaqtda nozil bo'lgan emas, balki 23 yil davomida bo'linib tushgan. Bordiyu munkirlar, bizga Qur'ondek kitob keltirishga vaqt etmaydi, desalar, marhamat, ular bu yo'lda har qancha urinishsa, munozara qilishga, Qur'ondek Qur'on keltirishga qodir bo'lsalar, bu muddat bemalol etarli edi. Iyjozning (ojiz qoldirishning) yuqorida aytgan hamma arkonlari mavjud bo'la turib, laqal birorta ham sura keltira olmadilar. Uning o'rniga tarixdan ma'lumki, chiday olmaslik yo'lini tutdilar va islomga, musulmonlarga qarshi urush olib borishga, hattoki payg'ambarni o'ldirishga maxfiy ravishda kelishdilar.

Qur'oni Karim kishilarni bir tomondangina emas, balki bir necha tomondan - ham lafziy, ham ma'naviy, ham ruhiy tomondan ojiz qoldirgan.

Hatto ulamolarning yakdil fikricha, ham insoniyat aqli Qur'oni Karimning kishilarni o'jiz qoldirgan hamma tomonlarni to'la idrok qila olmaganlar.

Qur'oni Karim oyatlari qanchalik chuqur mulohaza qilinsa, osmondagi sayyoralarning harakat tartiblari, butun borliqdagi jonli va jonsiz mavjudot sirlari qancha o'rganilsa, bu ilohiy kitobning o'jiz qoldiruvchi tomonlari yana shuncha ochilib, uning Alloh huzuridan nozil qilinganligiga dalil bo'lib boraveradi.

Qur'oni Karimda avval ila oxiri bir-biridan ma'no jihatidan uzoqlashadigan yoyinki quloqqa yoqimsiz lafzlar yo'q. Uning iboralari eshituvchilarning saviyalariga muvofiqligida, balog'atda eng yuqori darajadadir. Qur'onning tinglovchiga ta'sir quvvatiga kelsak, uni har qanday vijdonli va insofli kishi sezadi. Janobi payg'ambarimizning eng ashaddiy dushmanlaridan bo'lgan Al-Valid binni al-Mug'iyra: "Qur'onni eshititish shunday lazzatli, avvalidan oxirigacha shu qadar sermazmun va sermahsulki, bunday ma'noli so'zlarni ifoda qilishga odam bolasi qodir emasdir", deb e'tirof qilishga majbur bo'ladi. Qur'onning iyjoziga hatto dushmanlar shunday baho berganlar.

Qur'oni Karimda kelgan qoida va me'yorlar 3 xildir

1. *E'tiqodga taalluqli qoida va me'yorlar.* Bunga oqil kishi e'tiqod qilishi lozim bo'lgan narsalar kiradi. Chunonchi, Allohga, uning farishtalariga, kitoblariga, payg'ambarlariga, qiyomat kuniga, o'lgandan so'ng tirilishga ishonish va h.k.z

2. *Axloqqa taalluqli qoida va me'yorlar.* Bunda kishi qanday go'zal xulqlar bilan ziynatlanishi va qanday yomon yaramas xulqlardan uzoq bo'lishi ko'rsatilgan.

3. *Amaliyotga taalluqli qoida va me'yorlar.* Bular insonning ishlari va so'zlariga berilgan hukmlar bo'lib, boshqacha aytganda, Qur'on fiqhdir. Bu uchinchi qism hukmlar usul ilmi yordami ila, erishish ko'zlangan qism xisoblanadi.

Qur'ondagi amaliy hukmlar 2 xil:

a) ibodatga taalluqli hukmlar: namoz, ro'za, zakot, haj, qalam, kabilar haqidaki, ular insonning o'z parvardigori bilan bo'ladigan aloqalarni tartibga keltirishga aloqadordir.

b) muomalaga taalluqli hukmlar: insonning boshqa insonlar ila bo'ladigan muomalasi, oldi-sotdi, jinoyat, jazo, ijara, garov kabilar.

Shariat istilohida ibodatdan boshqa hamma hukmlarga "Akkomul muomalat" (muomalaga oid hukmlar) deb yuritiladi.

Sunnat islom huquqining manbai sifatida

Islom shariatining ikkinchi asosiy manbasi - ***sunnatdir***.

Sunnat soʻzi arabiy kalima boʻlib, "yoʻl" degan maʼnoni bildiradi. Ammo hadis ilmining olimlari, yaʼni muhaddislar sunnat deb paygʻambarimiz Muhammad alayhissalomning aytgan soʻzlari, qilgan ishlari va boshqalar qilgan ishga sukut saqlab turishlari, yaʼni taqrirlariga aytadilar.

Islom shariatida Rasululloh alayhissalomning sunnatlari Qur'oni Karimdan keyingi ikkinchi manba boʻlib hisoblanadi. Shunga binoan ijtimoiy hayotda, islomda huquqiy va diniy masalalarni hal qilishda va islom qonunshunosligi qoidalarini aniqlashda mujtahidlar asosan sunnatga murojaat qiladilar. Zero sunnati nabaviya Qur'oni Karimni ishonchli tarzda tafsil va sharh kilib beradigan manbadir. Shunday qilib paygʻambarimiz alayhissalomning sunnatlari islom shariatining shak-shubhasiz asosidir. Har bir sahih hadis bu musulmon kishining huquq va vazifalarini belgilashda qatʼiy hujjatdur.

Sunnatning shaʼriy istilohiy maʼnosi — janobi Rasulullohning aytgan soʻzlari, qilgan ishlari hamda taqrirlaridir. U zotning huzurlarida birov biror soʻz aytsa, yo biror ish qilsa, u soʻz yo ishga Paygʻambar eʼtiroz bildirmagan boʻlsalar, buni taqirir deyiladi va u ham sunnat hisoblanadilar.

Demak, yuqoridagi taʼrifdan maʼlum boʻladiki, sunnat 3 xildir:

1 .Sunnati kavliy (aytilgan soʻz)

2.Sunnati feʼliy (qilingan ish)

3.Sunnati taqririy (janobning eʼtiroziga uchramagan soʻz, ish)

*Sunnati qavliyg*a misol: "Musulmon kishi oʻziga ham birovga ham zarar keltirmaydi".

Sunnati feʼliyga misol: "janobi Rasululloh alayhissalom besh vaqt namozni, hajni hamma arkonlari ila ado etganlari."

Sunnati taqririyga misol:

Janobi Rasululloh huzurlarida sahobalardan baʼzilar biror ish qilsalar, yo biror soʻz aytsalar, unga janob eʼtiroz bildirmagan boʻlsalar yoki unga muvofiq ekanliklarini bildirgan boʻlsalar, bu ham sunnatdur. Chunki aytilgan soʻz yo qilingan ish notoʻgʻri boʻlsa, janob uni darhol tuzatgan boʻlur edilar. Paygʻambarning notoʻgʻri ishga sukut saqlab turishlari mumkin emas.

Rasululloh s.a.v dan sodir bulgan har bir soʻz yo qilingan ish yo taqrirlar, agar ulardan kishilar ergashsinlar degan maqsadda sha'riy qonun chiqarilib, bizga sahih rivoyatlar ila etib kelgan bo'lsa, hujjat hisoblanishiga musulmonlar ittifoq qilganlar.

Ayni chogʻda, unday sunnat sha'riy hukmlar olinadigan manbadir. Muftahidlar unday manbadan mukallaflardan sodir boʻlgan ishlarga sha'riy hukmlarni chiqarib oladilar. Boshqacha qilib aytganda, oʻsha sunnatlarda kelgan hukmlar Qur'onda kelgan hukmlar ila barobar huquqqa ega boʻlgan boʻlib, unga tobe' boʻlish, itoat qilish barcha musulmonlar uchun vojibdir.

Alloh taolo Qur'on oyatlarining bir qanchasida paygʻambarga itoat etishga buyuradi. Paygʻambarga itoat Allohga itoatdir, deydi. Biror ishning hukmi Qur'onda yo sunnatda boʻlmasa va shu borada hukm chiqarishda musulmonlar oʻzaro kelisha olmasalar, Alloh va uning rasulining boshqa shunga oʻxshash hukmiga solishtirib hukm chiqarishga buyuradi. Agar Alloh yo Paygʻambar biror moʻminga ishi yuzasidan hukm qilgan boʻlsa, uni qabul qilmaslikka moʻminning haqqi yoʻq.

Paygʻambarning hukmiga qalbi taskin topmay, unga taslim boʻlmagan kishi qalbida iymon yoʻq demakdir. Bularning hammasi Paygʻambarning hukmi Allohning hukmi ekanligiga, unga musulmonlar tobe' boʻlishlari shartligiga Alloh tomonidan kelgan dalillardir.

Masalan: «Allohga va uning rasuliga itoat qilinglar deb ayting» (Imron surasi 32-oyat)

«Sizlarga nima narsaniki paygʻambar keltirsa, uni qabul qilinglar, sizlarni nima narsadan qaytarsa, undan qaytinglar» (Hajr surasi, 7-oyat).

Mazkur oyatlar bir-birlarini quvvatlab, Paygʻambar mashru' qilgan qonunlarga itoat qilishlikning vojibligi Alloh tomonidan boʻlgan qat'iy hukm ekanligiga dalildir.

Sahobai Kiram roziyallohu anhu janobi Rasulullohning hayotlik davrlarida va vafot etganlaridan soʻng ham, u zotning sunnatlariga itoat etmoq vojibdir, deb ittifoq qilganlar. Ularning oʻzlari Paygʻambar hayotlik vaqtlarida u zotning hukmlarini ijro etar, buyruqlariga boʻysunar, qaytarganlaridan qaytar, imonni halol desalar, halol deb va nimani harom desalar, harom deb qabul qilar edilar.

Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhu biror voqea hukmida Paygʻambar sunnatidan topa olmasalar, masjidga chiqib musulmonlardan falon masalaning hukmida paygʻambarimiz sunnatlaridan biror narsa eslaysizlarmi? deb soʻrardilar.

Qur'oni Karimda Alloh taolo insonlarga bir qancha farzlarni ijmoiy ravishda farz qilgan. Ularni qaysi kayfiyatda, qanday bajarish haqida mufassal bayon qilmagan.

Sunnatlarga itoat etmoq musulmonlarga vojibdir, agar vojib bo'lmaganida Qur'oni Karimdagi farzlarni ado etish, uning hukmlariga bo'ysunish mumkin bo'lmagan bo'lur edi.

Rasulululloh alayhissalomdan sodir bo'lganligi sahih bo'lgan har bir sunnat hujjatdir, unga bo'ysunish vojibdir. U sunnat Qur'ondagi hukmni bayon qilib kelganmi yoyinki Qur'onda zikr etilmagan hukmni farqi yo'q. Chunki ular hammasi gunohdan saqlangan, Alloh bayon qilib berish huquqini bergan zotdan sodir bo'lgandir.

Dalil keltirishda shar'iy hukmlarni chiqarishda sunnat Qur'ondan keyingi o'rinda turadi. Ya'ni mujtakid bir voqea hukmni izlashda birinchi bo'lib, sunnatga murojaat qilmaydi, balki u hukmni Qur'oni Karimdan topa olmasagina, sunnatdan axtaradi. Chunki, Qur'on shar'iy hukmlar chiqarishda asosiy va birinchi manbadir. Sunnatda kelgan hukmlarning Qur'onga nisbatan tutgan o'rni quyidagicha 3 xil bo'ladi:

1. Qur'oni Karimda kelgan hukmni tasdiqlovchi, ta'kidlovchi sunnat. Bunga "sunnati mukarrira" deyiladi. Bu holda hukmning ikki mae dari va ikki dalili bo'lib, Qur'on oyatlari isbot qiluvchi dalil, Rasululloh alayhissalom sunnatlari esa, uni quvvatlovchi dalil hisoblanadi.

2. Sunnat Qur'oni Karimda ijmodan bayon qilinmagan hukmlarni tafsir qiluvchi, mutloq kelganlarining aniq bir ko'rinishini aytuvchi, umumiy hukmlarni ma'lum suratga xoslovchi bo'lib keladi. Bunga sunnati mufassira deyiladi. Chunki Alloh taolo o'z Payg'ambariga Qur'on oyatlarini bayon qilib berish huquqini bergan.

Masalan: Alloh o'zi o'lgan hayvonlarning go'shtini harom degan bo'lsa, sunnat esa, bunga suv hayvonlari kirmasligini aytgan.

3. Sunnat Qur'oni Karim aytmagan yangi hukmni keltiradi. Bunga sunnati munshia (ya'ni, yangi hukmni insho qilish) deyiladi. Bunday hukm sunnat ila sobit bo'lib, unga Qur'on oyati dalolat etmaydi.

Masalan: *Er kishilarga tabiiy ipakdan to'qilgan matoni kiyish va tillo uzuk taqish haromligini sunnat aytgan.*

Sunnat orqali kelgan hukmlar yo Qur'on hukmlarini tasdiqlovchi, yo uning hukmlarini tafsir qilib beruvchi, yo Qur'onda yo'q hukmlarni yangidan insho qiluvchidir. Bunda Payg'ambar alayhissalom Qur'oni Karimda kelgan hukmlarga solishtirib yo Islomning umumiy ta'limotlari va asoslarini hayotga tadbiq qilib aytgan bo'lishlari kerak. Bundan esa,

Qur'on hukmlari ila sunnat hukmlari o'rtasida hech qanday ixtilof va karama-karshilik bo'lishi mumkin emasligi kelib chiqadi.

Sunnat Rasululloh s.a.v dan rivoyat qilgan roviylarga qarab uch qismga bo'linadi:

1. *Sunnati mutavotira* 2. *Sunnati mashhura* 3. *Sunnati ohod*.

1. *Sunnati mutavotira* deb Rasululloh s.a.v. dan ko'pchilik kishilar rivoyat qilgan hadisga aytiladi. Rasulullohdan to bizgacha rivoyat qilgan roviylar silsilasi va roviylarining adadlari (sonlari) ko'p bo'lganligidan, ularning yolg'onga kelishlari mumkin emas. Chunki hadisni ko'pchilik roviydan yana ko'pchilik roviylar rivoyat qilgan.

Mutavotir sunnatlarga ko'proq amaliy sunnatlar, namoz, ro'za, haj, azon va bundan boshqa shior Islom bo'lgan, Rasulullohdan ko'pchilik musulmonlar ko'rib, eshitib rivoyat qilgan hadislar kiradi.

2. *Sunnati mashhura* deb Rasululloh s.a.v. dan rivoyat qilgan birinchi tabaqa, ya'ni sahobalar tabaqasi bitta, ikkita yoki undan ko'p, lekin mutavotir adadiga etmagan, ammo keyingi tabaqalardagi roviylar adadi to oxirigacha mutavotil adadiga barobar bo'lgan roviylar rivoyat qilgan hadisga aytiladi.

Mutavotir ila mashhur hadisning farqi mutavotirda hamma tabaqa roviylarining adadi ko'p bo'lishi lozim, mashhurda esa, faqat sahobalar tabaqasi roviylarning adadi mutavotirga etmaydi, lekin boshqa hamma tabaqalar roviylarning adadlari mutavotil adadini tashkil qiladi.

3. *Sunnati ohod*.

Sunnati ohod deb Rasululloh s.a.v dan rivoyat qilgan roviylar adadi hamma tabaqalarda mutavotil adadiga etmagan holda rivoyat qilingan hadisga aytiladi.

Hadis kitoblarida to'plangan hadislarning deyarli ko'pchiligi shunday hadislardandir. Sunnatning payg'ambar alayhissalomdan bizgacha etib kelishi shaklidan faqat mutavotir hadisgina qat'iyydir. Chunki mutavotir darajada qilingan rivoyat qat'iylilikni ifoda etadi. Sunnati mashhuraning sahobiydan rivoyat qilishi qat'iy bo'lib, Rasululloh s.a.v. dan qilingan rivoyat qat'iylilikni ifodalamaydi, chunki bu tabaqadagi roviylar adadi mutavotir adadiga etmaydi.

Sunnati ohod esa, Payg'ambar alayhissalomdan etib kelishi jihatidan hammasi zonniydir.

Bu uch qism hadislarning ma'noga dalolati yo qat'iy, yoki zonniy bo'ladi. Agar sunnatda kelgan lafzlarning ma'nosi bir ma'nodan boshqa ma'noga ehtimoli bo'lmasa, qat'iy ehtimoli bo'lsa, zonniydir.

Qur'oni Karim oyatlari ila Payg'ambar alayhissalom hadislarini qat'iy va zonniylikda solishtirsak , Qur'oni Karim oyatlari bizgacha etib kelishi jihatidan hammasi - qat'iyydir.

Payg'ambar alayhissalom hadislari esa, bizgacha etib kelishi jihatidan, ba'zilar qat'iy va ba'zilar zonniydir.

Masalan: Sunnatning yuqorida zikr qilingan har uchala qismi musulmonlar uchun hujjat, ularga itoat etib amal qilmoklik vojibdir. Chunki mutavotir hadislar bizgacha etib kelishi va ma'noga dalolati jihatidan qat'iyydir.

Mashhur va ohad hadislar bizgacha etib kelishi va dalolati jihatidan zonniy bo'lsa ham, roviylarning ishonchliligi, hadislarini yozishdagi ehtiyotlik, ularning zonniyligini qat'iylikka yaqinlashtiradi.

Masalan: namozda qiblani bilmagan kishi gumoni g'olib ila bir tarafni qibla deb o'qisa, namozi durust hisoblanishi ko'pchilikka ma'lum. Agar faqat qat'iy dalillarning o'zigagina suyanish lozim deyilsa, u holda kishilar shariat buyurgan amaliy buyruqlarni bajarishda qiyin ahvolga tushib qolgan bo'lur edilar.

Ijmo' islom huquqining manbai sifatida

Ijmo' arabcha so'z bo'lib, ittifoq yakdillik, hamfikrlik degan ma'nolarni bildiradi. Fuqarolarning istilohida diniy ilmlarni mukammal egallagan olimlarning diniy, huquqiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha barcha dindorlar fikrini e'tiborga olgan holda qabul qilgan bir qaroridir. Ammo usuli fiqh olimlar istilohida Rasuli akram sallolohu alayhi vasallamning vafotlaridan so'ng bir zamonda yashagan hamma mushtakidlarning na Qur'oni Karimda va na hadisi sharifda aniq javobi topilmagan islom dinidagi masalalar yoki jamiyat hayotidagi biror voqealarning joriy hukmi haqida ittifoq bo'lishlariga "ijmo'" deyiladi. Usul ulamolari istilohida, ijmo'ning ta'rifi quyidagicha: Musulmonlardan bo'lgan mushtahidlarning Rasululloh salolohu alayhi vasallam vafotlaridan so'ng biror davrda sha'riy hukmga qilgan ittifoqiga "ijmo'" deyiladi.

Ijmo' bo'lishi uchun 4 ta rukn lozim:

1. *Mujtohidlardan bo'lishi kerak. Mujtohid bo'lmagan olimlarning ittifoqi ijmo' emas.*
2. *Ular musulmonlardan bo'lishi shart.*

3. *Janobi payg'ambar alayhissalom vafotlaridan so'ng bo'lishi kerak. Chunki hayotlik vaqtlarida barcha shar'iy masalalarda janobning o'zlariga murojaat qilingan. Bundan tashqari, ijmo' ittifoq ko'pchilik tomonidan bo'ladi, yakka kishidan ijmo' sodir bo'lmaydi.*

4. *Ijmo' qilinadigan masala shar'iy masala bo'lishi kerak dunyoviy masalalarda bunday ijmo' qilinmaydi.*

Demak, Payg'ambar alayhissalomdan so'ng biror voqeaning hukmi Qur'ondan ham sunnatdan ham topilmasa, o'sha davrning mujtohidlardan masalalarning shar'iy hukmi so'raladi. Ijmo' bilan sobit bo'lgan hukm qat'iy bo'lib, unga qarshi chiqish hamda uning hukmini bekor qilish mumkin emas. Alloh taolo Qur'oni Karimda mo'minlarni Allohga, uning payg'ambariga hamda o'zlaridan chiqqan ish boshqaruvchilariga itoat qilishga buyuradi.

"Ey iymon keltirgan insonlar Allohga itoat qilinglar va payg'ambarga itoat qilinglar hamda o'zlaringdan chiqqan ish boshqaruvchilarga ham itoat qilinglar (Niso surasi 59 oyat). Dunyoviy ishlar boshligi, podshohlar, amirlar, hokimlardir, diniy ishlar boshlig'i mujtohidlar va aqli fatvolar, fatvo berishga iqtidorli ulamolardir.

Musulmon ummatlaridan bo'lgan mujtohidlarning bir sha'riy hukm to'g'risida bir fikrga ittifoq qilishlari haqiqatdan hamma musulmonlar nomidan vakil qilingan mujtahidlar hukmidir.

Binobarin, Payg'ambar alayhissalomdan rivoyat qilingan bir qancha hadisi shariflar, sahobai kirom roziyallohu anhudan qolgan asarlar Islom ummatining barchasi jam holda xatoga yo'l qo'yishlari mumkin emasligiga dalolat qiladi: Masalan, janobi Payg'ambar s.a.v aytganlarki "Mening ummatim xatoning ustida jam' bo'lmaydi" yoki "Nimaniki musulmonlar yaxshi deb bilsalar, Allohning nazdida ham yaxshidir". Shar'iy hukmga qilingan ijmo' shar'iy dalilga suyanan bo'lmog'i lozim. Chunki har bir mushtahidning ijtihodiga ham chegara qo'yilgan. Mushtahid o'z ijtihodida birorta shar'iy dalilga e'tiqod qilmog'i, suyanmogi lozim. Demak, mushtaxidlarning barchalari ittifoq qilgan hukmlardan bir shar'iy dalilga suyananlar.

Ijmo' qanday hosil bo'lishiga qarab ikki xil bo'ladi:

Ochiq, ravshan ijmo'

Sukutiy ijmo'

1. "Ravshan ijmo'" deb, mushtahidlarning har qaysilari alohida bir sha'riy hukmni yoqlaganliklari haqida o'z fikrlarini ochiq izhor etib ittifoq qilingan ijmo'ga aytiladi.

Mushtahidlarning ba'zilar bir sha'riy hukmni yoqlaganliklarini ochiq izhor qilsalar ham, ba'zilar o'z fikrlarini ochiq aytmaydilar, sukut saqlab turadilar. Ularning mazkur hukmga muvofiq ekanliklarini ham, muholif ekanliklarini ham bilib bo'lmaydi.

Ravshan ijmo' haqiqiy ijmo' bo'lib, ulamolar orasida hujjat deb qabul qilingan.

2. Sukutiy ijmo'ning shar'iy hujjat ekanligiga ulamolar ihtilof qilganlar.

Ammo xanafiy mazhabdagi ulamolar sukutiy ijmo'ga ham shar'iy hujjat deb qaraganlar. Biroq xanafiy mazhab ulamolari ikkala ijmo'ni birbiridan farq qilib, aytadilarki, ravshan ijmo'ni inkor qilgan kishilar dindan chiqib ketadi, kofir bo'ladi, ammo sukutiy ijmo'ni inkor qilsa, dindan chiqmaydi, deganlar.

Har ikkala ijmo' lafzining ma'noga dalolati ham ikki xil qat'iy va zanniy bo'ladi.

Ravshan ijmo' qat'iy dalolatli bo'lib, uning hukmi qat'iyydir. Ammo sukutiy ijmo' zanniy dalolatli bo'ladi. Biroq zanniyliqi qat'iy tomonga yaqinroqdir. Bunda hukmga bois bo'lgan voqea-masalani ijtihad qilish ularni qaytadan o'rta tashlash mumkin, degan ulamolar ham bor.

Qiyos islom huquqining manbai sifatida

Islom qonunchiligining to'rtinchi manbai **qiyos** – tenglashtirish, solishtirish demakdir. Qiyos masalasiga islom ta'limotlarining uch asosiy manbalarida aniq javob topilmaganda murojaat qilinadi. Qiyos va yangi paydo bo'lgan masalaning sababini Qur'oni Karimda yoki sunnatda yoki ijmo'da o'z javobini topgan masalalarning sabablariga solishtirish yo'li bilan unga hukm chiqarishga imkon beradi.

Qiyos lug'atda ikki xil ma'noda ishlatiladi. Birinchisi - bir narsani o'ziga o'xshash ikkinchi narsa bilan solishtirish. Ikkinchisi — bir narsani o'ziga o'xshash ikkinchi narsaga tenglashtirish.

Qiyosning usul ulamolari istilohidangi ta'rifi shunday: hukmiga dalil kelmagan voqeani hukmiga dalil qilgan voqeaga, har ikkala voqea hukm illatida bir xil bo'lganligi sababli tobe' qildirishdir.

Qiyos to'g'risida yana ham yorqinroq tasavvurga ega bo'lish uchun bir qancha sha'riy qiyoslardan misol keltiramiz:

A) *hamr (mast kiluvchi) ichish hukmiga dalil kelgan voqea hukmi harom, dalili Moida surasi, 90-oyatidagi ushbu so'zida:*

"Albatta, hamr qimor, but, shayton ishidan bo'lgan iflos narsadir: sizlar unday narsalardan uzoq bo'linglar". Shunga binoan mast qilish xususiyati bo'lgan har bir narsa, u qanday bo'lmasin, uning hukmi ham harom bo'ladi.

B) *Jumaga azon aytilayotgan vaqtda savdo ila shug'ullanish makruh. Dalili, juma' surasi, 9 oyatidagi so'zlar: "Ey mo'minlar, agar juma kunida juma namoziga azon aytilsa, savdoni tashlab, Allohning zikriga shoshilinglar". Illati — savdoga ovora bo'lib, namozdan qolish xavfi. Ko'pchilik musulmon ulamolari, qiyos hukmlarda (qismi man' etilgan yoki qilinishi lozim bo'lgan ishlarda shar'iy hujjat va u sha'riy hujjatlarning to'rtinchisi, deb kelishganlar.*

Agar bir voqeaning hukmiga qur'ondan ham, sunnatdan ham va ijmo'dan ham dalil bo'lmasa, lekin shu voqea illatiga teng bo'lgan voqeaning hukmiga dalil kelgan bo'lsa, hukmi yo'q voqeani buning hukmiga solishtirib, bu hukmni hukmi yo'q voqeaga tobe' qilamiz. Qiyosni e'tirof etuvchilar aytgan dalillari:

1) *Qur'oni Karimdan: Alloh taolo Niso surasining 59-oyatida aytadiki: "Ey mo'minlar, Allohga itoat qilinglar, Rasul alayhissalomga itoat qilinglar hamda o'zlaringdan chiqqan ish boshilarga itoat qilinglar. Agar biror masalada oyatida, sunnatda, ijmo'da javob bo'lmaganligidan bir fikrga kelisha olmay munozara qilib qolsalaring, uni Alloxga va Rasulga qaytaringlar.*

2) *Alloh taolo Yosin surasining 72-oyatida aytadiki: "Bu chirigan suyakni kim tiriltira oladi? " degan kishiga javoban Yosin surasining 79-oyatida Allox aytadiki: "Bu chirib ketgan suyakni birinchi bor inson kilib yaratgan zot tiriltiradi, deng".*

Sunnati nabaviyadan:

Janobi Rasululloh s.a.v. Muoz ibni Jabal roziyallohu anhuri Yamanga dinda ta'lim berishga yuborayotganlarida: "Sendan biror masalani so'ralsa, nima bilan hukm qilasan?" deb so'radilar.

- Allohning kitobi bilan. Agar undan topmasam, Alloh rasulining sunnati bilan. Agar undan ham topmasam, ijtiqod qilaman va ijtiqodda nuqsonga yo'l qo'ymaslikka harakat qilaman", dedilar. Shunda Rasululloh s.a.v. Muozning ko'kraklariga tashakkurona urib: "Allohning payg'ambarining elchisini Allohning payg'ambari rozi bo'ladigan ishga muvaffaq qilgan. Allohga hamdlar bo'lsin" dedilar. Masalan:

1. *Otaning yoshlari ulug', quvvatdan ketgan vaqtlarida hajning farz bo'lishi:*

2. Hazrati Umar roziyallohu anhu Janobi Payg‘ambardan: "Ro‘za tutgan kishi, ro‘za xotinini o‘psa ro‘zaning ochilishi haqida".

3. Fazozah qabilasidan bo‘lgan bir kishining xotini qora tanli farzand ko‘rishi haqida.

Yuqoridagi uchta hadisdan Janobi payg‘ambar alayhissalom qiyos qilganliklari yaqqol ko‘rinib turibdi.

Har bir qiyos to‘rt rukndan (asosdan) tashkil topadi:

1. Al-aso. U hukmiga nass kelgan voqeadir.

2. Al-fal' - hukmiga nass vorid bo‘lmagan voqea. Uni ayolning hukmiga tenglashtirish nazarda tutiladi.

3. Hukmul-aso, ayolning nass orqali vorid bo‘lgan shar'iy hukmi.

4. Al-illatu-aslning hukmiga asos bo‘lgan sifat.

5. Aynan shu sifat far'da ham mavjudligi sababli, far'ga ayolning hukmi beriladi. Masalan: hamr - asl, uning hukmiga nass kelgan. (Moida surasi, 90-oyat). Shampanskoe - far', chunki hukmiga nass kelmagan. Lekin bunda ham mast qilishlik sifati bor.

Buning sifati namrining sifati bilan teng bo‘lganligi uchun, hukmda ham tenglashtiriladi. Demak, asl-hukmiga nass kelgan voqea, far'-hukmiga nass va ijmo‘ kelmagan voqea.

Bir kishini ikkinchi bir kishi qasddan, dushmanlik qilib o‘ldirib qo‘ysa, o‘ldirganni qasos tariqasida o‘ldirishdan ko‘zlagan hikmat - kishilarning hayotini muhofaza qilish.

O‘g‘rining qo‘lini kesishdan ko‘zlagan hikmat kishilarning mol-mulkini muhofaza qilish. Demak, har bir shar'iy hukmining hikmati biror foyda keltirish yoki biror zararni daf' qilishdir.

Goho, hikmat o‘zgaruvchan mukallafning ahvoli, sharoitiga qarab turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan: Ramazonda bemor kishiga og‘iz ochishga ruxsat bor. Hikmati - bemordan mashaqqatni daf' qilish.

Aslida illat bo‘lgan sifatida bir qancha shartlar to‘plangan bo‘lishi lozim. Bu shartlarni, nass ila sobit bo‘lgan illatlarni usul ulamolari chuqur tahqiq qilish holda illatning ta'rifiga rioya etish yo‘li ila chiqarib olganlar. Hukm illatini o‘rganishdan ko‘zlagan maqsad o‘sha hukmni far'ga o‘tkazishdir.

Olimlar illat shartlarining ba'zilariga ittifoq va ba'zilarga ihtilof qilganlar.

Illatning ittifoq qilingan shartlari:

1. Illat deb bilishga yaroqli sifat zohir bo‘lmog‘i lozim. Zohir deganlar - kishining sezish a'zolaridan birontasi ila sezilishi kerak. Masalan: hamrdagi mast qilishlik sifatining borligini, sezish a'zolari

yordamida seziladi. Keyin shu sifat hamrdan boshqa ichimliklarda ham borligiga ishonch hosil qilinadi.

2. Illat bo'ladigan sifat o'zgarmaydigan bo'lishi lozim. "O'zgarmaydigan" degani ma'lum, muayyan ko'rinishda bo'lib, aynan shu ko'rinishda far'da mavjud bo'lmog'i lozim. Masalan: o'ziga meros qoldiruvchini qasddan dushmanlik ila o'ldirgan voris (meros oluvchi) o'zgaras bor haqiqatdir.

3. Illat bo'ladigan sifat munosib bo'lishi lozim. Munosib degani hukmning hikmatiga manba' bo'la oladigan sifat bo'lishi kerak.

Masalan: mast qilishlik hamrning harom qilinishiga munosib sifat. Chunki harom qilinishda aqlning muhofazasi ko'rinib turibdi. Illatni qismlarga bo'lish deganda, uni jori' illat deb hisoblanganligi yoki hisoblanmaganligi nazarda tutiladi.

Illatni bilishga olib boradigan yo'llar uchta:

1.Nass; 2.Ijmo'; Z.As-sabru vattaksimu.

Agar Qur'oni Karimda yoki Payg'ambar sunnatida mana bu hukmning illati ushbu sifatdir, deyilsa, mazkur sifatning illatligi nass orqali sobit bo'lgan deyiladi. U illatga binoan qiyos qilinsa, haqiqatdan u nassning tatbiqi bo'ladi.

Agar mujtohidlar biror davrda bir sifatning bir shar'iy hukmga illatligiga ittifoq qilingan bo'lsalar, mazkur sifatning illatligi ijmo' orqali sobit bo'lgan hisoblanadi.

Masalan: etimning mol-mulkiga vasiylik qilishga, uning yoshligi illat deb ijmo' qilingan.

As-sabrning lug'aviy ma'nosi-tekshirmoqdir, At taqsim esa, asldagi illatga munosib sifatlarni to'plab, ularni bir-bir ko'rikdan o'tkazib, illat qaysi biri ekan, deb tekshirishdir.

ISLOM HUQUQINING QO'SHIMCHA MANBALARI

"Istihson lug'atda "bir narsani yaxshi deb hisoblash" ma'nosida ishlatiladi. Usul istilohida esa, "mujtohidning ochiq-ravshan qiyosdan maxfiy qiyosga, kulliy hukmdan juz'iy hukmga o'tish" tushuniladi.

Mujtohiddan bir masala so'ralsa, uning hukmiga nass kelmagan bo'lsa, mazkur masalaga ikki xil yondoshish mumkin. Biri ochiq-ravshan bir hukmni taqozo qilsa, ikkinchisi maxfiy boshqa hukmni taqozo qiladi. Mujtohid o'z ishtihodi ila ravshan hukmni qoldirib, maxfiy hukmga o'tishni ma'qul ko'radi. Bunday o'tishni shariatda "Istihson" deyiladi.

Istihsoning istilohiy ta'rifidan ko'rinib turibdiki, u 2 xildir.

Maxfiy qiyosni ochiq qiyosdan ustun qo'yish.

Dalilga asoslanib kulliy hukmdan juz'iy hukmga o'tishdan iboratdir.

Masalan:

1-misol, Agar sotuvchi bilan oluvchi sotilgan narsani ham oluvchi qo'liga olmasdan avval uning puli to'g'risida ixtilof qilsalar, ya'ni sotuvchi: "Yuz so'mga sotdim", deb da'vo qilsa, oluvchi "Yo'k to'qson so'mga sotgansan", deb da'vo qilsa, xanafiylar ulamolari istihson yo'lida, har ikkalasi ham qasam ichadi, deydilar.

Qiyos esa, sotuvchi qasam ichmasligini taqozo qiladi. Chunki, sotuvchi 10 so'm ortig'ini da'vo qilmoqda, oluvchi o'n so'mni inkor qilmoqda. Shariat qoidasiga binoan esa: "Da'vo qilgan kishi, da'vosiga hujjat keltirishi lozim, uni inkor qilgan kishi esa, qasam ichishi lozim".

2-misol, Burgut, lochin, karg'a, kalxat kabi vahshiy qushlarning og'zidan qolgani so'lak istihson tariqasida toza, qiyosda esa, najas-haromdir, deb aytganlar hanafiy ulamolari.

Qiyos yo'li: go'shti harom bo'lgan sher, bo'ri, tulki kabi hayvonlarning oldidan qolgani haromdir.

Istihson yo'li: vahshiy qushlarning go'shtlari harom bo'lsa ham, biroq ularning go'shtidan paydo bo'ladigan so'laklari oldidan qolganiga aralashmaydi. Chunki, qushlar suvni tumshuqlari ila ichadilar. Tumshuqlari esa, toza sulh. Ammo vahshiy hayvonlar suvni tillari ila ichadilar. Tillari so'lagi ila aralashgan bo'ladi. Shuning uchun ularning qoldiqlari haromdir. "Maslahatul-mursala" lug'atida, hech bir narsaga bog'lanmagan maslahat ma'nosida keladi. Usul ulamolari istilohida esa: u shunday bir maslahatki, shar'iy unga asosan hukm ham mashru' qilmagan, biror shar'iy dalil kelib, uni e'tiborga olganini ham, e'tiborga olishni bekor qilganini ham isbotlamagan.

Ba'zi musulmon ulamolari maslahatul mursalaga asosan hukm mashru' qilishi durust emas, chunki uning e'tiborga olinganiga ham, e'tiborga olishning bekor qilinganiga ham shar'iy dalil mavjud emasdir deganlar. Ular bu so'zlariga 2 ta dalil keltiradilar:

1. Shariat, kishilarning barcha maslahatlarini nasslar orqali, qiyos qilishga yo'l ko'rsatib e'tiborga olgan.

2. Maslahatga binoan shar'iy hukm chiqarishlik hokimlar, amirlar hamda fatvo berish huquqiga ega bo'lganlar uchun istaganlariga hukm chiqarishga keng yo'l ochgan bo'lur edi. "Urf" deb kishilar o'rganib, odatlanib qolganliklariga asosan qilib kelayotgan ishlariga, so'zlariga aytiladi. Urfni odat deb ham yuritiladi. Ishdagi Urfga misol: kishilar oldi-sotdi vaqtda, "Oldim", "sotdim" degan lafzni ishlatmay, pulni berib,

narsani olib ketaveradilar. Aslida, ikki tomonning rizoligini ifoda etuvchi "oldim-sotdim" lafzi ishlatilishi lozim.

Soʻzdagi urfga misol: odamlar "bola" deganda faqat oʻgʻil bolani tushunadi, vaholanki, "bola" lafzi oʻgʻil va qizga barobar dalolat qiladi.

Urf ikki xil - urfu sahih va urfi fosid boʻladi.

Urfi sahih kishilar odatlanib qolgan, sharʼiy dalilga muhalif boʻlmagan, haromni halol qilmaydigan, bajarish lozim boʻlgan ishni bajarishdan toʻxtatmaydigan narsaga aytiladi.

Masalan: hunarmand buyumlari.

Urfi fosid esa, odamlar odatlanib qolgan, biroq u shariatga xilof, haromni halol qiluvchi, lozim boʻlgan ishni qilishdan toʻxtatuvchi narsadir.

Masalan: farzand tugʻilgandan keyin, nosharʼiy ziyofatlar, tugʻilgan kunni nishonlash, kishi vafot qilgandan soʻng bajariladigan munkor ishlar.

Fosid urfga rioya qilmaslik vojibdir.

"Istishob" lugʻatda "birga boʻlmok" maʼnosidadir. Usul istilohida esa, bir narsaning biror dalil kelib oʻzgartirmasdan avvalgi holiga berilgan hukm istishob deyiladi.

Agar mushtahidlar biror ishning yo biror narsaning hukmi soʻralsa, mushtahid uning hukmiga sharʼiy hujjatdan ham javob topolmasa, uni asliga eʼtiboran muboh (yaʼni, joiz) yaʼni ruxsat deb hukm beradi.

Istishob mushtohid biror voqeaning hukmini bilishida murojaat qiladigan eng soʻnggi sharʼiy dalildir. Shuning uchun usul ulamolari: "Istishob fatvoning soʻnggi tayanchi - bir narsaning biror dalil kelib oʻzgartirmasdan oldingi holati berilgan hukmdir" deganlar. Istishob - har bir narsaning oʻz holida qolishining dalilidir.

Hanafiyy ulamolari, istishob har bir narsaning oʻz holida turishiga dalil boʻlib, shu holatga xilof holatni dafʼ qiladi, toinki xilof holatiga dalil boʻlmasa. Agar Qurʼoni Karim yoki sahih sunnat bizdan avvalgi ummatlarda Alloh taolo mashruʼ qilgan sharʼiy hukmlardan birortasini, paygʻambar tilidan, hukm ularga farz qilingandek, bizga ham farz qilingani aytilsa, uning biz uchun ham shariat ekanligiga, unga itoat etish vojibligiga ulamolar oʻrtalarida hech qanday ixtilof yoʻqdir.

Masalan: Bakara surasining 183-oyatida "Ey iymonli kishilar, sizlarga roʻza tutmoqlik farz qilindi, sizlardan avvalgi ummatlarga ham farz qilingandek", deydi.

Paygʻambarimiz s.a.v.: "Qurbonlik qilinglar, chunki u bobolaringiz Ibrohim alayhissalom sunnatlaridir", deyдилar.

Rasuli Akram s.a.v. vafotlaridan soʻng, u zot bilan birga boʻlgan, Qurʼon va uning hukmlarini yaxshi fahmlagan, kishilar oʻrtasida ilmi deb

tanilgan sahobalar musulmonlarga shar'iy fatvolar bera boshladilar. Ulardan turli munosabatlarga bog'liq bir qancha fatvolar sodir bo'ldi.

Aql va tafakkur ila bilib bo'lmaydigan masalalarda sahobalarning aytgan so'zlari musulmonlar uchun hujjat ekanligida ulamolar o'rtasida ixtilof yo'qdir. Chunki, sahoba aytgan so'zini albatta Payg'ambar alayhissalomdan eshitgan bo'lishi lozim.

Dalillar: 1. Alloh taolo Qur'oni Karimning Mavba surasi, 100 oyatida "Imonga avval kelgan muhojil va ansorlardan hamda ularga yaxshilik ila ergashganlardan Alloh rozidir, ular ham Allohdan rozidirlar" deyilgan. Bu oyatda Alloh ularga ergashganlarni maqtadi, bu esa sahobalarga ergashish lozimligini taqozo etadi.

Janobi Payg'ambar alayhissalom aytganlarki "Mening sahobalarim go'yo yo'lchi yulduzlardir, ularning qaysi birlariga ergashsalar, to'g'ri yo'l topgan bo'lasizlar.

Masalan: Hazrati Ali roziyallohu anhu, dir'lari (urushda kiyadigan maxsus kiyim) yo'qolganda, uni bir yahudiy kishida ko'rganlar. Bu dir' o'zlariniki ekanligini da'vo qilib, o'sha vaqtdagi qozi Shurayxga murojaat qiladilar. Qozi hazrati Alidan da'volarining isboti uchun hujjat talab qiladi. Hazrati Ali o'g'illari Xasanni guvoh qilib ko'rsatadilar. Lekin qozi bu guvohlikni rad qiladi. Hazrati Ali qoziga itoat etib, dir'ani olish fikridan kaytadilar.

Demak, qozining nazdida, o'g'ilning otaga guvohligi joiz emas. Hazrati Ali nazdlarida esa, joiz bo'lganligi sababli, o'z o'g'illarini guvoh deb ko'rsatgan edilar. Yahudiy esa, hazrati Alining qozi hukmiga so'zsiz itoat etganlarini ko'rib, musulmon bo'ldi.

4-Mavzu. Islom huquqida yo‘nalish va mazhablar

1. Islomda sunniylik va shialik oqimlarining kelib chiqishi.

2. Sunniylik oqimining vujudga kelishi va uning asosiy mazhablari.

3. Shialik oqimi va uning mazhablari.

Shariat doirasidagi huquq maktablari, ya'ni islom qonunlari sistemalari (aynan: «yo‘l» yoki «harakat tarzi», termin ma'nosida - «diniy-huhuiy ta'limot», «tarikat» yoki «maktab») mazhablar deb ataladi.

Mazhablar shariat qonunlarini ishlab chiqish jarayonida huquq maktablari yoki tariqatlar sifatida yuzaga kelgan, ularga mashhur huquqshunoslar, ularning shogirdlari va izdoshlari asos solganlar.

Shariat qonunlarini ishlab chiqish bilan shug‘ullangan barcha qonunshunoslar Qur'on ko'rsatmalariga va hadislarga asoslanib ish ko'rganlar, ammo printsiplarni va qonunlarni ta'riflashda harfxo'rlilik bilan ratsionalizm xususida, sabr-qanoat bilan mutassiblik xususida kelisha olmaganlar.

Turli maktablarning tarafdorlari o'rtasida to'qnashuvlar bo'lib turardi. Asta-sekin kichik maktablar ortib borardi. XV asrdan so'ng sunniylikda 4 ta mazhab qolib, ularning huquqlari teng.

Sunniylik islom dinidagi ikki asosiy yo‘nalishdan biri va eng keng tarqalgani sunniylar ummaviylar sulolasidan bo‘lgan xalifalarning oliy hokimiyatiga bo‘lgan huquqni tan olganlar.

Sunniylik VII asrning ikkinchi yarmida Arabistonda vujudga kelgan. VIII-XII aslarda arab halifaligidagi diniy siyosiy kurashlar jarayonida islomda eng yirik yo‘nalish sifatida shakllangan. Sunniylar Qur'on bilan birga Sunnaga ham e'tiqod qiladilar. Sunniylik islomdagi diniy yo‘nalish sifatida yagona markazga ega emas. VIII asr oxiri IX asr boshlarida sunniylik doirasida mistik oqim sufiylik vujudga kelgan.

Hanafiya (Imomi A'zam maktabi.) Bu maktabga Abu Hanifa an-Nu'mon (696-767) taxallusi Imomi A'zam asos solgan. U eng yirik huquqshunoslardan biri bo'lib, shariat huquqini tartibga solgan, qiyosni tatbiq etgan, istihson tartib usulini ishlab chiqqan, mahalliy huquq qoidalarini odatni shariat bilan kelishtirib qo'llanishni joriy etgan huquqshunoslikdan oqilona foydalanish unsurlarini kiritgan. Abu Hanifa fiqhning asoschisi, ilohiyot mutaxassisi bo'lgan. Hanafiya mazhabi sunniylik yo‘nalishiga mansub bo‘lgan musulmonlarning uchdan bir qismini o'z ichiga oladi.

Molikiya mazhabining asoschisi Malik ibn Onas Abu Abdulloh (721-795). Islom diniy huquq sistemasini ishlab chiqishda konservativ mavqeda turgan. Payg'ambarimiz Muhammad s.a.v. davridagi an'analarni yoqlab chiqqan, ya'ni "ashob al-hadis" (hadis tarafdorlari) oqimining namoyandasi bo'lgan. Bu mazhab tarafdorlari huquq masalalarida ratsionalistik metodga, Ya'ni Qur'on va hadislarni aqlga asoslangan holda talqin qilishga qarshi chiqqan. Dastlab Hijoz va Madinada, keyin boshqa mamlakatlarda tarqalgan. Hozirgi davrda Molikiya mazhabi Tunis, Jazoir, Marokash, Liviya va ayrim boshqa mamlakatlarda musulmonlar o'rtasida ta'sirga ega.

Shofiya mazhabining asoschisi Abu Abdulloh Muhammad ibn Idris ash-Shofi'iy (767-820). Makkada yashagan, hadislar va fiqhni o'rgangan, Yamanda qozilik lavozimini egallagan. Ali avlodlari bilan yaqinlashganligi uchun 803 yilda qamoqqa olingan. Avf etilganidan so'ng Misrga ketib, Malik ibn Onasning shogirdi sifatida faoliyat boshlagan, 810 yildan Bog'dodda o'z ta'limotini targ'ib qilgan.

Shofiy o'z asarlarida islom huquqini a'nanaviy normalar bilan bog'lashga intilgan. U fiqh asoslariga to'la ta'rif bergan, ijmo'dan foydalanishga alohida e'tibor qilgan. Shofiyning asosiy asarlari shogirdlari tomonidan "Kitob al-umm" to'plam shakliga keltirilgan. Hozirgi vaktida Misr, Indoneziya musulmonlari orasida, Sharqiy Afrika mamlakatlarining ba'zilarida, qisman Suriyada va janubiy arab sultonliklarida Shofiy mazhabi diniy-huquq sistemasiga amal qiluvchilar bor.

Xanbaliya-sunniylikdagi diniy-huquq mazhablardan biri. Uning asoschisi va imomi ibn Xanbal (780-855) mustahkam e'tiqodli sunniylik nuqtai nazaridan halifa Ma'mun davrida davlat dini bo'lishi mu'taziylikka qarshi kurashgani uchun bir necha bor qamalgan va jazolangan. Xanbaliya mazhabi tarafdorlari avvallari faqatgina Qur'on va Sunnagagina tayanib, shar'iy hukmlar chiqarsalar, keyinroq qiyos va ijmo'ning qo'llanishida ham ular tanho Muhammadning safdoshlari bo'lmish sahobalarning hamjihatligidan kelib chiqqan hukmlarnigina inobatga olar edilar. Ularning rasmiyatchiligi o'ta ketgan mutaassibliigi, jonli tarixiy haqiqatdan uzoq turgan qarashlari, ijtimoiy hayot va turmush tarzidagi har qanday yangiliklarga zid ekanligi sababli – mazhab XII- asrgacha keng tarqalmagan.

Undan keyingi asrlarda xanbaliya tarafdorlari yana kamayib ketgan. XVIII asrda paydo bo'lgan vahobiylar xanbaliya tarafdori bo'lib chiqqan. Vahobiylar Saudiya Arabistonda hokimiyatni qo'lga olgach, Xanbaliya

qonunlarini amalga kiritganlar. U erda xanbaliyaning ilk islomga xos qonunlari hozir ham amalda.

Mazkur mazhablar va ulardagi xuquqshunoslik o'rtasida, yuqorida qayd qilib o'tilganidek, sabr-toqat va mutaassiblik darajasi xususida bir oz tafovut mavjud bo'lib, ular islom diniy ta'limoti doirasidan tashqariga chiqmaydi, ya'ni bu mazhablarning hammasi ortodoksal hisoblanadi.

Shialik (arab.-guruh, tarafdorlar) –islomdagi asosiy yo'nalishlardan biri. O'zining tarqalishi va ijtimoiy-siyosiy mohiyati jihatidan sunniylikdan keyingi o'rinda turadi. Hozirda jahondagi musulmonlarning qariyb 10 foyizi Shialikka mansub hisoblanadi. Shialik VII- asr o'rtalarida xalifa Ali hokimiyati tarafdorlaridan iborat siyosiy guruh sifatida vujudga kelgan. VII- asr oxirlariga kelib Iroq va Eronda keng tarqalgan va islomdagi mustaqil diniy yo'nalishga aylangan.

Shialar tarafdorlari sunniylar kabi Qur'onni ilohiy deb e'tirof etadilar, lekin xalifalar davrida uning ayrim qismlari qoldirilgan deb hisoblaydilar. Shia ilohiyotchilari Kuro'ning mazmunini majoziy talqin qilish yo'li bilan o'z ta'limotlarini asoslaydilar. Sunnada esa ular faqat Ali va uning tarafdorlari nomi bilan bog'liq bo'lgan hadislarni tan olganlar va shunday hadislardan iborat mustaqil to'plamlar tuzganlar. Bu to'plamlar ahbor deb atalgan. Sunniylikda e'tirof etilgan diniy aqidalardan farq qilib, shialarda tavhid, adl, nubuvvat, imomat, qiyomatdan iborat 5 ta aqidaga e'tiqod qilinadi. Bulardan 4 aqida – tavhid (Ollohning yagonaligini e'tirof etish), adl (adolat, Ollohning odilligi, ya'ni taqdir aqidasi) nubuvvat (payg'ambarlik) qiyomat yoki ma'od (oxirat kunining kelishi va o'lganlarning tirilishi) asosan sunniylik ta'limoti bilan mos tushadi. 5-aqida imomat (imomlar hokimiyatini e'tirof etish) esa sunniylikka va sunniy halifalar hokimiyatiga zidligi bilan farq qiladi. Sh. Ali va uning avlodlaridan iborat o'n ikki imom hokimiyatini tan oladi.

Shu munosabat bilan barcha xalifalarni xususan dastlabki halifalardan Abu Bakr, Umar va Usmonni hokimiyatni zo'ravonlik bilan egallab olgan shaxslar sifatida qoralaydi. 874-878 yillar orasida 7-9 yoshida bedarak yo'qolgan (tarixiy nuqtai nazardan o'ldirilgan bo'lishi kerak) 12-imom Muhammad al-Mahdiyni ular «yashiringan» hisoblaydilar, zamona oxir bo'lganda uning qaytib kelishini va adolat o'rnatishini kutadilar (imomi Mahdiy, imomi oxir zamon).

Bu tasavvur ma'lum darajada sunniylikda ham tarqalgan. Ba'zi urf-odat va marosimlarda, shariat normalarida ham Sh. bilan sunniylik o'rtasida ma'lum tafovutlar bor. Shialar sunniylar kabi Makka va Madinani «muqaddas» hisoblash bilan birga, Karbalo, Najaf shaharlarida joylashgan

Sh. Imomlari qabrlarini ham ziyorat qiladilar. Sh. Shariatida ja'fariya mazhabi hukmron rol o'ynaydi. Ular imom Husaynga motam tutadilar, «shaxsey-vaxsey» deb nom olgan motam yurishlari o'tkazadilar va h.k. O'rta asrlarda Sh. ichida ham ixtiloflar yuz bergan, natijada ko'p sektalar vujudga kelgan. Bulardan zaydiylar, ismoiliylar, ibodiylar va b. Hozir ham mavjud. Sh. hozirgi vaqtda Eronda hukmron e'tiqod hisoblanadi. Iroq, Afg'oniston, Hindiston va Pokistonda shialar bor.

Zaydiylar – VIII asr o'rtalarida shialikda vujudga kelgan sekta tarafdorlari. Arab halifaligida sinfiy ziddiyatlar keskinlashib, feodal guruhlar o'rtasidagi kurash kuchaygan, ummaviylar hokimiyati inqirozga uchragan davrda vujudga kelgan. Shialarning 5-imomi Muxammad al-Bokirning sustligidan norozi bo'lgan shialar ichidan Zayd o'z tarafdorlarini to'plab, ummaviylar hokimiyatiga qarshi 739 yilda isyon ko'targan, 740 yili halifa Hishom (724-743) ko'shinlari bilan bo'lgan jangda halok bo'lgan. Uning tarafdorlari keyin ham oliy hokimiyatni Ali avlodiga berishni talab qilib, halifalar hokimiyatiga qarshi ko'p marta isyon ko'targanlar. Z. Zaydni so'nggi 5-imom hisoblab, undan keyingi shia imomlarini tan olmaydilar. Ular o'z aqidalari va marosimlari jihatidan shialar va sunniylar o'rtasida turib, har ikkala oqimga nisbatan murosasozlik yulini tutadilar. Zaydiylar yashiringan imom Mahdiyga ishonmasliklari, Alidan ilgarigi uch halifa (Abu Bakr, Umar, Usmon)ni la'natlamasliklari, taqiyya printsipini va mut'a (yoki siga) nikohini inkor etishlari bilan shialardan, avliyolar va mozorlarga sig'inishni hamda darvishlik va zohidlikni inkor etishlari bilan sunniylardan ajralib turadilar. O'z aqidalarida mu'taziliylardan iroda erkinligi va Qur'onni Olloh yaratganligi, xorijiyatlardan esa diniy e'tiqodni amaliy faoliyat bilan mustahkamlash printsiplarini qabul qilib olganlar. Hozir Zaydiylarning ko'p qismi Shimoliy Yamanda yashaydi va aholining yarmidan ko'pini tashkil qiladi. Zaydiylar Yaman Xalq Demokratik Respublikasida, Saudiya Arabistonida, Pokiston va boshqa davlatlarda ham bor.

Ismoiliylar-VIII asr o'rtalarida shialikda shakllanib, X-XI asrlarda Yaqin va O'rta Sharqda keng tarqalgan sekta tarafdorlari. Shialarning ba'zilari halifalik taxtini egallagan abbosiylar bilan ma'lum darajada kelishib ish tutdilar. Abbosiylarga qarshi kurashni davom ettirish tarafdori bo'lgan bir guruh shialar esa oltinchi imom Ja'far as-Sodiqning katta o'gli Ismoil (sekta uning nomi bilan atalgan) atrofiga jipslashdilar. Imom Ja'far ichkilik va maishatga berilgan Ismoilni vorislikdan mahrum etib, kichik o'g'li Muso al-Kozimni voris qilib tayinladi. Bundan norozi bo'lgan Ismoil tarafdorlari uning vafotidan keyin ug'li Muxammad ibn Ismoilni

imom deb tanidilar. Ularning ta'limoti avvalo ikkiga: zohiriy (tashqi) – ochiq va botiniy (ichki) – maxfiy ta'limotlarga bo'linadi. Zohiriy ta'limoti shialarning umumiy ta'limotidan kam farq qiladi, bu ta'limot sektaning maxfiy ta'limotidan bexabar bo'lgan oddiy Ismoililar ommasiga mo'ljallangan. Botiniy ta'limoticha, mutlaq xudo o'zidan quyi bo'lgan 7 ta pog'onani ajratadi (emanatsiya), ya'ni mutlaq xudo, olamiy aql, olamiy jon, birlamchi materiya, fazo, vaqt va kamolotga erishgan inson (ya'ni payg'ambar). Ismoililar ta'limoti bo'yicha, kamolotga erishgan inson (al-inson, al-komil) o'zida «olamiy aql»ni aks ettirgan notiq (gapiruvchi) bo'lib, xudo ta'limotini insonlarga etkazib beradi, uning yordamchisi somit (jim turuvchi) esa payg'ambar ta'limotidagi botiniy mazmunni tushuntirib beradi, deb hisoblanadi. O'rta asr mobaynida Ismoililar orasidan nizoriylar (hashshoshiylar), mustaliylar, druzlar, karmatlar ajralib chiqqan. Ismoililar ta'limoti, xususan, karmatlar ideologiyasi islom diniga nisbatan oppozitsion xarakterda bo'lgan. O'rta asr tafakkuriining yirik namoyandalari – Rudakiy, Ibn Sino, Ma'arriy va boshqalarga karmatlar ideologiyasi ta'sir ko'rsatgan. Mashhur shoir va mutaffakkir Nosir Xisrav esa Ismoililarning yirik namoyandalaridan biri bo'lgan.

Xorijiylar – Ali bilan Muoviyaga tarafdorlari o'rtasida halifalikda hokimiyat uchun kurash jarayonida tashkil topgan islomdagi dastlabki diniy-siyosiy guruh izdoshlari. Siffin yaqinidagi jangda (657-yilda) Ali hakamlar sudi o'tkazishga rozi bo'lgan. Alining yo'l boshchiligidan ixlosi qaytgan 12 ming jangchi undan yuz o'girib, Xarura degan qishloqqa ketib qolganlar (shuning uchun ham ularni dastlab xaruriylar deb ataganlar). Xorijiylar Alini 661 yilda o'ldirgunlariga qadar, unga qarshi qurolli kurash olib borganlar. Ular Muoviyaga ham qarshi xuddi shunday shafqatsiz kurash olib borganlar. Xorijiylar ta'limoti ijtimoiy-siyosiy nuqtai nazardan ham va islomning asosiy aqidalarini talqin qilishda ham yaxlit ta'limot bo'lmagan. Musulmon ilohiyotchilarining hisoblashicha, xorijiylarning 20 ga yaqin sektalari bor. Xorijiylar oliy hokimiyat masalasida halifa saylanib qo'yilishi kerak, degan ta'limotni ilgari surgan sunniylarga ham, imomatning ilohiy tabiatini tan olgan shialarga ham qarshi turganlar.

Din masalasida xorijiylar islomning «sofligi» tarafdori bo'lganlar va diniy kursatmalarga kat'iy rioya qilganlar.

Ibodiylar, abodiylar – xorijiylar ichidagi kichik sekta tarafdorlari. VII-asrning 2-yarmida yashagan Abdulloh ibn Ibod (Abod) asos solgan. Ibodiylar xorijiylar ichidagi fanatik kichik sektalar (mas., azrakiylar)ning barcha g'oyaviy dushmanlarini kofir hisoblab, o'ldirish printsipiga qarshi chiqqanlar. Ular o'z ko'zg'olonlari bilan abbosiylarning hokimiyatni

egallashlariga yordam berganlar. Hozir Shimoliy Afrikada, Ummon, Zanjibarda Ibodiylar jamoalari mavjud. Ular diniy e'tiqod va marosimlarga xos ayrim xususiyatlari bilan sunniylik, shialik va boshqa oqim, sektalardan farq qiladilar.

5-Mavzu. Islomda noan'anaviy oqimlar va diniy ekstremizm

- 1. Islomda paydo bo'lgan noan'anaviy oqimlar haqida umumiy ma'lumot.**
- 2. Vahobiylilik va uning mafkuraviy asoslari.**
- 3. Hizb-ut-tahrir ekstremistik partiyasining faoliyati.**
- 4. Akromiylar.**

O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonuni va Jinoyat kodeksida «ekstremizm», «separatizm», «fundamentalizm» kabi atamalar ko'p uchraydi.

«Ekstremizm» lotin tilidan olingan so'z bo'lib, «keskin fikr va choralarni yoqlash, keskin choralarga tarafdorlik» ma'nosini anglatadi. Olimlar «ekstremizm» iborasini siyosiy atama deb qaraydilar. Bu atamaning siyosat bilan bog'lik jihatlari shundaki, norasmiy ekstremistik tashkilotlar rahbarlari siyosiy masalalar yuzasidan «keskin, qat'iy choralar ko'rish yuli bilan», ya'ni kuch ishlatish, zo'rlik bilan davlatlardagi rasmiy hokmiyatni o'zgartirishni o'z odiga maqsad qilib qo'yganligi tergovda olingan turli manbalardan ma'lum. Diniy ekstremizm – bu keng ma'noni anglatadi. Ekstremistlar barcha dinlarda, masalan buddizm, xristianlik, islomdagi turli oqimlarda uchrab turadi. Ammo, hozirda islom dini niqobi ostidagi diniy-siyosiy norasmiy partiya, harakatlar a'zolari tomonidan O'zbekiston Respublikasida turli jinoyatlar sodir etilayotgan milliy xavfsizlikka tahdid solmokda.

«*Fundamentalizm*» - o'ta tor diniy oqim hisoblanadi. Fundamentalizm tarafdorlari turli dinlarda mavjud. Bu atama asrimizning boshida AKShda protestantizm tarafdorlari tomonidan ishlatilgan. Fundamentalistlar Bibliyani tanqidan rad etib, xristian dinni boshlang'ich asoslarini targ'ib qilish va aynan o'sha davrdagi diniy hayot qoidalarini joriy etishni ilgari surganlar.

Aniqrog'i, «Fundamentalizm» atamasi aslida xristian dini bilan bog'likdir. Uning birinchi bor rasmiy qo'llanishi 1908 yili AKShning Kaliforniya shtati protestantlari tomonidan ishlatilgan.

«*Separatizm*» ham lotin tilidan olingan bo'lib, ma'nosi «ajralib chiqishga, alohida bo'lishga intilish» demakdir. Bu ham hokimiyatni nokonstitutsiyaviy yullar bilan qo'lga kiritishga intiluvchi kuchlarning siyosatga aralashishlarini bildiradi.

Separatistik fikrdagi ekstrimistik diniy oqim tarafdorlari Rossiya davlatining Checheniston hududida ham mavjud.

Umuman olganda, fundamentalistik, ekstremistik va separatistik harakat «oʻrtamiyona» yoki «kuch ishlatish» ni targʻib qilishdan qatʻiy nazar, ularning maqsadi bitta: siyosiy hokimiyatni egallash va davlat tuzumi, barcha jamiyat hayotini shariat qonunlariga buysundirishdir.

Oʻtgan yillar davomida Oʻzbekiston Respublikasida 10 ortiq turli nomlar bilan atalgan diniy-siyosiy ekstremistik oqimlar va harakatlar noqonuniy ravishda faoliyat koʻrsatgani tergov idoralari tomonidan aniqlangan. Jumladan: hizb-at-tahrir, akromiylar, uzun soqol, vahobiylar, islom lashkarlari, tavba kabi norasmiy tashkilotlar mavjudligi qayd qilingan. Ularning baʼzi birlari toʻgʻrisida tergov idoralarida mavjud boʻlgan maʼlumotlarga suyanib toʻxtalmokchimiz.

«Akromiylar» elliginchi yillarda Fargʻona vodiysida vujudga kelgan boʻlib, uning nomi oʻhu oqim tashkilotchisi boʻlgan qandaydir «mullo Akrom» nomi bilan bogʻliq. Ularning gʻoyasi Ollohn tan olish, paygʻambarni, ota-onani, har qanday davlat boshqaruvini rad etib, faqat oqim sardoriga itoat qilish. Keyingi yillarda mazkur oqim qarashlarini Akrom Yuldoshev rivojlantirishga harakat qilgan va oʻzining «Iymonga yul» deb nomlangan fikr-mulohazalari aks etgan dasturini ishlab chiqqan. Unda asosiy maqsad islom davlatini barpo etishga qaratilgan.

Namanganlik Tohir Yoʻldoshev toʻqsoninchi yillarining boshida «Islom lashkarlari» deb nomlangan norasmiy diniy ekstremistik tashkilotga asos solgan. Bu tashkilot aʼzolari «vahobiylar»ning qarashlarini qoʻllab-quvvatlaganlar. Ular oʻta reaksion va terroristik xususiyatga ega boʻlgan ekstremistlar sanaladi. Ularning Oʻzbekiston davlati hududida sodir etgan qator oʻta ogʻir jinoyatlari fosh etilgan. Jinoiy uyushma aʼzolarining koʻpchiligi jazolangan, Oʻzbekiston hududidagi faoliyati tugatilgan. Ammo, tashkilot rahbarlari chet davlatlarga ketgan. «Islom lashkarlari» ham noqonuniy yoʻllar bilan hokimiyatni egallash, davlat va jamiyatni islomlashtirish kabi niyatlarini ilgari surganlar.

«Hizb-at-tahrir al-Islomiy» (Islom ozodlik partiyasi).

Oʻzbekiston Respublikasining tergov idoralari tomonidan jinoyatlari fosh etilgan, «Hizb-at-tahrir» norasmiy diniy-siyosiy partiya boʻlib, u 1952 yilda Quddus shahrida falastinlik yurist Taxiyyuddin Nabaxoniy (1909-1979) tomonidan, «Al-Ixvon al-muslimin» rahbarlaridan Sayd al-Qutb bilan gʻoyaviy kelishmovchilik natijasida, undan ajralib chiqib tashkil etilgan. Xorijdagi axborot markazlaridan birining taxminiy maʼlumotiga koʻra, bu tashkilot Buyuk Britaniya maxfiy xizmatining bevosita yordami asosida tashkil topgan va Amerika kommunistik partiyasi tomonidan qoʻllab-quvvatlangan.

Taxiyyuddin Nabaxoniylar musulmon davlatlaridagi mavjud tuzumni o'zgartirib, «halifalik» davlatini tashkil etish g'oyasini ilgari surgan. O'z qarashlarini «Islom nizomi», «Islomiy olamga qaynoq nidolar», «Hizb-at-tahrirning tushunchalari» va boshqa asarlarida bayon etgan. Partiya dasturiga binoan quyidagi tashkiliy tizim asosida faoliyat ko'rsatish joriy etilgan, ya'ni «mansab pillapoyalari» quyidagi tartibda taqsimlangan: «Halifalik davlati»dagi eng yuqori «lavozi» «Amir-Qiyodat», - boshqaruv degan ma'noni anglatadi. Alohida davlatning boshlig'i «Mu'tamad», viloyatlar miqyosida «Mas'ul», tuman bo'yicha – «Naqib» rahbarlik qiladi. Uning yordamchisi «Naqib yordamchisi» deyiladi. Partiya a'zolari va a'zolikka qabul qilinuvchilarga ta'lim beruvchini «Mushrif» deyiladi va nihoyat, ta'lim oluvchilarni «doris» deyiladi.

«Halqa» deb nomlangan har bir alohida guruhga 4-5 a'zo jalb etiladi. Guruhdagilar o'zaro bir-birini taxallusi yoki ismi orqali biladilar xolos. Ular bilan o'tkazilgan mashg'ulotlar o'ta maxfiylashtirilgan.

Bugungi kunda partiyaga Falastinning Xalil shahrida tug'ilgan Abdulkadim Zallum rahbardir. Mazkur diniy tashkilot faoliyati 1982 yildan boshlab kuchaygan. Tashkilot rahbarlarining asosiy qismi G'arbiy Evropa davlatlarida yashab, o'z faoliyatini olib boradi. Partiya filiallari Iroq, Afg'oniston, Pokiston, Misr, Iordaniya, Tunis, Quvayt va boshqa arab davlatlari hamda Turkiyada keng tarqalgan. «Hizb-at-tahrir al-islomiy» diniy-siyosiy tashkiloti ham vahobiylar kabi davlatni siyosiy boshqarishga aralashish, qonuniy hukumatni to'ntarishni asta-sekinlik bilan amalga oshirish orqali islom davlati o'rnatishga intiladi.

Vahobiylar hukumatni qo'lga olishda ochiq kurash, ekstremistik terrorchilik yo'lini tutsalar, «hizbchilar» g'oyaviy, mafkuraviy kurash uslubini qo'llaydilar. Ular besh kishidan iborat bo'lgan halqa-halqalarga bo'linib, mafkuraviy targ'ibot ishlarini olib boradilar, yoshlar tarbiyasidagi ma'naviy bo'shliqdan foydalanib, ularning ongini zaharlashga urinadilar.

«Vahhobiylar» - fundamentalistik yo'nalishdagi oqim.

Vahhobizm – XVIII asr o'rtalarida Arabiston yarim orolining markaziy qismi hisoblanmish Najd viloyatida islom dinining sunna yo'nalishidagi hanbaliy mazhabi ta'limoti o'zagida paydo bo'lgan. Uning asoschisi Muxammad ibn Abd al-Vahob hisoblanadi. U 1703 yilda tug'ilib, 1791 yilda vafot etgan. Muhammad ibn Abd al-Vahob qozi oilasida tarbiya topgan. Ibn Abd al-Vahobning ko'pchilik din masalalari yuzasidan o'zgacha fikrdaligini ko'rib, ota, akasi Sulaymon va ustozlari uni diniy masalalarni hal qilishdagi xatolari va noto'g'ri yo'lida ketayotganligi haqida ogohlantirganlar. Shuningdek, akasi Sulaymon o'sha

paytda aholi orasida ukasi targ'ib qilgan noto'g'ri qarashlarning singdirilishiga g'arshi kurashgani manbalarda zikr etilgan.

Ibn Abd al-Vahobning ekstremistik faoliyati XVIII asrning o'rtalarida avj olgan. Uning qarashlari va harakati islom dini g'oyalarini buzishga, noto'g'ri targ'ib qilishga qaratilganligini anglagan akasi va ustozlari o'sha zamonda yozilgan kitoblarda «unga ergashgan baxtsizlikka duchor bo'ladi» deb tanqid qilgan.

Vahhobiy ta'limotining asosini «sof tavhid» g'oyasi, faqat Ollohning yagonaligini tan olishdan iborat. Payg'ambar, avliyolarning shafolatlaridan umidvor bo'lish, qabrstonlarni ziyorat etishni rad qilib, tasavvufni tan olmaydilar. Shuningdek suratga tushish, marhumlar ruhiga tilovatlar o'qish, hayri ehson qilish kabilar ham nojoiz hisoblanadi. Bu oqim tarafdorlari tamaki chekish, ipak kiyim kiyish, tasbehdan foydalanish, qo'shiq, musiqa, teatr, kino, tasviriy san'at va umuman olganda ma'naviy madaniyat taraqqiyotiga qarshi bo'lgan. O'lganlarni xotirlab o'tkazilgan «uch, etti, - ishonmoq kufr» deb hisoblaydilar.

Qayd etish joizki, vahhobiylar o'zlari zulm o'tkazgan hududdagi barcha musulmon aholisiga o'z mafkurasini majburan singdira olmagan. Ularning o'ta tor mutaassib ta'limoti xalqning qattiq qarshiligiga uchragan. XVIII asr oxiri XIX asrning birinchi choragida vahhobiylarning nomaqbul g'oyasini jamiyatdan sidirib tashlash uchun Misr hukmdori Muhammad Ali ularga qarshi kurash olib borgani va vahhobiylar tarafdorlarini batamom qirib tashlagani tarixdan ma'lum. Ammo, yana vahhobiylar «ta'limoti» ni bayroq qilib olgan Abd al-Azsh ibn Saud (1880-1953) rahbarligida Arabiston yarim orolida 1920 yilda boshlangan g'azovot (mustaqillik) urushi natijasida 1932 yilda hozirgi Saudiya Arabistoni deb nomlangan yangi davlatga asos solingan.

O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatishi ta'qiqlangan vahhobiy diniy-siyosiy oqimi a'zolari 1997 yillardan boshlab asosan Farg'ona vodiysi viloyatlaridagi Namangan, Andijon, Qo'qon, Marg'ilon, Qorasuv shaharlarida turli jinoyatlarni sodir etdilar. Keyinchalik, bu oqim tarafdorlari Toshkent shahrida ham paydo bo'la boshladi. Bu norasmiy jinoiy oqimni boshqa mintaqalarga yoyishga harakat qilinayotganligi xuquqni muhofaza qiluvchi idoralar tomonidan aniqlangani jamiyatni tashvishga solmoqda. Ayniqsa, Namangan shahrida jinoyatlar sodir etgan «Islom lashkarlari» va «Adolat» kabi jinoiy uyushma a'zolari ham vahhobiylar oqimi tarafdorlari bo'lib, ularning bir qismi 1992-97 yillar davomida Tojikistondagi fuqarolik urushida islomiy muxolifat tarafida janglarda faol qatnashgani hech kimga sir emas.

Tojikistondagi siyosiy muxolifat rahbarlari S.Nuriy va A. Gurajonzodaga yaqin kishilardan biri Namanganlik vahhobiy Jumaboy Namangoniy (Xojiev) hisoblanadi. U O‘zbekiston Respublikasidan aldab olib borilgan bir guruh yoshlarni qurollantirib, 1999 yilning yozida Kirg‘iziston Respublikasi hududiga o‘tdi, Markaziy Osiyoni, jumladan, O‘zbekiston Respublikasini ham diniy ekstremizm va terrorizmning girdobiga tortishga behuda urindi.

Qayd etish joizki, O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan yuqorida sanab o‘tilgan illatlarning sabablari o‘rganilmokda. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oliy Majlis sessiyalari va Vazirlar Mahkamasidagi yig‘ilishlaridagi ma'ruzalarida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida sog‘lom muhitni yaratish uchun aniq chora-tadbirlar ishlab chiqarish, boshlangan islohotlarni yanada chuqurlashtirish maqsadida tinimsiz izlanish lozim ekanini talab qilmoqda. Eng muhimi, aholining ma'naviyati, tafakkurini yanada yuksaltirish, ayniqsa, yoshlarning turli oqimlar ta'siriga tushib qolmasligi uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etish zarur ekanligi bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri deb baholanmoqda.

6-Mavzu. Inson huquqlari: islomcha yondashuv va konstitutsion amaliyot

- 1. Hozirgi zamon islom inson huquqlari kontseptsiyalarining o'ziga xos xususiyatlari.**
- 2. Islom huquqida individual huquq va majburiyatlar.**
- 3. Islomda fuqarolarning tengligi konstitutsion printsipli.**
- 4. Shaxsiy huquq maqomi.**

Payg'ambarimiz Hazrat Muhammad ibn Abdulloh (570-632) islom dinining ilohiy Qonun va tartiblarini amalga oshiruvchisidir. U muqaddas kitob Qur'oni Karimning hukumlariga binoan Yaratguvchi oldida barcha insonlarning tengligi va vijdonan erkinligini e'lon qilib, butun musulmon jamoasini *Ummat* deb atadi.

Inson huquqlari umumjaxon deklaratsiyasi insoniyat tarixidagi ko'p ming yillik tajribalar mahsuli bo'lib, uning 30 ta moddasida jahondagi barcha halqlarning qadriyatlari, ularning amaliy hayotidan kelib chiqqan xulosalar, turli huquqiy tizimlarda ishlab chiqilgan normalar mazmuni, erkinlik va barcha insonlar teng huquqli bo'lib yashash uchun kurashgan odamlarning armonlari o'z ifodasini topgan.

Qur'onda barcha insonlar, ularning ijtimoiy mavqei, dini, tili, millati va irqidan qat'iy nazar teng va barobarligi quydagidek e'lon etiladi:

«Ey odamlar, darhaqiqat biz sizlarni bir erkak va bir ayoldan yaratdik hamda bir-biringiz bilan tanishib, do'stlik va birodarlikda yashashingiz uchun sizlarni turli tuman qabila va elatlar qilib qo'ydik. Albatta, Olloh nazaridagi sizlarning mukarramrog'ingiz, taqvodorog'ingizdir» (Qur'oni Karim, 49- sura, 13-oyat).

Ko'rinib turibdiki, zikr etilgan oyatlarda, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 1,2-moddalaridagi mazmun, ya'ni insonlarning ozod va teng huquqligi, izzati va yuksak sharafligi maqomga ega ekanligi bundan 14 asr muqaddam o'z aksini topgan.

Din odamlarda ishonch hissini mustahkamlagan. Ularni poklab, yuksaltirgan. Hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni engib o'tishlarida kuch bag'ishlagan. Umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan avlodga etkazishga yordam berib kelgan. Ba'zi vaqtlarda esa buning birdan bir chorasi bo'lgan.

Bu o'rinda prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini keltirishimiz o'rinlidir: *“Kimga qanday tuyulmasin, bugun dinimizning asl mohiyatini asrash, uning ma'no-mazmunini naqadar pok va ezgu ekanini,*

din uchun asrlar davomida o'zligimizni, millatimiz, naslimizning eng yaxshi qadriyatlarini saqlab qolishda buyuk hayotbaxsh kuch bo'lib, takror va takror ta'kidlashimiz, bu haqiqatni odamlarning ongiga singdirishimiz darkor".

Bu fikrning dolzarbligi mintaqalardagi davlatlarning mustaqilligini qaror toptirish va mustahkamlash davrida mintaqamizda islom omili va uning xilma-xil ko'rinishlari faollashuvi sabablariga e'tibor bilan qarashni talab qilmoqda.

Birinchidan, avvalgi mafkuraviy tasavvurlar va qadriyatlar tizimining emirilishi hamda muayyan vaqt mobaynida paydo bo'lgan bo'shliqning o'rnini to'ldirish zaruratidir. Din sun'iy ravishda mafkuraviy kurashning o'ta qizg'in jabhalaridan biriga aylatirib, islom dinining o'n minglab mo'tabar ruhoniylari qatagon qilindi. Minglab masjid va yuzlab madrasalar buzib tashlandi. Dindorlarning ko'pchiligi 90-yillarning o'rtalariga qadar Qur'oni karimdan bahramand bo'la olmaganlar.

Ikkinchidan, milliy o'zlikni anglash tuyg'usi, etnik jihatdan nasl nasabini izlashga intilish o'sib bormoqda.

Bu borada Markaziy Osiyoning yangi mustaqil davlatlarida dinning, xususan, islom dinining roli to'g'risida G'arbiy Evropa ekspertlarida shakllangan fikr e'tiborga molik. Ularning fikricha Markaziy Osiyo xalqlarining milliy jihatdan tiklanishi davrida islom bir-biriga qarama-qarshi vazifalarni bajarishga qodir.

Bir tomondan, islom dinining madaniy qadriyatlari va an'analari, jahon miqyosida islom dini qoldirgan juda ulkan ma'naviy meros nafaqat mintaqamizning tarixiy rivojlanishiga ko'p jihatdan qo'shgan hissani, balki uning hozir shakllanib borayotgan sifat jihatdan yangi qiyofasini ham belgilab bermoqda.

Ikkinchi tomondan, islom dinidan siyosiy kurash uchun, ommaning siyosiy ongiga ta'sir ko'rsatish vositalariga ega bo'lish kurash sifatida foydalaniladi.

Nima bo'lganda ham, qaysi davrda qanday bo'lishidan qat'iy nazar din, ya'ni islom dini o'zining asosiy g'oyalarini saqlab qoldi. Islom dinining asosiy qoyalari insonni yaxshilik, ezgulik uchun boshlashga qaratilgan. Shu sababdan ham inson hayoti, uning taqdiri, huquqlari, burchlari islom dinida, xususan, Qur'oni Karimda, Hadisi shariflarda belgilab berilgan. Bu manbalar orqali biz istagan savolimizga javob topa olamiz.

Islom dini insonni er yuzida fisqu-fasod qilish, begunoh kishilarning qonini to'kish, qolaversa, o'z joniga zulm, o'zini hatto qurbon qilish

gunohi kabira ekanligini bildirib, er yuzini obod qilib, ezgu amallar bilan shug'ullanish, uning manfaati uchun ato qilingan ne'matlardan foydalanish solih amal, savob ishlar qatoriga kirish xaqida ta'lim beradi.

Prezident Islom Karimov Oliy Majlisning VII sessiyasida xalqaro terrorizmning zarari, uning islom diniga mutlaqo yot ekanini kuyinib ta'kidladilar: «Tobora kuchayib, XXI asr vabosi bo'lib borayotgan terrorizm ofatining har qaysi mamlakat, har qanday xalq hayotiga tahdid solishi mumkinligi, eng kuchli, eng qudratli eng rivojlangan davlatlar ham uning zarbasidan chetda qolmasligi bugungi kunda xalqaro jamoatchilikka ayon bo'lmoqda...»

Qur'oni Karimda *“Biz odamzotni azizu mukarram qilib yaratdik hamda ularni suvda ham, quruqlikda ham yuradigan qilib qo'ydik. Ularga halol pok narsalardan rizq ato etib, ularni boshqa hamma mahuqotdan afzal etdik” deb bildirilgan (“Isro”, 70-oyat).*

Boshqa bir oyatda esa Alloh odamni er yuzida O'zining o'rinbosari qilib yaratgani bayon qilinadi. Bu oyatlar insonning qadru qiymati nechog'li baland ekanligini ochiq ko'rsatadi. Parvardigor odamzotga shunchalik muruvvat ko'rsatgan ekan, inson bu ne'matning qadriga etmog'i, uning shukrini ado etmog'i, qolaversa, o'sha maqom va darajaga mos tarzda hayot kechirmog'i lozim. Uning insoniyligi Yaratgan tomonidan unga berilgan fazlu marhamat, qadru qiymatga monand yashashga qay darajada intilishiga qarab baholanadi.

O'zining inson ekanligini unutib, bu ulug' maqomga bee'tibor bo'lgan kishilarni Alloh taolo Kur'onda: *“Ular hayvonlar kabitirlar. Balki, ular yanada adashganroqdirlar. Ana o'shalar g'ofillardir” deydi (“A'rof”, 179-oyat).*

Holiq Alloz Odamni o'z qudrati bilan yaratib farishtalarga: *“Odamga sajda qilinglar”*, deb buyurgan. Farishtalar Allohning amriga itoat etib, Odam (as)ga ta'zim sajdasini ado qildilar. Shundan so'ng Alloh taolo insonga xitob qilib: *“Bugun er va osmonni insoniyat uchun yaratdim”* deb marhamat qildi. Parvardigor insonga aql-idrok berdikim, toki hayot va uning ne'matlari qadriga etsin hamda dunyoga faqat bir marta kelishini bilsin, hayotda uchraydigan ba'zi qiyinchilik va musibatlarni sabru qanoat bilan engsin.

Darhaqiqat, hayot inson uchun berilgan eng qadrli omonatdir. Shuningdek, u Alloh taolo tomonidan insonga topshirilgan imkoniyat va mas'uliyatdir. Inson bu ne'matni asrab-avaylashi, unga xiyonat qilmasligi lozim. Aks holda, eng og'ir jinoyatga qul urgan, o'z zimmasiga katta gunoh orttirgan bo'ladi.

Qur'oni karimda insonning o'zining yashash huquqiga tajovuz qilishi man etilib: "O'z qo'lingiz bilan o'zingizni halokatga tashlamangizlar" va yana: "O'zingizni o'zingiz o'ldirmangizlar, zeroki, Alloh Sizlarni o'z rahm va shafqati ila yashashingiz uchun dunyoga keltirgandir," deb uqtirilgan.

Rasululloh(sav) o' hadisi shariflarida o'z-o'zini o'ldirish harom ekanligi, bunday ishni qilgan kishiga oxiratda qattiq azoblar bor ekanligi haqida aytib o'tganlar, jumladan, "Kimki tog' tepasidan tashlanib, o'z-o'zini o'ldirsa, o'lgandan so'ng jahannamda ham shu xil azobga giriftor bo'ladi. Agar zahar ichib o'zini o'zi o'ldirsa, jahannamda ham abadiy shu azobga muhtalo bo'ladi. Kimki o'zini temir parchasi bilan o'ldirsa, u kishi temir parchasi qorniga suqilgan holatda jahannam o'tida abadiy qolur", deganlar. Boshqa bir rivoyatda esa: "O'zini suvga tashlab yoki osib yoki kuydirib o'ldirgan kishilarning hukmi ham yuqorida zikr qilinganlar hukmi bilan barobardir", deb marhamat qilganlar. ("Buxoriy va Muslim rivoyati").

Imom Buxoriy rivoyat qilgan hadisda Rasululloh (sav) shunday deydilar: "bandam o'z-o'zini o'ldirib, mening unga bergan umrimga shukur qilmay shoshildi. Shuning uchun unga jannatni abadiy harom kildim".

Islomda va inson huquqlari Umumjaxon Deklaratsiyasida individ erkinligining qiyosiy tahlil qilish konseptsiyasi eng murakkab masalalardan biri sifatida ma'lum bo'lsada, aslida erkinlikning huquqiy ma'nosi qullikning qarama-qarshisi nazarda tutiladi. Erkinlikning falsafiy konseptsiyasidan insonlarni o'zaro munosabatlarida "erkin tanlash" ixtiyori amalga oshirish bilan birga inson qobiliyatining ishga solinishini ifoda etish uchun foydalanilgan.

Lekin, "Erkinlik"ka bunday yondashish islomda ijtimoiy tartibga solishning tub sharoitiga mos kelmaydi. Insonning Alloh irodasiga bunchalik oliy, keng qamrovli darajada tobe'ligi insonlarni o'zaro munosabatlarda individning erkinligi uchun hech qanday imkoniyat bermaydi va islom keng tarqalgan hududlarda azob-uqubatlarni Allohning irodasi deb himoya qiladi.

7-Mavzu. Islom fuqarolik xuquqining asoslari

- 1. Islom fuqarolik huquqi tushunchasi .**
- 2. Sub'ektlari va ob'ektlari.**
- 3. Islom huquqida da'vo va vakillik tushunchasi.**
- 4. Mulk huquqining asosiy normalari.**

Shaxslar masalasida islom huquqi jismoniy va yuridik shaxslarni biladi. Huquqning asosiy su'ekti jismoniy shaxslar bo'lib, ularning huquq layoqati uch holatga a) ozodlik holatiga; b) diniy e'tiqodiga; v) oilaviy sharoitiga bog'lik bo'lgan. Huquqiy layoqati tug'ilishi bilan vujudga kelib, shaxsning vafoti bilan bekor bo'lgan.

Muomala layoqati erlar uchun 15 yosh, xotin-qizlar uchun 9 yosh hisoblangan. O'zbekiston doirasida, ayniqsa XIV asrlardan boshlab qullar oila a'zolari sifatida yashab, o'z oilalari, mulklariga ega bo'lib, hatto xo'jasining ruxsati bilan grajdanlik bitimlarini tuzishga kirishgan, mulk to'plab ozodlik sotib olishi, sudga o'zini himoya qilish uchun murojaat qilishi mumkin bo'lgan.

Shariatda yuqolgan kishini necha yildan so'ng vafot etgan, o'lgan deb e'lon qilish mumkinligi to'g'risida yagona fikr yo'k. Yo'qolgan kishi tug'ilganidan 120 yil o'tgach, u o'lgan deb hisoblangan. Ammo ko'pgina hollarda 90 yil o'tgandan keyin u o'lgan deb e'lon qilinishi, unga taalluqli barcha ishlar uning o'limi bilan, shundan keyin hal etilib qaror chiqarilgan.

Mulk huquqi deganda, Hanafiylar huquq maktabi: ashyolar, insonga berilishi mumkin bo'lgan mahsulotni tushunilgan. Mulk huquqi abadiy va cheklanmagan bo'lib, shariat uni barcha choralar bilan qo'riqlaydi. Mulk huquqi harbiy o'lja yo'li bilan, grajdanlik bitimini tuzish, merosga olish, xizmat evaziga hokimiyatdan olish, ish faoliyati bilan bog'lik vujudga kelgan. Mulk huquqining uchta: a) ashyoga nisbatan qat'iy egalik huquqi; b) mulkni tasarruf qilish; v) mulk huquqining doimiyligi kabi belgilari bo'lgan.

Shariat huquqiga ko'ra er mulkining quyidagi shartlari bo'lgan: davlat erlari, xususiy kishilarga tegishli erlar, qishlok jamoa erlari, diniy tashkilotlarga tegishli erlar mavjud bo'lgan.

O'zbekiston doirasida xususiy erlar yoki mulklarning bir ko'rinishi xizmat evaziga olingan shartli er egaligi bo'lib, u turli vaqtda turli nomlarda yuritilgan.

Vaqf mulki.

Bu mulk o'rta asr O'zbekistonidan ko'p tarqalgan, islom qonunshunoslarining asarlarida keng o'rin berilgan, jumladan "Hidoya" asarining 2-qismidagi XV- kitob maxsus shu masalaga va uning yuridik tabiatiga bag'ishlangan. "Vaqf" – deb qonunga ko'ra biror bir ashyoni biror maqsad uchun shunday bag'ishlash tushuniladiki, bunga asosan ilgari shu ashyo tegishli bo'lgan shaxs unga nisbatan mulk huquqini saqlash qolgani holda shu ashyodan foydalanish ko'rsatilgan, xayriya ishlariga tegishli bo'ladi, - deyiladi "Hidoya"da. Ammo ana shu ta'rifning mag'zini tashkil qilgan mulk huquqining saqlab masalasi bahslidir. Ba'zi faqihlar Abu Hanafi, Abu Yusuf, "shaxs" "men vaqfni ta'sis etdim" deganidan boshlab mulk huquqini yo'kotadi deb hisoblasalar, ba'zilar vaqf ta'sis etuvchi vafot etgachgina mulk huquqini yo'qotadi deb hisoblaganlar.

Vaqf hujjatlari vaqfni ta'sis etuvchi kishilarning oila a'zolarida avloddan-avlodga o'tib kelgan va ko'pchiligi saqlanib qolgan. Vaqflar yuridik jihatdan ikki ko'rinishda to'la vaqf va mutloq vaqf, bunga ko'ra uning egasi vaqf ta'sis etuvchi, vaqfga aylantirilgan mulkka nisbatan har qanday huquqlardan mahrum bo'lgan. To'la bo'lmagan vaqfda uni ta'sis qiluvchisi yoki merosxo'rlar egalik qilish va foyda olish huquqiga ega bo'lsada, undan keladigan daromadning faqat bir qismidagina foydalangan.

Ko'pgina hollarda vaqfning boshqaruvchisi qilib, mulk egasining o'zi tayinlangan. Vaqf mulkining asosiy belgilariga ixtiyoriylik, faqatgina ko'zg'almas mulklar uning ob'ekti bo'lishi mumkinligi, daxlsizligi hamda undan keladigan daromadni faqatgina vaqf hujjatda ko'rsatilgan maqsadgagina sarflanishi, xayriya xarakteriga ega bo'lishini ko'rsatish mumkin.

Vaqfnoma – ya'ni mulkning vaqfga aylantirilganligi haqidagi hujjat qozixonalarida qozi, vaqf ta'sis etuvchi hamda guvohlar oldida rasmiylashtirilgan. Uning yuridik jihatdan sub'ekti erkak ham ayol ham, boy yoki o'rta hol, aqli raso kishi bo'lishi mumkin bo'lgan.

Vaqflar musodara etilishi yoki uch yildan oshiq muddatga ijaraga berilishi mumkin bo'lmagan. Ijaraga berilgan taqdirda undan ijara xaqi olinib, u ruhoniylar orasida taqsimlangan. Islom huquqida majburiyat huquqi alohida bir institut sifatida ishlab chiqilmagan bo'lsada, ularni bajarishning shartliligi, tartiblari, oqibatlarini, uning birinchi manbai bo'lgan Qur'onga tayangandir.

Majburiyatlar islom huquqiga ko'ra quyidagi guruhlariga: qonun kuchidan kelib chiqadigan majburiyatlar, shartnomalardan kelib

chiqadigan majburiyatlarga bo‘linib, bitim va shartnomalar bir so‘z bilan “ahd” deb yuritilgan.

Shartnomalarning topshiriq, qarzini o‘tkazish, ishonch, ssuda, kafolat, zaklat, hadya, saqlab turish, qarz, garov, ijara, savdo-sotiq kabi turlarini biladi, bularning o‘zi ham bir nechta turlarga bo‘linadi.

Savdo shartnomasining o‘zi uch turga bo‘lingan bo‘lib, bular bir-biridan farq qilgan. 1) Boyi kote' – bunga ko‘ra sotilgan mulk sotib oluvchiga uning haqini to‘lashdan oldin o‘tishi mumkin bo‘lgan. 2) Boyi joyiz – biror-bir shartni qo‘yib, savdo-sotiq shartnomasini tuzish, u shart bajarilmasa shartnoma bekor bo‘lishi mumkin. 3) Boyi fosil – bunga ko‘ra sotilgan mulk, uning ko‘rinishi o‘zgarmagan holda, uchinchi shaxslarga hali sotilmagan uning egasi tomonidan qayta sotib olinishi mumkin bo‘lgan.

Islom fuqarolik huquqining O‘zbekiston hududida keng tarqalgan instituti – Shuf’a (Shubizm) bo‘lib, uning mavjud bo‘lishi, bu erdagi davlatlarda ulkan er, ho‘jaliklarning tashkil topishiga olib kelgan. Bunga ko‘ra er mulki uylar sotilayotgan vaqtda, shu ashyo joylashgan joyda qo‘shni bo‘lib yashovchi kishi imtiyozli sotib olish huquqiga ega bo‘lgan. Buning natijasida mulklarning bir tuman, bir viloyatga nisbatan yaxlitligi oshib borgan.

Islom huquqida o‘rtoqlik shartnomasiga juda keng o‘rin berilgan. O‘rtoklik shartnomasiga ko‘ra ikki yoki bir necha shaxslarning umumiy maqsadga erishishilari uchun ittifoqqa kirishlari tushunilib, bunda mablag‘, mehnat, ba'zi hollarda esa ikkalasini ham birlashtirish nazarda tutilgan.

8-mavzu. Islom huquqida oila, nikoh va meros masalalari

- 1. Islom huquqida nikoh tushunchasi**
- 2. Qur'on va sunnadagi nikohga oid muammolar.**
- 3. Shariatda nikoh tushunchasiga mone'lik qiladigan holatlar.**
- 4. Nikohning bekor bo'lishi omillari.**
- 5. Taloq turlari.**

Qur'oni Karimdagi 176-oyatdan iborat bo'lgan birinchi sura katta suralardan biridir. Va u “Niso”, ya'ni “Ayollar” deb ataladi. Mazkur sura ayollarga – onalarimiz, opa-singillarimiz, qizlarimiz, ayollarimizga taalluqli masalalar bayon qilingani uchun ham shunday atalgan. Demak, bu surada oila masalalari ham bayon qilingan.

“Niso” surasining uchinchi oyatida Olloh taolo marhamat qilib aytadi:

“Agar etim qizlarga adolat qila olmaslikdan qo'rqsangiz, sizlar uchun nikohi halol bo'lgan ayollarga ikkita, uchta, to'rttadan uylanaveringlar. Endi agar (ular orasida) adolat qila olmaslikdan qurqsangiz, bir ayolga (uylaning) yoki qo'l ostingizdagi cho'ri bilan (kifoyalaning). Mana shu jabru zulmga o'tib ketmasligingizga yaqinrok ishdur”.

“Ulamolar mazkur oyatni quyidagicha tafsir qiladilar: “Shariat hukmicha ota-onadan ajrab, etim bo'lib qolgan qizni o'z qaramog'iga olgan odam u qizga uylanishga haqqi bor. Lekin, odatda, bunday hollarda ko'pincha qizning haqqi – mahrini to'la-to'kis qilib bermay, arzon-garov uylanib olish payiga tushiladi. Shuning uchun Qur'on etim qizlarning haqqini ado qila olmaslikdan qo'rqsangiz, sizlar uchun nikohi halol bo'lgan ayollarga ikkita, uchta, to'rttadan uylanaveringlar, deb ruxsat beradi va darhol u xotinlar o'rtasida adolat qilish shart ekanligini ta'kidlaydi.

Muhammad (s.a.v.) Oyshani 9 yoshida o'z nikohlariga olganliklari sababli, bu yosh nikohga kirishda ayollar uchun etarli deb tan olingan. Shialarda ma'lum muddatda tuzilgan vaqtinchalik nikohga yo'l qo'yilgan.

Shariatga binoan musulmon kishi (ayol) g'ayridin yoki islomdan qaytgan kishi bilan nikohga kirishish mumkin bo'lmagan. Ushbu qoidalarni buzgan holda tuzilgan nikohlar bekor qilingan. Lekin musulmon erkak kishiga g'ayri din ayol bilan nikohga kirishishga yo'l qo'yilgan sababli, erkak kishi ayolni musulmon diniga kiritadi deb uylangan. Musulmon ayoli g'ayri din bilan nikohga kirishi taqiqlangan.

Ma'lumki, Islom voqeiy dindir. Ya'ni, u insonni pokiza hayot kechirishiga da'vat qilishda g'ayrivoqeiy yullarni tutmaydi.

Binobarin, bu qonunda ham voqeiy, insoniy hayot nazarida tutilgan. *Birinchidan*, asrlar davomidagi tajribalar ko'rsatishicha, o'g'il boladan ko'ra qiz bola ko'prok tug'iladi; *ikkinchidan*, ayol kishi erkak kishidan ko'ra uzunroq umr ko'rishi ham voqeiy haqiqat; *uchinchidan*, turli fojialar, xususan, urush va to'qnashuvlarda, asosan, erkaklar halok bo'ladi.

Mana shu va yana boshqa ko'p sabablar natijasida ayollarning sanog'i erkaklarning sanog'idan ko'prok bo'ladi, demak, bir erkak faqat bir ayolga uylanishi mumkin deyilsa, erkak sanog'idan ortib qolgan ayollarga zulm qilingan bulur edi. Natijada, jamiyatda nopoklik va maishiy buzuvchilik yuzaga keladi. Shuning uchun Islom moddiy imkoniyatlari bo'lgan kishilarga agar adolat qilishning uddasidan chiqsalar, birdan ortiq ayol bilan turmush qurishga ruxsat beradi.

Nikohni ikki sharti bor: Nikohda qatnashuvchilarning hoh erkak hoh xotin kishi bo'lsin biri-birovlarining so'zlarini eshitishlari kerak. Nikoh o'qilgan vaqtda nikohlanuvchi er nikohlanuvchi xotinga mahr berishi shart. Qur'onda Niso surasining 4- oyatida: "Xotinlaringizga mahrlarini hadya qilib (chin ko'ngildan) bering. Agar ular o'zlari siz uchun u mahrdan biror narsani ixtiyoriy ravishda kechsalar, siz uni pok va barakali bilib yoyavering", deyilgan. Qur'onda "mahr" so'zining o'rnida "sadaqa", "saduka" so'zlari ishlatilgan. Mahr pul, hovli-joy, uy hayvonlari, er va boshqa buyumlardan iborat.

Mahrni belgilamay turib, imom nikoh o'qimaydi. Mahr kelin mulki, uni hohlasa foydalanadi, hohlasa uni sotib yuboradi.

Taloq uch turlidir: "ahsan", ya'ni mustahab, "hasan", ya'ni sunnat, "bid'at", ya'ni harom. Taloqning ahsani va ko'rkamrog'i vatiy qilinmagan turda bir martaba taloq qilmoq. Bu taloqni fikhdagi "taloqi ahsan" hamda "taloqi mustahab" deb ataganlar. Taloqi ahsan bo'lishi uchun to'rt narsa kerak: avval bir taloq, ikkinchidan xotin hayzdan pok bo'lishi kerak, uchinchidan madhula bo'lishi kerak, to'rtinchidan yukli bo'lmasligi kerak.

Hasan va ko'rkam taloq uch turlidir: birinchisi: vatiy qilmagan xotinni garchi hayz ko'rgan vaqtda bo'lsa-da birgina martaba taloq qilmoq. Ikkinchi: xotini vatiy qilingan bo'lib, hayz ko'radigan bo'lsa – uch turda hech qaysida vatiy qilmay bir martaba bir martabadan uch taloq qilmoq. Uchinchisi: xotinini yosh bo'lganligidan yoki keksalikdan, vaqti o'tganligidan yoki hayz ko'rmaydigan, ya'ni tug'maydigan xotinni garchi vatiydan so'ng bo'lsa-da uch oyda uch martaba taloq qilmoq. Mana shunday taloqni "taloqi hasan" yoki "taloqi sunnat" deb atalur.

Bid'at taloq uch turlidir: birinchisi: xotinini vatiy qilingan pokligida bir marta taloq qilmoq, ikkinchisi: madhula xotinini hayz vaqtida bir taloq qilmoq, uchinchisi: madhula xotinini ikki yo uch martaba talog'idan qaytmay taloq qilmoq. Mana shunday taloqni bid'at va harom deyilur.

Oilada eru xotinning bir-birlariga nisbatan bir necha haq-xuquq va vazifalari bor. Avvalo, eru xotin bir-biri bilan ezgulik asosida yashashlari, bir-birlarining haqlarini ado etishlarini va hohishlarini qo'ldan kelganicha bajarishlari lozim. Qur'oni Karimda Alloh taolo: "Ayollar bilan ezgu muomalada yashang" deydi. Erkaklarga qarata bunday dedi: "Ayollarning qancha haqlari bo'lsa shuncha vazifalari ham bor, erkaklar o'z haq va vazifalarida ayollardan bir daraja ortiq".

Agar oilada eru xotin o'z vazifalarini bajarishga o'rgansalar turmushlari xotirjamlikda va o'zaro ahillikda kechadi.

Oyat va hadislarda ayollarga yaxshi muomalada bo'lish haqida ko'p martalab ta'kidlangan. Hazrat Rasululloh sallollohu alayhi vasallam: "Mo'min kishi mo'mina ayoldan nolimasin, agar uning bir xulqidan norozi bo'lsa, ikkinchi xulqidan rozi bo'ladi", deydi. (Imom Muslim rivoyati).

Bu hadisi sharifda aytilayaptiki, inson bolasi nuqsonsiz va aybsiz bo'lmaydi. Shuning uchun erkak kishi ayolning ayrim nuqsonlariga chidam va sabr bilan qarashi zarur, chunki har bir insonda bir necha ijobiy hulk va sifatlar bor. Yaxshi gap bilan sekin-asta nuqsonlarni tugatish mumkin va yaxshi sifatlarni taraqqiy ettirish mumkin.

Hazrat Rasululloh sallollohu alayhi vasallamdan ayolning erdagi huquqlari nimadan iborat deb so'raganlarida, Rasululloh: "Taom esang xotiningga ham edir, yangi kiysang, xotiningga xam yangi kiyim olib ber", dedilar (Abu Dovud rivoyati).

Erning xotindagi haqlari ham oyat va hadislarda bayon qilingan: "Agar ma'siyatga (gunohga) yurmasa xotin erga itoat etishi kerak, uydagi ashyoni sarishta qilib saqlash ham ayolning burchidir. Eridan ruxsatsiz xotinlar, hatto ibodat bo'lsa ham, nafl ro'za tutmasligi zarur, eridan ruxsatsiz uydan chiqib ketmasligi va eri norozi bo'ladigan ishni qilmasligi kerak".

Hazrat Rasululloh sallollohu alayhi vasallam: "Qaysi bir ayol vafot etganda undan eri rozi bo'lsa, u ayol jannatga kiradi", deb marhamat qildilar.

Xotinning erdagi haqlari borasida Qur'oni Karim oyatlarida ko'rsatilgan. Oyatda:

“Ayolning qancha vazifalari bo‘lsa shuncha haqlari ham bordir” deyilgan. Hazrat Rasululloh sallollohu alayhi vasallam: Sizlarning ayollaringizda haqlaringiz bor va ularning sizlarda haqlari bor, dedilar (Imom Termiziy rivoyati).

Xotinning erdagi haqlari:

- Ovqat va taom bilan ta'minlash;
- yashash joyi va kiyim-kechak bilan ta'minlash;
- to‘rt oydan oshiq muddatga yolg‘iz tashlab ketmaslik. Agar shu muddatdan ortiq vaqtga safarga ketmoqchi bo‘lsa, o‘zi bilan olib ketish;
- o‘z qarindosh-urug‘larini ko‘rishdagi ayolning xaqqiga rioya qilish;
- xotinning qo‘lidan kelmaydigan ishlarni buyurmaslik.

Erning ayoldagi huquqlari quyidagilardan iborat:

- xotinning erga kundalik ma'ruf ishlar, ya'ni uy-ro‘zg‘or masalasi va farzand tarbiyasi kabi ishlarda agar gunoh ish bo‘lmasa itoat etishlik.
- Bu borada Qur'oni Karim oyatida shunday deyilgan: “Agar ayollaringiz sizga itoat etsalar, unda haddan oshmangizlar” (Niso surasi).
- ayol kishi o‘z erining moli, obro‘cini saqlashi, uning ruxsatisiz ko‘chaga chiqmasligi;
- erning xizmatidan bosh tortmaslik;
- erning ruxsatisiz nafl ro‘za tutmaslik;
- begonalar oldida erning xurmatini bajo keltirish.

9-Mavzu. Islom huquqida jinoyat va jazo

- 1. Islom huquqi manbalarining jinoyat va jazo bilan bog'liq bo'lgan asosiy qoidalari.**
- 2. Qur'onning jinoyat va jazo to'g'risidagi qoidalari.**
- 3. Sunnaning musulmon jinoyat huquqi manbai sifatidagi o'rni.**
- 4. Jazo tushunchasi va uning turlari.**

Islom huquqi mazhablarining yirik namoyondalari fikrlariga ko'ra, joriy qilingan huquqiy qonun-qoidalar doirasi zarur darajada o'zgarishlar kiritish imkonini beradi va inson ko'pgina hollarda o'z yurish-turishi, xulqining bir-biridan farqli tomonini mustaqil tanlashi mumkin. Shuning uchun ham har bir jiddiy qilmish islomcha ta'qiqlarni buzganligi jihatidan jazoga loyiq deb qaraladi. Islomning bunday umumiy yo'nalishidan, ayniqsa, shariatning huquqiy qonun-qoidalarini o'z ichiga oluvchi bssh umuminsoniy qadriyatlar: din, hayot, aql-idrok, avlodlar davomiyligi hamda mulkka egalikni himoya qilishga qaratilgan.

Shariat diniy-huquqiy tizim sifatida XI-XII asrlarda birmuncha mukammallashgan edi. Uning qoidalari huquqiy, ahloqiy va diniy munosabatlarda barcha musulmonlar uchun birdek qo'llaniladi.

O'lkamizga islom dini halifa Umar davrida tarqala boshlagan va arablar O'rta Osiyoni egallaganlaridan so'ng YIII-IX asrlar mobaynida shariat normalaridan to'la-to'kis foydalanishga o'tilgan. Shariatga muvofiq to'rttala mazhab sunniylikning asosi hisoblansa-da, O'rta Osiyoda yashovchi musulmonlar asosan Hanafiya mazhabiga tayangan holda shariat huquqi tizimini hayotga tadbqiq etadilar-

Mazhablarning ta'limotlarida Qur'oni Karim va payg'ambarning sunnatlarini tan olish, ularga og'ishmay amal qilish lozim ekanligi uqtirilishiga qaramay, ular faqatgina ikkinchi darajali masalalar yuzasidan qator fikru mulohaza bildirganlar. Jumladan, turli mazhablar jinoyat huquqi tizimidagi ba'zi bir jinoyatlar, ularga belgilanishi lozim bo'lgan jazo turlari va boshka masalalarni echishda o'zaro farq qiluvchi fikrlar bildirganliklari bilan ajralib turadilar. Masalan, Abu Hanifa huquqdagi o'z yo'lini: "Men huquq masalalari bo'yicha echimlarni Qur'ondan, payg'ambar sunnatidan olaman. Agar unda ham bo'lmasa, ijti-hod qilaman (Ijti-hod - hal qilinmagan diniy-huquqiy masalalarni echishda juda malakali, nufuzli ulamolarga beriladigan huquq), deb ta'riflaydi.

Shariat O'rta Osiyo xalqlari, ayniqsa, o'zbeklar hayotida huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishida ko'p asrlar davomida

chuqur iz qoldirgan huquqiy tizimdir. Buyuk bobokalonimiz sohibqiron Amir Temur o'z tuzuklarida: "Dilimning mashriqidan ko'tarilgan birinchi tuzuk shundan iborat bo'ldiki, islom dinini yoyib... shariatni quvvatladim... O'z saltanatimni shariat bilan bezadim... Musulmonlarga diniy masalalardan ta'lim berib, shariat aqidalari va islom dini ilmlari: tafsir, hadis, fiqhdan dars bersinlar, deb har bir shaharga olimlar va mudarislar tayin qildim", - deb ko'rsatgan. U davlatni boshqarishda Shariat qonun-qoidalaridan mohirona foydalanib, unga tayanib barcha jinoyatchilarni, hattoki, jinoyatga qo'l o'rgan qarindosh va yaqin kishilarini ham qattiq, jazolagan, shu yo'l bilan jinoyatchilikka qarshi kurashgan.

Shariat va uning ilmiy yo'nalishlarini ko'pchilik ilohiyot, ya'ni islom dini, uning aqidalari va qonun-qoidalaridan iborat, deb tushunadi. Vaholanki, shariat qonunlari ilohiyot qonunlari bilan bir vaqtda inson huquqlarini, dunyoviy masalalarni, jumladan, jinoyat huquqiga tegishli qonun-qoidalarini ham o'zida mujassamlashtirgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Shariat manbalarining jinoyat huquqiga aloqador jihatlarini o'rganish nafaqat nazariy, balki muhim siyosiy va tarbiyaviy ahamiyatga ham molikdir.

Sunniylikda mo'minlar o'z hayoti davomida qiladigan amali sakkiz qismga bo'lingan: 1) farz; 2) vojib; 3) sunnat; 4) mustahab; 5) muboh; 6) harom; 7) makruh; 8) mustakrah. Shulardan harom va makruhdan qayd etilgan amallar jinoyat huquqi tizimiga bevosita aloqadordir. Shariatda harom qat'iy ta'qiqlangan, makruh esa ta'qiqlangan amallardir. Ularni sodir etgan kishi gunohkor - jinoyatchi hisoblanadi. Harom va makruhning turlari juda ko'p. Lekin ulardan asosiylari mast qiluvchi ichimlik va giyohvandlik vositalarining barcha turlarini iste'mol qilish, zinokorlik, folbinlik, sehr-jodu bilan shug'ullanish, savdo-sotiqda g'irromlik, birovning omonatiga hiyonat, sudxo'rlik, o'g'rilik, qaroqchilik (bosqinchilik), tuhmat, josuslik, yolg'on guvohlik berish, birovni haqoratlash, qotillik, poraxo'rlik va boshqalarni qayd etib o'tish mumkin. Sanab o'tilgan ushbu jinoyat turlarining deyarli barchasi musulmon mazhablarining olimlari tomonidan tafsirlab - sharhlab berilgan.

Yuqorida zikr etilgandek, turli mazhab asoschilari islom fiqh-huquqshunosligi shakllanishiga bevosita aloqador asarlar yaratgan bo'lsalar-da, keyinchalik jamiyat taraqqiyotining xolisona qonunlari islom qoziligi, ya'ni sudlari uchun amaldagi qonun-qoidalarining yagona tartibini belgilab beruvchi manbalarga ehtiyoj sezar edi. Shariatning huquq tizimini mukammal, bir butun tarzda jamlagan kitob - Burxonuddin Marg'inoniyning "Hidoya fil furul al fiqh" (Musulmon huquqiga sharhlar)

asaridir. Unda musulmon huquqi namoyondalarining e'tiborga loyiq, to'plamlarida muayyan izchillik bilan bayon qilingan nazariy fikrlar o'z aksini topgan. Bu kitobning yana bir afzalligi shundaki, unda barcha baxsli masalalar bo'yicha taniqli mazhab asoschilari hamda qonun sharhlovchi o'lamo - olimlarning turli-tuman fikr va izohlari keltiriladi, ular mantiqan isbotlanadi. Olingan muayyan bir fikr va qarashlarning ikkinchisidan afzalligi asoslab beriladi. Chunki muallifning o'zi ham huquqning barcha sohalari, jumladan, jinoyat va jazo masalalari yuzasidan amaliyotda qo'llash mumkin bo'lgan qarorlar chiqarish huquqiga ega shaxs hisoblangan. Burxonuddin Marg'inoniy o'z asarini ko'pincha Abu Xanifa ta'limotiga tayanib, uni qo'llab-quvvatlagan holda yozgan. Bu asar Xanafiylar mazhabi fikru mo'lohazalarini o'zida mujassam etgan kitob. Shuning uchun bo'lsa kerak, ushbu asar keyingi davr olimlari tomonidan bir muncha kengaytirib sharhlangan.

Qozilik sudlari mamlakatimizda hukmronlik qilgan "qizil imperiya" yo'l boshchilari tomonidan tugatilguniga qadar "Hidoya" asaridan sud amaliyotida manba sifatida foydalanilgan. Quvonarlisi shundaki, hozirgi paytda ham aksariyat islom davlatlaridagi o'quv dargohlarida Burxonuddin Marg'inoniyning mazkur asari huquq fani sifatida o'rganilmoqda.

Oktyabr "inqilobi"ga qadar Vatanimizda shariatning jinoyat huquqiga tayangan qozilik sudlari faoliyat ko'rsatgan. Shu sababli moziyga nazar tashlab, undagi jinoyat huquqi masalalarini talqin qilishga ehtiyoj sezilmoqda.

Ma'lumki, asrimizning 70-80 yillaridan boshlab qator musulmon davlatlarida islom dini siyosiy jihatdan jiddiy faollashdi. Bu mamlakatlarning ichki siyosatida, halqaro maydonda ham islomning o'rnini ko'zga yaqqol tashlana boshladi. Shundan bo'lsa kerak, ko'pchilik musulmon davlatlarida shariatning qator qonun-qoidalarini qayta tiklashga kirishildi. Ayni paytda Saudiya Arabistoni, Shimoliy Yaman, Ummon va Birlashgan Arab Amirliklari kabi qator islom davlatlarida faqatshariatning jinoyat huquqi qonun-qoidalarini qo'llash joriy qilingan.

Bir necha islom davlatlarining jinoyat kodekslari shariat qonun-qoidalarini bilan to'ldirilgan bo'lib, ulardan shu mamlakatlarda yashovchi ko'pchilikni tashqil etgan musulmon larga nisbatan qo'llashi ko'zda tutilgan. Jumladan, Shimoliy Nigeriya, Somali, Afg'oniston, Pokiston va boshqa davlatlarda spirtlik ichimliklarni iste'mol qilish, Maroqash, Iordaniya va Livanda bosqinchilik, o'g'rilik, zino, spirtlik ichimliklarni

iste'mol qilganda shariatning jinoyat huquqi" normalarini qo'llash haqida alohida qonunlar qabul qilingan.

Qur'oni Karimda jinoyat va jazoga oid asosiy g'oyalar Qur'oni Karim Shariat qonun-qoidalarining asosiy manbai -mukaddas iloxiy kitob hisoblanadi. U islom halqlarining falsafiy, ahloqiy va huquqiy qarashlari aks ettirilgan dasturilamaldir. Qur'ondagi "Niso" surasining 105-oyatida: "Biz sizga ushbu haq, kitobni - Qur'onni odamlar orasida Oллоh, ko'rsatgan yo'l bilan hukm etishingiz uchun nozil qildik", deb qayd etilgan.

Ma'lumki Qur'oni Karimda faqat bir necha og'ir jinoyat turlari haqidagina so'z yuritilgan. Jumladan, o'g'rilik bosqinchilik qasddan odam o'ldirish, tan jaroxati etkazish, poraxurlik, zino, tuhmat, josuslik, isyon, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, ota-onaning qasddan o'z farzandini o'ldirishi, sudxo'rlik va boshqalar. Ammo bu iloxiy kitobdagi ko'pgina suralarning qator oyatlarida shaxs tomonidan sodir qilingan u yoki bu qilmish Oллоh nazdida jinoyat sanalib, jazoga sazovor bo'lishi muqarrar ekanligi takror va takror zikr etilgan. Shu bilan birga, yuqorida sanab utilgan jinoyatlarning ba'zi birlari uchun belgilangan qat'iy jazo xad va qasos yoki tovon haqida ham aytilgan. Shariatning asosiy manbalaridan biri hisoblangan Qur'oni Karimni o'rganish shuni ko'rsatadiki, islom dini tarqala boshlagan dastlabki davrda islomgacha ba'zi bir jinoyatlar uchun jazo belgilashda adolatsizlikka yo'l qo'yilgani, Shariatda esa buning oldini olish maqsadida individuallashtirish, jinoyat turlarini farklash asosida sodir etgan jinoyatga yarasha jazo qo'llash tartibi joriy qilinib, jinoyatchilikka qarshi qat'iy kurash olib borilgan.

Misol uchun, islomgacha qasddan odam o'ldirish jinoyati uchun nafaqataybdor, balki uning karindosh-urug'lari, ba'zi bir hollarda esa butun boshli qabila ahlining qoni nohaqdan to'kilib, ular qirib tashlangan. Shariat bo'nga boshqacha yondoshishni, ya'ni har bir jinoyatchining o'zi jinoiy qilmishiga yarasha jazolanishi yoki bir so'z bilan aytganda, payg'ambarimizning "Al qasosu minal haq" - "qasos haqdir", ya'ni har qanday jinoyat jazoga sazovor - degan hadislariga asosan ish tutish g'oyasi ilgari surilgan.

Qur'ondagi jinoyat turlarini ikki guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq.

Aniq jazo choralari belgilangan jinoyatlar.

Jazo belgilanmagan jinoiy qilmishlar.

Jumladan, Moida surasining 33-oyatida: "Albatta, Oллоh va payg'ambariga qarshi urushadigan va erda bo'zg'unchilik qilish harakatida yuradigan kimsalarning jazosi - o'ldirilish yo dorga osilish, yoki oyoq-

qo'llari teskarisiga, ya'ni o'ng qo'l va chap oyoq yoki chap qo'l bilan o'ng oyoq kesilishi, o'z erlaridan surgun qilinishlaridir. Bu jazo ular uchun bu dunyoda rasvolik - sharmandalik bo'lur", - deyilgan bo'lib, dindand kaytish jinoyati va o'nga belgilangan jazo haqida so'z yuritiladi.

Baqara surasinnng 188-oyatida: "Mol-dunyolaringizni oralaringizda nohaq - harom yo'llar bilan emangiz! Ya'ni bir-biringizning haqkingizni emang! Va gunoh qilayotganingizni bilib turib, odamlarning mollaridan bir qismini harom yo'l bilan ichish uchun mollaringizni pora qilib hokimlarga uzatmang", - deb qayd etilgandir. Bu birgina oyatning mazmunidan ikkita jinoyat turini anglashimiz mumkin. O'zganing mol-mulkini o'zlashtirish yoki kamomad qilish yo'li bilan talon-taroj qilish va uni pora tariqasida berish jinoyatlari haqida so'z yuritilgan.

Baqara surasining 276-278 oyatlarida: "Ollah sudxo'rlikning foydasini yo'q qiladi ... Ollah har qanday sudxo'rlikni halol deb biladigan ko'rnamakni va sudxo'rlik qiladigan jinoyatchini sevmaydi... sudxo'rlik sarkitlarini tark etingnz". Yana Ol-i Imron surasining 130-oyatida sudxo'rlik jinoyati tushunchasi haqida ko'rsatilib, "Ey muminlar, bergan qarzlaringizni bir necha barobar qilib olish bilan sudxo'rlik qilmang!" - deb uni kattik qoralanishi bayon qilingan. Chunki sudxo'rlik kishilarga moddiy zarar etkazish bilan bog'liq bo'lib, zarurat tug'ilganligi sababli birovdan qarzga pul olinganida, mulkdor olingan qarzni ma'lum bir foiz ustama bilan qaytarishni talab etishi ko'zda tutilgan bo'ladi. O'z vaqtida qarzini qaytara olmaganida, muddat o'tishi bilan ustama tarzida berilishi lozim bo'lgan pulning mikdori o'z-o'zidan ko'payishi tabiiydir. Shuning uchun ham Qur'oni Karimda sudxo'rlikni gunoh - jinoyat, deb tushuntirish bilan bir qatorda uni sodir etishdan saqlanishga da'vat etilgan.

Ko'pgina manbalardan ma'lumki, arablar o'zlariga nisbatan taraqqiy etgan qator mamlakatlar hududini egallash bilan islom shariatini tarkatganlar. Shunda bu davlatlardagi urf-odat, qonun-qoidalar o'ziga xos jihatlarga ega ekanligi sababli ular ba'zi bir masalalarni hal etishda kiyinchiliklarga duch kelganlar. Ular ziddiyatli holga duch kelganlarida, ko'pincha Muhammad payg'ambarning nufo'zidan, ya'ni u kishining chuqur ma'noli so'zlarini o'zida aks ettirgan hadislardan ustamonlik bilan foydalanganlar.

Demak, shariat me'yorlari qo'llangan barcha musulmon davlatlarining ijtimoiy hayotida islom huquqi va diniy masalalarni hal etishda, ayniqsa, musulmon qonun-qoidalarini yaratishda asosan sunnatdan foydalanilgan. Shuning uchun ham u shariatning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, hadis ilmining namoyondalari payg'ambarimizning nakl va xikmatlarini ikki turkumga bo'lganlar:

a) payg'ambarning oddiy xikmati, ya'ni Olloh tomonidan ruxlantirilmagan, shunchaki chuqur ma'noli so'zlari;

b) Olloh tomonidan ruxlantirilgan, ya'ni tangridan ilxomlanib aytilgan xikmatlar.

Bu kudsiy hadislar, ya'ni iloxiy nakllar, deb yuritilgan. Lekin har ikkisi ham qonun kuchiga ega bo'lgan.

Musulmon huquqi masalalarni bilan shugo'llangan qator olimlar, jumladan, M.Mo'llaev "Muhammad vafotidan so'ng payg'ambar safdoshlarining har biri bu hadislardan o'zicha foydalandi. Ular hech kaerda yozib qo'yilmagan, og'izdan-og'izga kuchib yurar edi va asrlar davomida shunchalik ko'p hadislar tuplanib qoldiki, ular bir-biriga zid kela boshladi. Chunki har bir hadis aytuvchi o'z fikrini ishonchli qilib ko'rsatar va sud ishlarida hadislar kolib, uni aytuvchilarning nufo'ziga karab hukm chiqarilar edi, - degan fikrni targib qilganlar.

Xad turidagi jazo Olloh tomonidan joriy qilingan. Ollohning haqi Xisoblanib bu haqda esa Qur'oni Karimda o'g'rilik qilgan erkak va ayolning qo'lini kesish kerakligi ko'rsatilganini nazarda tutib. Payg'ambarimiz Muhammad alayxissalom o'g'rilik qilgan erkagu ayol. zodagon va bechoraholga bu jazodan bir xil foydalanishni aytib, xad shar'iy jazo - kafforatdur, deganligi haqida bir necha hadislar mavjud⁷⁰. Yuqorida ko'rsatilgan holatlar usha paytda ham jinoiy jazo belgilashda qonun oldida barchaning tengligi tamoyiliga amal qilinganidan dalolat beradi.

Hadislardan birida: "...o'g'rilangan mol-mulkning mikdori chorak dinor va undan ziyod pul qiymati uch dirham turadigan teridan yasalgan qalqon bo'lganida qo'l kesish, undan kamiga esa qo'l kesilmasligi", - ta'kidlanadi. Demak payg'ambarimiz davrida ham jazo turini tabakalashtirgan holda qo'llash, ya'ni jinoyatning ijtimony xavflilik darajasiga karab, og'irva engil turlarga bo'linganligini keltirilgan hadis misolida kurishimiz mumkin.

Xad jazosi belgilangan shaxslar sodir etgan jinoiy qilmishga chin ko'ngildan pushaymon bo'lib, tovba qilib, to'g'ri yo'lga kirganlari jamiyat ahli tomonidan e'tirof etilgandan so'ng, uning guvohligi qabul qilingan. Bu esa jazoning ta'siri naqadar yuqori ekanligini ko'rsatadi.

"Tovonlar" deb nomlangan bo'limda esa usha davr amaliyotida mavjud bo'lgan aniq jinoyat ishlari tafsilotini bayon qilgan holda qasddan odam o'ldirish va tan jarohati etkazish kabi jinoiy qilmishlarning (qasddan

yoki ehtiyotsizlikdan sodir etish) turli-tuman shakllari yuzasidan paygʻambar tomonidan chiqarilgan hukmlarning bayoni koʻrsatilgan.

Ular bilan tanishilganda: "'biror kimsasi oʻldirilgan kishi ikki qasos yoʻlidan birini tanlagaydur: yo xun haqini yoki qasosini olgaydur", - degan Muhammad paygʻambarning soʻzlari keltirilishi bilan bir qatorda yanglish odam oʻldirishda esa afv etish, jinoyatchi afv etilganda jabrlanuvchining vorislariga xun haqi: bir qoʻl yoki choʻrini ozod etish bilan kafforat toʻlashi kerakligi, erkagu ayollarning oʻzaro etkazilgan jarohatlari uchun qasos olishlari, ya'ni teng jazo tamoyilini qoʻllash va nihoyat homilador ayolga bilaturib qasddan jarohat etkazilganda u vafot etsa xomila to'voni uchun bir qoʻl yoki churini ozod qilish, homiladorligida oʻldirilgan ayolning tovon haqini toʻlashni esa aybdorning qarindoshlari zimmasiga yuklatilganligi bayon qilingan.

Musulmon huquqiga oid nazariy manbalarda qayd etilishicha, barcha mazhablarga mansub huquqshunos olimlar bir joyga toʻplanib, bir ovozdan hal qilgan ijtimoiy masalalar unchalik koʻp emas. Ammo shariat qonunlarini qabul qilishda u yoki bu masala yuzasidan muayyan mazhabga mansub huquqshunos olimlarning oʻzaro kelishganligi etarli, deb hisoblangan hollar uchraydi. Bu tartib esa qonunshunoslarning qonun yaratish faoliyatini amalga oshirishni osonlashtiradi. Bunday holat Xanafiy mazhabida koʻprok uchraydi. Chunonchi bu mazhab ta'limotlarida goho: "Bu hukm falon mujtahidning fikri asosida qabul qilingan" deb ta'kidlangan.

Bu esa qonunning ijmoʻ yordamida qabul qilinganidan darak beradi. Fikrimizni yanada oydinlashtirish maqsadida ijmoʻga quyidagi misollarni keltirib oʻtamiz.

Muhammad paygʻambar va undan keyin turt halifa zamonida ham sudda sudlanuvchiga nisbatan uning qarindoshlari guvohlik bergan, bu guvohlik himoya yoki ayblovl tarzida boʻlishidan qatʼiy nazar qabul qilingan. Ammo vaqt oʻtishi bilan ayblanuvchilarning qarindosh-urugʻlari guvohlik berganida adolat chegarasidan chiqib, qarindoshlik hissiyotiga berilib ketganlar, ba'zi bir hollarda aybdorning harakatini holis baxolashda qiyinchiliklarga duch kelingan. Shunda huquqshunoslar (mujtaxidlar) mazkur qonunni ijmoʻ yordamida bekor qilish va oʻnga oʻzgartirish kiritgan holda yangi qonun qabul qilishni lozim topganlar. Ijmoʻ asosida qabul qilingan qonunga koʻra, sudlanuvchilar qarindoshlarining har qanday (hox oqllovchi, hox qorallovchi) guvohligi e'tiborga olinmasligi koʻrsatilgan.

Shuningdek, "Hidoya" asarining jinoyat huquqi qonun-qoidalarini o'zida aks ettirgan boblarida ham ko'pchilik jinoyatlarga jazo belgilashda ijmo'ga keng o'rin berilganini ko'ramiz. Misol uchun, qasddan sodir etilgan qotillik, deb qurol yoki shunga o'xshash temir, yog'och va olov bilan birovni ataylab o'ldirilishiga aytiladi, - deb bu jinoyat tushunchasi ijmo' asosida qabul qilingan.

Qiyos yangi paydo bo'lgan masalaning sababini Qur'oni Karimda, Sunnatda yoki Ijmo'da o'z echimini topgan masalalarning sabablariga solishtirish yo'li bilan unga hukm chiqarishga imkon beradi.

Islomshunos olim Yu.Shokirov qiyosni quyidagi bir necha tarkibiy qismlarga ajratib tahlil qilgan:

a) asosiy masala – Qur'oni Karimda, sunnatda yoki ijmo'da o'z javobini aniq topgan masala;

b) sabab- shu masalaga hukm berilishiga asos bo'lgan xodisa;

v) hukm - masala ustidan chiqarilgan xulosa;

g) yangi masala- mazkur manbalarda aniq javobini topmagan masala.

Shu o'rinda, qiyoslash yordamida qabul qilingan va jinoyat turlaridan sanalgan quyidagi misolni keltirmoqchimiz:

Qur'oni Karimda mast qiluvchi ichimlik ichganlik haqida shunday oyat bor: "Ey mo'minlar, aroq, qimor, Ollohdan boshqaning yo'lida so'yilgan hayvon va fol - bularning hammasi shayton amalidan bo'lgan harom ishdir. Bas, najot topishingiz uchun ularning har biridan uzoq bo'lingiz". Shariatda esa mast qiluvchi ichimliklarni iste'mol qilish man qilingan. U harom - qat'iy ta'qiqlangan, deb hisoblanadi- Uni jinoyat deyishning sababi, u insonning mol-mulkiga, sog'ligiga, obro'siga zarar etkazish bilan bir qatorda, ularni turli jinoyatlarga ham boshlaydi. Shuning uchun ham mast qiluvchi ichimliklarning zararli oqibatlarini hisobga olib, iste'mol qilish ta'kiqlangan, u ijtimoiy xavfli bo'lganligi uchun jinoyat hisoblangan.

Qur'onda aroqdan (hamr) boshqa mast qiluvchi ichimliklar to'g'risida hukm aytilmagan. Ilk islomda arablar uzumdan olingan, qaynatilmagan va qayta ishlanmagan maxsulotni "hamr", "aroq" deganlar. Shuning uchun huquqshunos olimlar mast qiluvchi ichimliklarning barcha turlarida ham aroqdagi salbiy natijalar ro'y berishni hisobga olib, unga qiyos qilib, bu kabi ichimliklarni harom qat'iy ta'qiqlangan, deb belgilaganlar.

Demak asosiy masala - hamr, uning Qur'ondagi hukmi - iste'mol qilinishi ta'qiqlangan. Buning sababi - u insonning akli, sog'ligi, mol-

mulki, obro'siga zarar etkazish bilan bir qatorda, jinoyatga ham undaydi. Yangi masala - boshqa mast qiluvchi ichimliklarni ham harom - qat'iy taqiqlanganligi sababli bu masala uzil-kesil o'z echimini topgan va jinoyat deb belgilangan.

Huquqshunos olimlar shariat manbalarining o'ziga xosligini yuqori baholab, "beqiyos va epchildir" deyдилar. Ular turli usullarni qo'llab, aniq bir hodisaga mos keluvchi qoida, me'yorni shariatdagi juda ko'p xujjatlar orasidan hamma vaqt topish, shariat qonun-qoidalarini qo'llab, har qanday ishni hal qilish mumkin, - deb to'g'ri xulosaga kelganlar.

Burxoniddin Marg'inoniyning „Hidoya" asarida jinoyat deb, qonun tilida - shaxsga va mulkka qarshi qaratilgan qonun bilan ta'qiqlangan qilmish tushuniladi, - deb ko'rsatilgan. Shariatda mazkur ta'rif jinoyat tushunchasiga berilgan umumiy ta'rif bo'lib, shariat masalalariga bag'ishlangan asarlarda jinoyatning ayrim turlariga alohida tushuncha berilgan. Jumladan, „Muxtasar" nomli asarda yozilishicha: „jinoyat" so'zi lug'atda jinoyat va gunoh ma'nosini, shariat istilohida odamning joniga yo a'zolariga zarar keltirish ma'nosini bildiradi.

O'g'irlik - birovning mulkini hufiyona tarzda olib o'zlashtirish zino - erkak kishining o'z mulkida bo'lmagan, ya'ni nikoh yo mol jihatidan xo'jayinligi bo'lmagan, shuningdek xo'jayinligining shubhasi ham, ehtimoli ham bo'lmagan ayolni vatiy qilmog'i, - deb keltirilishi fikrimiz dalilidir.

Sudxo'rlik jinoyati deganda o'z mablag'idan birovga qarz berib, ana shu mablag' hisobidan foyda olish tushuniladi.

Ma'lumki, Shariatda spirtlik ichimliklarni iste'mol qilishning o'zi jinoyat hisoblangan. Abu Xanifa: Xad urishga loyiq mast deb, gapira olmaydigan yoki gapni tushuna olmay kolgan, erkak bilan ayolning farqiga bormay qolgan odamga aytiladi, - deb spirtli ichimliklarni iste'mol qilish jinoyatiga baho bergan bo'lsa, Abu Yusuf va Muhammad ash-Shayboniy gapirganda aljiraydigan, gaplari aralash-quralash bo'lib ketadigan odamni mast deyiladi, deb bu jinoyat tushunchasini ta'riflaganlar.

Shariatning jinoyat huquqi tizimida mavjud bo'lgan jinoyat turlarini diqqat bilan tahlil qilganda, ularning har biri jinoyat tarkibidan tashkil topganligini ko'rishimiz mumkin. Jinoyat tarkibining asosiy elementlaridan biri esa jinoyat obektidir.

Shaxsning ijtimoiy xavfli va huquqqa xilof jinoiy qilmishi qanday maqsadga qaratilganligi, ya'ni tajovuz qaysi ijtimoiy munosabatlarni buzishga yo'naltirilgan bo'lsa, shu munosabat jinoyatning ob'ektini tashkil etadi.

Ma'lumki, shaxsning har qanday turdagi ijtimoiy xavfli qilmishi natijasida jinoyat qonuni bilan qo'riqlanuvchi u yoki bu ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilib, zarar etkazadi. Shuning uchun ham biron-bir munosabatni jinoyat ob'ekti, deb aytish uchun shaxsning jinoiy qilmishi faqatgina jinoyat qonunlari bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilishga qaratilgan bo'lishi shart.

Jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ob'ektga qarshi qaratilgan ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlikning tashki holatini xarakterlovchi belgilar jinoyatning ob'ektiv tomonini ifoda etadi.

Harakat yoki harakatsizlik qonun tomonidan qo'riqlanadigan ob'ektga qarshi qaratilgan bo'lsagina, ya'ni ijtimoiy xavfli bo'lsagina jinoyat hisoblanadi. Ijtimoiy xavfli bo'lmagan harakat yoki harakatsizlik unda jinoyat belgilari bo'lmaganligi tufayli jinoyat hisoblanmaydi.

Qilmishning ob'ektiv tomoni bo'lmasa, jinoyatning ob'ektiga tajovuz ham bo'lishi mumkin emas, sub'ektning ongida hatti harakatning ob'ektiv belgilarini aniq gavdalantiruvchi sub'ektiv tomon ham bo'lmaydi va nihoyat jinoyatning sub'ekti ham bo'lmaydi. Jinoyatning boshqa elementlari bilan birgalikda, uning ob'ektiv tomoni jinoyatchi sodir etgan aybning darajasini aniqlaydi va o'nga nisbatan belgilanadigan jazo choralarining xarakteriga ta'sir ko'rsatadi.

Shariatda ham sodir etilgan jinoiy qilmishning ob'ektiv tomonini tavsiflovchi qator belgilar mavjud. Misol uchun o'g'rilik, bosqinchilik (yo'lto'sarlik), zino, zinokorlikda ayblash - tuhmat hamda boshqa qator jinoyatlar tarkibining ob'ektiv tomonini tahlil qilganimizda, ularning ijtimoiy xavfli va huquqqa hilof harakatlardan iborat ekanligini ko'ramiz. Qayd etilgan jinoyatlar bir-biridan, asosan qilmishning xususiyati bilan, mulkka qarshi qaratilgan jinoyatlar zsa bir-biridan mulkni qonunsiz egallash usuli, ya'ni jinoyatning ob'ektiv tomoni bilan farq qiladi.

„Hidoya" asarida: omonat qo'yilgan narsaga xiyonat qilib, uni eb yuborgan, zo'rlik qilib tortib olgan, ko'rsatib turib, oshkora o'g'irlaganlarning qo'llari kesilmaydi. Sababi o'g'rilik maxfiy bo'ladi. Bularning esa nomlari boshqa, - deb ko'rsatilgan.

Bunda ham ishonib topshirilgan mulkni o'zlashtirish, talonchilik va bosqinchilnk jinoyatlarini bir-biridan farqlashga qaratilgan fikr bildirilgan bo'lib, ular o'zaro ob'ektiv tomondan, ya'ni ijtimoiy xavfli va huquqqa hilof qilmishni sodir etish usullari bilan farq qilishi ko'rsatilgan.

Demak, o'zlashtirishda - mulk jinoyatchiga ishonib topshirilgan bo'lishi, bosqinchilikda - zo'rlik ishlatib mulkni olish va nihoyat,

talonchilikda - mulk ochiqdan-ochiq jabrlanuvchi ixtiyoridan tortib olinadigan harakatdan iborat bo'ladi, o'g'rilik ularning har uchalaridan mulkning "maxfiy", "hufiyona" - yashirin yo'l bilan egallanishi bilan ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasi JKning 164-166-moddalarida aynan shu uch turdagi jinoyatlar - bosqinchilik, talonchilik va o'g'rilik uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, ular bir-biridan, shariatda qayd etilganidek, ob'ektiv tomoni bilan farq qiladi.

Ma'lumki, jinoyat tarkibining zaruriy belgilaridan biri -jinoyatning sub'ekti hisoblanadi.

Shunga ko'ra va jinoyat huquqi faniga binoan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgani uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi lozim bo'lgan shaxs jinoyatning sub'ektidir.

Islom jinoyat huquqi tizimida ham jinoyatning sub'ekti masalasiga alohida e'tibor bilan yondoshilgan. Shariatda ham jinoyat sub'ektini aniqlash, biron-bir shaxs tomonidan sodir etilgan jinony qilmishni tasniflash, uni huquqiy jihatdan to'g'ri baholash, ba'zan esa aybdorni jinoiy javobgarlik va jazodan ozod etish masalasini hal qilishda muhim ahamiyat kasb etgan. Unda ta'kidlanishicha, har qanday jismoniy shaxs emas, balki es-hushi joyida, o'z qilmishiga o'zi javob bera oladigan, ya'ni o'z yurish-turishining mohiyatini tushunadigan va o'z hatti-harakatini idora qilish kobiliyatiga ega bo'lgan, aqli raso shaxslargina jinoyatning sub'ekti hisoblanadilar, Shaxsni aqli norasi deb e'tirof etish, uning aybini va unga belgilanishi lozim bo'lgan jazoni inkor etadigan holat sanaladi. Jumladan, „Hidoya"da aqli raso, balog'at yoshidagi odam o'n dirham pul yoki uning qiymati barobaridagi narsani o'g'irlagani isbotlansa, qo'li kesiladi, - deb qayd etilgan.

Jinoyatning sub'ektiv tomoni shaxsning ijtimoiy xavfli harakat va harakatsizligiga va undan kelib chiqadigan ijtimoiy xavfli oqibatlariga bo'lgan-ruhiy (psixik) munosabatdir.

Jinoyat sub'ektiv tomonining zaruriy belgilari esa qasd yoki ehtiyotsizlikdir.

Inson yurish-turishinnng isboti sifatidagi harakat shunchaki harakat emas (uni hayvonlar ham sodir etadi), balki aql-idrokka asoslangan va aniq maqsadga yo'naltirilgan ongli faoliyatdir, ya'ni u sub'ektiv mayllar bilan ajralmas birlikda hamda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgach natija sifatida olib karaladi.

Bularning barchasi jinoyat tarkibini tahlil qilish jarayonida qilmishning sub'ektiv tomonini har tomonlama va sinchiklab tadqiq

etishning ahamiyatini ko'rsatadi. Uni e'tirof etish jinoyat sodir etgan shaxsning ruhiyatida kechayotgan ichki jarayonlar haqida tasavvur beradi va ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsning shuuri va ixtiyori orasidagi o'zaro aloqani ko'rsatadi.

Shariatda odam o'ldirish jinoyatining o'zi aybning shakliga qarab bir necha turlarga bo'lingan. Jumladan, „Hidoya" asarida bu jinoyat 5 turga bo'linib, tahlil etilgan.

- Qasddan o'ldirish;
- Qasdga o'xshash o'ldirish;
- Beqasd (bilmay) o'ldirish;
- Beqasdga (bilmasdan) o'xshash o'ldirish;
- Sababli qotillik.

Qasddan qilinadigan qotillik deb qurol yoki shunga o'xshash temir yoki yog'och yohud olov bilan birovni ataylab (qasddan) o'ldirishga aytiladi.

Bunday jinoyatni sodir etgan shaxs og'ir gunohkor, ya'ni o'ta og'ir jinoyatni sodir etgan hisoblanadi. Demakki, bu turdagi odam o'ldirishni sodir etishda jinoyatchi o'z harakatining ijtimoiy xavfli va huquqqa xilof jinoiy oqibatlarga kuchi etadi hamda shu oqibatlar yuz berishini istaganligi muhim o'rin tutadi. Bunda ayb to'g'ri qasddan iborat bo'ladi.

Shariatda bu jinoiy qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori sanalgan, chunki bu bilan qasos huquqi ham tug'iladi, yani: o'ldirilmish o'rniga o'ldiruvchini o'ldirish zarur bo'lur.

Qasdga o'xshash qotillik, Abu Xanifa fikricha - deyilgan „Hidoya" asarida - qurol va uning o'rniga o'tadigan narsalar bilan emas, boshqa narsa bilan qasddan urib o'ldirishdir. Abu Yusuf bilan Shofi'iy odatda o'ldirish uchun ishlatilmaydigan narsa bilan urib o'ldirishdir", deb ko'rsatganlar.

Qasddan odam o'ldirishning ushbu turida shaxsning ijtimoiy xavfli harakati, ayb egri qasd shaklida sodir etilgan bo'ladi, ya'ni bunday holda jinoyatchi o'z harakatining ijtimoiy xavfli va huquqqa hilofligini anglaydi, uning ijtimoiy xavfli oqibatiga ko'zi etadi va shu oqibatni istamasa-da unga ongli ravishda yo'l qo'yadi.

Beqasd (bilmay) o'ldirishda ob'ektga nisbatan sub'ekt tomonidan xatolikka yo'l qo'yilgan bo'ladi. Misol uchun, u o'qotar kuroldan kiyikni mo'ljallab otib, o'q adashib odamga tegsa, yoki dushmanga qarab otilgan o'q musulmonga yoki o'zi bilan bir safda kurashayotgan g'ayridinga (zimmiyga) tegib qolsa, yoyinki, nishonga qarab otgan o'q odamga borib

tekkanida beqasd o'ldirish, deb hisoblanadi. Bu jinoyatning sub'ektiv tomoni aybning ehtiyotsizlik shaklida sodir egilgan, deb qarash mumkin.


Odam o'ldirishning shariatdagi to'rtinchi turi – beqasdga o'xshash o'ldirish deganda, masalan, uxlab yotgan kishining ustida ikkinchi bir kishi yiqilib tushganida qaralgan. Sub'ektiv tomondan huquqiy baho beradigan bo'lsak, bu jinoyat ham aybning ehtiyotsizlik shaklida sodir etilgan turi deb hisoblangan.

Odam o'ldirishning beshinchi turi, sababli o'ldirish deb nomlangan. Ko'pgina manbalarda ta'kidlanishicha, o'z mulkidan tashqari joyga quduq, qazib qo'yganda yoki tosh terib qo'yganda biron-bir kishi quduqqa tushib ketsa yoki tosh ag'darilib, biron kishi uning ostida qolib o'lim yuz bersa, quduq qazigan yoki toshni terib qo'yan kishi odam o'ldirishning sababchisi sifatida ayblangan. Ammo Imom Shafi'iy bu xildagi odam o'ldirishni beqasd o'ldirish kabidir, deb uni alohida turga bo'lishga qarshi fikr bildirganlar.

Shaxsning sog'ligiga, qarshi qaratilgan jinoyatlar ham islom huquqi mazhab asoschilari tomonidan ikki toifaga - aybning qasd va ehtiyotsizlik shakllariga bo'lib tasniflangan, o'z navbatida etkazilgan jaroxatlarning engil va og'irlik darajasiga qarab, ular ham bir necha turlarga bo'linadi. Masalan, Abu Yusuf kishining bosh qismiga etkazilgan jarohatlarni og'irlik darajasiga qarab, turga bo'lib huquqiy jihatdan baholagan.


Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, islom jinoyat huquqiga doir ilmiy-nazariy manbalarda ko'rsatilishicha, qonunda belgilangan jazoni ijro etish muddati o'tib ketgan bo'lsa, jinoyatchi jazodan ozod etilgan. Masalan, to'rt kishidan iborat guvohlar biron-bir shaxsga nisbatan zino jinoyatini sodir etgan, deb guvohlik bersalaru lekin jinoyat sodir etilganiga uzoq, muddat o'tgan bo'lib, guvohlarning imomdan uzoqda yashaganliklari bunga to'sqinlik qilmagan bo'lsa, guvohliklari qabul qilinmagan, jinoyatchiga xad urilmagan, ya'ni u jazodan ozod etilgan.

Qur'on me'yorlari



E'tiqodga oid me'yorlar (Bunga oqil kishi e'tiqod qilishi kerak)	Ahloqqa oid qoida va me'yorlar. (Bunda kishi qanday go'zal xulqlar bilan ziynatlanishi va qanday yomon xulqlardan uzoq bo'lishi ko'rsatilgan)	Amaliyotga oid qoida va me'yorlar. (Bular insonning ishlari va so'zlariga berilgan hukmlar bo'lib, boshqacha aytganda, Qur'on fiqhdir.)
---	--	--

Sunnatning turlari



Sunnati kavliy (aytilgan so'z)	Sunnati feliy (qilingan ish)	Sunnati taqririy (Janobi Rasulullohning etiroziga uchramagan soz)
---------------------------------------	-------------------------------------	--

NAZORAT UCHUN TEST SAVOLLARI

1.“Islom huquqi” o‘quv fani qaysi uslublar orqali o‘rganiladi?

- 1.tarixiy, dialektik, dogmatik
- 2.tarixiy, qiyosiy, mantiqiy, dogmatik, tizimli
- 3.mantiqiy, dogmatik, statik, qiyosiy, tarixiy
- 4.tarixiy, tizimli, qiyosiy
- 5.tarixiy, dialektik

2.Arab xalifaligi-bu:

- 1.davlat boshqaruvi shakli
- 2.davlatni respublika boshqaruv shakli
- 3.islomiy diniy uyushma
- 4.islom kengashi
- 5.islom dinini boshqa dinlar bilan hamkorligini amalga oshiruvchi

idora

3.Xalifa-bu:

1. Osiyo davlatlarining boshlig‘i
2. yuridik maktablar asoschilari
3. Muhammad payg‘ambar o‘rinbosari, teokratik davlat boshlig‘i
4. islomning asosiy yo‘nalishlaridan biri
5. diniy maktab

4.Islom-bu:

1. jahon dinlaridan biri
2. payg‘ambarimiz kuyovlari Alining do‘stlari
3. islomdagi ikkinchi asosiy oqim
4. islom davlatlaridagi bir guruh tuzilma
5. halifalarning avlodlari

5.Shariat-bu:

1. barcha islomiy-sotsial normalar yig‘indisi
2. ahloqiy normalarning yig‘indisi
3. huquqiy normalarning yig‘indisi
4. diniy normalarning yig‘indisi
5. islom dini bilan boshqa dinlar o‘rtasidagi munosabatni bildiruvchi

atama

6. Islom huquqining jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarini tartibga solish jarayonidagi xususiyatlari qaysi:

1. umumiylik, qarama-qarshilik, alohida shakllilik
2. diniy yondoshuvlik, alohida shakllilik, bir hil fikrlilik
3. diniy yondoshuvlik, alohida shakllilik
4. konkretlik, umumiylik, alohidalik
5. qarama-qarshilik, konkretlik, bir xil fikrlik

7. Fiqh-bu:

1. xuquqshunos olimlarning ma'lum bir yondoshuvi
2. islom dini rivojlanishidagi ma'lum bir davr
3. islom huquqining amaldagi normalari haqidagi fan
4. shariatni musulmonlar bilan yakdilligini bildiradi
5. islom huquqining ayrim sohalarini o'ziga olgan fan

8. Ijtihod deganda nimani tushunasiz?

1. fiqhni asosida yangi yo'nalish yaratish
2. shariat hukmini amal qilinishi
3. shariat hukmini amal qilmaslik
4. to'g'ri so'zlik
5. diniy va huquqiy masalalarga mustaqil xulosa qilish .

9. Mujtahid so'zi nimani bildiradi?

1. xuquqshunoslikni mukammal egallab, diniy va huquqiy masalalarda mustaqil xulosa qilishga haqli shaxsni .
2. huquqshunoslikni to'liq egallagan shaxsni
3. VII-X asrdagi huquqshunos olimlarni
4. X-XV asrdagi mutafakkirlarni
5. Qur'onni yoddan bilgan huquqshunosni

10. Musulmon xijriy yili qachondan boshlanadi?

1. Muhammad payg'ambarning tug'ilishidan
2. Muhammad payg'ambarning payg'ambarlik faoliyati boshlangandan
3. dastlabki musulmonlarning Yasrib (Madina)ga ko'chib borishidan
4. Birinchi musulmon davlati tashqil topishidan
5. Xalifalik boshlangandan so'ng.

11. Muhammad payg'ambar vafotidan keyin Arab xalifaligida qaysi xalifalar boshqaruvni amalga oshirganlar?

1. Abubakr, Usmon, Abbos, Ali
2. Ali, Umar, Muaviy, Ismoil
3. Abubakr, Umar, Usmon, Ali
4. Ali, Xusayn, Xassan, Zayd
5. Abubakr, Abuxanifa, Umar, Ali

12. Islom dini rivojlanishida uch boshlang'ich davr qaysi?

1. 632-660; 661-750; 751-1258
2. 610-660; 661-750; 750-1258
3. 570-632; 633-660; 661-750
4. 659-661; 662-750; 751-1258
5. 610-660; 661-750; 751-790

13. Islom dinida yagona halifalik boshqaruvini kimlar amalga oshirganlar?

1. to'rt halifa, Ummaviylar avlodi, Ali avlodi
2. Xosimiylar avlodi, Ummaviylar avlodi, Ali avlodi
3. Ummaviylar avlodi, Abu Bakr avlodi, Ali avlodi
4. Abu Bakr avlodi, Umar, Usmon avlodlari
5. To'rt halifa, Ummaviylar avlodi, Abbosiylar avlodi

14. Islom huquqida manfaatlar qanday ketma-ketlikda bo'ladi?

1. fuqaro, umma (jamo'a), oila, davlat
2. oila, fuqaro, davlat, umma (jamo'a)
3. davlat, umma, (jamo'a), oila, fuqaro
4. umma (jamo'a), davlat, oila, fuqaro
5. davlat, oila, umma (jamo'a), fuqaro

15. Taqlid keng ma'noda nimani anglatadi?

1. Qur'on va hadislar asosida yozilgan asarlarni
2. Islom huquqi manbalariga taqlid qilishni
3. Islom turmush tarziga, an'alariga va tafakkurlariga sodiqlikni
4. ko'pgina mutafakkirlarni fikrlarini umumlashtirish
5. boshqarishni, asarlar asosida fikr yuritishni

16.Sunna nimani anglatadi?

- 1.qonunni, odatni
- 2.urf-odatni
- 3.merosni, voqeani
- 4.qonunni, voqeani
- 5.odatni, an'anani, merosni

17.Ijmo‘-bu:

- 1.shialik yuridik maktablarini kelishuvi
- 2.sunniylik yuridik maktablarini kelishuvi
- 3.islom dini mazhablarini kelishuvi
- 4.yuridik maktablarni mustaqil fikri
- 5.mujtahidlarning yagona kelishilgan fikri

18.Qiyos deganda nimani tushunasiz?

- 1.turli siyosiy guruhlarini qiyoslab qarashni
- 2.ismoiliy mazhablarini boshqa mazhablarga qiyoslash
- 3.sunniylik yuridik maktablarini qiyoslash asosida belgilangan qarorni qiyoslash
- 4.islomdagi hamma mazhablarni qiyoslab chiqarilgan qarorni qiyoslashni
- 5.har qanday masalani qiyoslash

19.O‘rta Osiyoda qaysi huquqiy mazhab eng ko‘p tarqalgan?

- 1.malikiylar
- 2.shafiylar
- 3.xanbaliylar
- 4.jafariylar
- 5.xanafiylar

20.Sunniylarning asosiy mazhablari qaysi?

- 1.xanafiya, malikiya, shafiyya, xanbaliya
- 2.xanafiya, islomiya, malikiya, xanbaliya
- 3.xanbaliya, islomiya, zaydiya, malikiya
- 4.jafariya, vaxobiylar, suffiylar, zaydiya
- 5.xoradj, vaxobiylar, suffiylar, zadiya

21.Shialarning asosiy mazhablari qaysi?

- 1.jafariya, ismoiliya, zadiya
- 2.xanbaliya, zadiya, jafariya
- 3.jafariya, malikiya, zadiya
- 4.shafiyya, malikiya, jafariya
- 5.suffiylar, vaxobiyylar, xoradj

22.Mazhablarning o‘xshashligi nimada?

- 1.har biri ham ilohiy kuchga ishonishida
- 2.ketma-ket paydo bo‘lishida
- 3.turli tillarda namoz o‘qishda
- 4.Islom huquqi manbalariga hammasi ham bir xil yondashishda
- 5.hammasi ham bir vaqtda tashqil topganida

23.Shariat nima?

- 1.Islom huquqining asosiy manbalaridan biri
- 2.islom dini qoidalarini o‘rganuvchi ta’limot
- 3.oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi qonun
- 4.musulmon bilan olloh o‘rtasidagi munosabatni bildiradi
- 5.barcha musulmonlar uchun bajarilishi majbur bo‘lgan qonunlar, huquqiy-axloqiy ko‘rsatmalar

24.Islom huquqining qo‘shimcha manbalari qaysi?

- 1.ijmo va qiyos
- 2.tafsir, qonun, qiyos, istixson va ijtihod
- 3.urd-odat, qonun, istixson va ijtixod
- 4.istixson, qiyos va ra'y
- 5.tafsir, urf-odat, qonun va ta’limot

25.Tafsir-bu:

- 1.islom ulamolarining kitoblariga sharhlar
- 2.u yoki bu muammo uchun bildirilgan fikr
- 3.IX-X asrda huquqshunos olimlarning hadislar bo‘yicha bildirilgan fikrlari
- 4.echilmagan masalani qiyoslab echish
- 5.Qur'onni Karimga sharhlar

26.Islom huquqida qanday yoʻnalishlar bor?

- 1.sunniylar, shialar, vaxobiylar
- 2.sufiylar, shialar, xorijiylar
- 3.sufiylar, sunniylar, shialar
- 4.ismoiliylar, sunniylar, xorijiy
- 5.zaydiylar, ismoiliylar, imomiylar

27.Sunniylar uchun asosiy hisoblangan olti hadisning mualliflari kim?

- 1.Al-Buxoriy, Abu Muslim, At-Termiziy, Burxoniddin Margʻiloniy, Abu Xanifa, Abu Yusuf
- 2.At-Termiziy, Abu Muslim, Beruniy, Ibn Sino, Xorazmiy, Yassaviy
- 3.Al-Buxoriy, Abu Muslim, At-Termiziy, Abu Dovud, an-Naso, Ibn Madji
- 4.Abu Xanifa, Abu Yusuf, imom Malik, Ali-Shofiy, Abu Xanbal, Zufal
- 5.Margʻiloniy, Zamaxshariy, Al-Buxoriy, At-Termiziy, Abu Xanifa, Ali

28.Hadislar nima?

- 1.Shariat qonunlari va oliy ulamolar fatvolari tayangan diniy kitob
- 2.Qur'oni Karimga yozilgan sharhlar
- 3.jahon musulmon ulamolari uyushmasi chiqargan qonun-qoidalar
- 4.Muhammad paygʻambarning hayoti, faoliyati, diniy va axloqiy koʻrsatmalarini mujassamlashtirilgan ta'limot

29.Turkistonlik buyuk muhaddislar kimlar?

- 1.Imom Muhammad, abu Xanifa, Imom At-Termiziy
- 2.Imom At-Termiziyy, Ismoil Al-Buxoriy
- 3.Ismoil Al-Buxoriy, Al-Xakim Termiziy, Zamaxshariy
- 4.Ahmad Yassaviy, Baxovuddin Naqshbandiy, Abu Rayxon Beruniy
- 5.Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy

30.Muomalat -bu:

- 1.Dindorlarning gʻayridinlar bilan munosabati
- 2.fiqhlarning biron-bir masala yuzasidan bildirgan yakdil fikri
- 3.imomning chiqargan qarori
- 4.musulmonlarning bir-birlari bilan munosabati
- 5.masjidda oʻqiydigan namoz

31.Faqih-bu:

- 1.azon aytuvchi kishi
- 2.madrasada ilm o'rganuvchi muallim
- 3.fuqarolik mojarolarini hal qiluvchi kishi
- 4.musulmon huquqini bilgan kishi
- 5.islom dinini targib qiluvchi shaxs

32.Muxtasib-bu:

- 1.Islom kengashlarida ma'ro'za bilan chikuvchi kishi
- 2.musulmon jamoasida ko'zga kuringan shaxs
- 3.diniy idora boshligi
- 4.arab halifaligining boshligi
- 5.shariat hukmlarini nazorat qiluvchi shaxs.

33.Mudjahit deganda nimani tushunish zarur?

- 1.ishonch uchun kurashuvchi shaxsni
- 2.islom diniy anjumanlar qatnashchisini
- 3.fiqh usulini egallagan shaxsni
- 4.mustaqil fikr yuritish imkoniyatiga ega shaxsni
- 5.quraysh qabilasiga ega bo'lgan kishilarni

34.Qur'oni Karim qaysi halifa davrida to'liq yig'ilgan?

- 1.Ali
- 2.Abu Bakr
- 3.Usmon
- 4.Umar
- 5.Muoviy

35.Mazhab-bu:

- 1.Islomdagi oqim
- 2.musulmonlar yig'ilgan joy
- 3.madrasalarda o'qitadiganlar
- 4.diniy-huquqiy maktab
- 5.masjiddagi nomozxonlar

36.Fatvo nima?

- 1.masjidlarda hayit namozida aytiladigan axborotlar
- 2.Qur'onga berilgan sharhlar
- 3.islom huquqi to'g'risidagi olimlarning fikri

4. oliy darajadagi ulamolar yig'ini qabul qilgan Qur'on, hadis va sharifga oid qonun-qoidalar

37. Islom diniy boshqarmasi boshlig'i nima deb ataladi?

1. Muxtasib
2. Kadi
3. Imom xatib
4. Qozi
5. Muftiy

38. Islom konsultativ kengashlari faoliyati nimadan iborat?

1. Islom qarorlarini tasdiqlash
2. Islom davlatlari parlamentiga loyiha tayyorlash va muhokamaga taqdim etish
3. davlatlararo imzolangan xujjatlarni tasdiqlash
4. Qozilik so'zlarining ishini tekshirish
5. Davlatlarda chiqayotgan qonunlarni islom printsiplariga to'g'ri kelishini nazorat qilish

39. Islom ishlari vazirligi-bu:

1. diniy maktablarni tekshiruvchi idora
2. oliy diniy nazoratni va ijroni olib boradigan idora
3. faqat masjidlarni qurishni ta'minlovchi idora
4. islom davlatlarida diniy va huquqiy normalarning bajarilishi ustidan nazorat olib boradigan idora
5. islom davlatining oliy hokimiyati

40. Islom davlatlarida qanday nikoh turlari mavjud?

1. doimiy va muddatli nikoh
2. doimiy nikoh
3. muddatli nikoh
4. doimiy, muddatli va aralash nikoh
5. doimiy va aralash nikoh

41. Sahobalar deb nimaga aytiladi?

1. payg'ambarimizning qarindoshlariga
2. xazrati Alining safdoshlariga
3. payg'ambarimizning safdoshlariga
4. xazrati Alining safdoshlariga

5. barcha halifalarga

42.Zakot-bu:

1. etimlarga beriladigan ixtiyoriy ehson
2. xijoz davlatlaridan biri
3. sadaqaning bir turi
4. Misr davlatining unvoni
5. musulmon uchun farz bo'lgan amal

43.Islom konsultativ kengashlari faoliyati nimadan iborat?

1. Islom qarorlarini tasdiqlash
2. Islom davlatlari parlamentiga loyiha tayyorlash va muhokamaga taqdim etish
3. davlatlararo imzolangan hujjatlarni tasdiqlash
4. Qozilik so'zlarining ishini tekshirish
5. Davlatlarda chiqayotgan qonunlarni islom printsiplariga to'g'ri kelishini nazorat qilish

44Muomalat -bu:

1. Dindorlarning g'ayridinlar bilan munosabati
2. faqihlarning biron-bir masala yuzasidan bildirgan yakdil fikri
3. imomning chiqargan qarori
4. musulmonlarning bir-birlari bilan munosabati
5. masjidida o'qiydigan namoz

45.Ijmoning turlari.

1. amaliy, zohiriy.
2. zohiriy, ravshan.
3. ravshan, solix.
4. sukutiyy, ravshan.
5. hamma javob to'g'ri.

46.Sunnatning turlari.

1. sunnati navliy, sunnati zoxiriy, sunnati fe'liy.
2. sunnati taqririy, sunnati fe'liy, sunnati ahliy.
3. sunnati navliy, sunnati fe'liy, sunnati taqririy.
4. sunnati taqririy, sunnati kavliy, sunnati ahliy.
5. hamma javob to'g'ri.

47.Qur'onda qanday me'yorlar mavjud?

- 1.E'tiqodga oid me'yorlar, axloqqa oid me'yorlar, amaliyotga oid me'yorlar.
- 2.Soliqqa oid me'yorlar, axloqqa oid me'yorlar, siyosatga oid me'yorlar.
- 3.E'tiqodga oid me'yorlar, soliqqa oid me'yorlar, siyosatga oid me'yorlar.
- 4.Siyosatga oid me'yorlar, iqtisodga oid me'yorlar , soliqqa oid me'yorlar.
- 5.Hamma javob to'g'ri.

48.Shariat kategoriyalarini ko'rsating.

- 1.farz, mandub, muboh, makruh, mahzur yoki harom.
- 2.farz, makruh, muboh, harom, zakot.
- 3.farz, makruh, zakot, haj, harom.
- 4.farz, zakot, haj, harom, ro'za.
- 5.hamma javob to'g'ri.

49.Qanday amaliy hukmlar mavjud.

- 1.ibodatga oid, sahobaga oid.
- 2.sahobaga oid, muomalaga oid.
- 3.sahobaga oid, imomatga oid.
- 4.ibodatga oid, muomalaga oid.
- 5.hamma javob to'g'ri.

50.Ijmo'ni ijmo' bo'lishi uchun nechta rukni mavjud?

- 6.beshta .
- 7.oltita.
- 8.uchta.
- 9.etita.
10. to'rtta.

Referat (nazorat ishlari) mavzularining namunaviy ro'yhati

1. «Islom huquqi» o'quv fani o'qitilishining ahamiyati.
2. Islom huquqi rivojlanishining boshlang'ich davrlari.
3. Xalifalik va hokimiyatning bo'linishi. Xalifaning
4. jamoa (umma)
5. bilan o'zaro munosabati.
6. Islomning rivojlanishida musulmon huquqining o'rnini va roli.
7. Shariat- qonunchilik manbai.
8. Islom huquqi tushunchasi va asosiy manbalari.
9. Islom davlatlarida inson huquqlari.
10. Qur'on va Sunna – musulmon huquqining g'oyaviy asoslari.
11. VI-VII asrlardagi arab jamiyatining ijtimoiy-iktisodiy va madaniy tarakkiyotining umumiy tavsifi.
12. Ijmo' va qiyos – musulmon huquqi manbalari.
13. Islom davlatlarida fuqarolar tengligi printsipli.
14. Vijdon erkinligi va e'tikodga islomcha yondashuv.
15. Islom huquqi rivojlanishida har bir manbaning roli
16. Islom majburiyat huquqi.
17. Islom huquqining islomdan oldingi ijtimoiy normalar, mahalliy odatlar va bo'ysundirilgan xalqlarning huquqiy normalari bilan o'zaro munosabati.

18. Islom huquqining qo‘shimcha manbalari: tafsir,
19. urf-odat, qonun.
20. Islomning asosiy yo‘nalishlari: sunniylik va shialik.
21. Islom huquqi normalari va ularning turlari.
22. Islomda oila va nikoh huquqi.
23. Islom huquqi normativ tizim sifatida va uning davlat boshqaruvidagi roli.
24. Islom fuqarolik huquqi va shartnoma huquqi.
25. Islom huquqining sunniy yuridik maktablari.
26. «Fiqh», «ijtihod», «mujtahid» so‘zlarining ahamiyati va ularning shariat rivojlanishidagi o‘rni.
27. Islom huquqining shia yuridik maktablari.
28. Islom huquqining boshqa huquqiy tizimlar
29. bilan o‘zaro munosabati.
30. Islom davlatlarida qozi sudlarining o‘rni.
31. Hozirgi zamon musulmon huquqiy g‘oyasi.
32. Islom huquqi va umuminsoniy qadriyatlar.
33. Musulmonlarning shaxsiy huquq va majburiyatlari.
34. Din va huquqning o‘zaro munosabati.

*Olloh har kimga ezgulik istasa,
uni Islom dinida faqih,
ya'ni huquqshunos olim qiladi».*
Hadisi sharif

Izohlar

1. **Nikoh** (arabcha-uylanish) – erkak va ayol turmush qurishining Islom dinida e'tirof etilgan yagona shakli.

2. **Zimmiy**- musulmonlar himoyasida bo'lib, Islom dinidan o'zga ilohiy dinlarga e'tihod qiluvchi odamlar.

3. **Mahr** (arabcha-to'y sovg'asi) – nikoh payitida kuyov tomonidan kelinga hadya qilinadigan ko'chmas mulk. Bu mulk faqat ayolga tegishli bo'lib, ayol o'z hoxishi bilan undan voz kechishi ham mumkin.

4. **Mahram** (arabcha-taqiqlangan)- ayol va erkakning o'zaro nikoh munosabatlariga kirishi mumkin bo'lmagan qarindoshlik darajalari. Bunday qarindoshlik mezonlari Qur'onda belgilab berilgan.

5. **Zino** (arabcha- bo'zuqlik, faxsh) – o'zaro nikohda bo'lmagan erkak va ayolning jinsiy aloqada bo'lishi.

6. **Ehrom holati** – musulmon larning katta va kichik haj (haj va umra) vaqtidagi holatlari.

7. **Hurmat al- musahara** – erkak va ayolning o'zaro nikohga kirishlari natijasida qarindoshlarining ular uchun mahram bo'lib qolishlari.

8. **Idda**- eri o'lgan yoki eridan ajrashgan ayollar boshqa erga tegishi oldidan o'tishi shart bo'lgan muddat. Islom dinida bu muddat eri o'lganlar uchun to'rt oyu o'n kun, eridan ajrashganlar uchun uch hayz muddati qilib belgilangan.

9. **Ahli kitoblar** (kitob yuborilganlar)- o'z muqaddas kitobiga ega bo'lgan ilohiy dinlarga e'tiqod qiluvchilar: yahudiylar, nasroniylar va sabiylar nazarda tutilgan.

10. **Ma'jusiyy** (arabcha-otashparast)- Islom an'anasida eramizdan avvalgi II-I ming yillarda Zaratushtra tomonidan asos solingan qadimiy dinga e'tiqod qiluvchi.

11. **Vasaniy** (arabcha-butparast)- Arabiston yarim orolida Islomdan oldingi davrda toshdan yasalgan «xudolarga» sig'inadigan odamlarning umumlashtirma nomi.

12. **Sabiy** (arabcha-yuldo'zga sig'inuvchi) –ahli kitob va ahli zimma toifasiga kiruvchi mo'minlar bilan mushriklar e'tiqodining oralig'ida turuvchi va shuning uchun musulmonlar himoyasida to'rgan odam

13. **Mushrik**—Ollohga boshqa xudolarni sherik qiluvchi ko'p xudolikka e'tiqod qiluvchi shaxs.

14. **Ummul valad**- o'z xojasidan farzand ko'rgan joriya

15. **Al-G'oib** – ko'rinmas borliq
 16. **Al-Kadr** – taqdir, qismat
 17. **Al-Kisva** – Ka'baning qora yopinchig'i
 18. **Ansara** – yasrib musulmon qabilalari, Ollohning payg'ambari Muhammad boshchiligida Makkadan kelgan ko'chmanchi-arablar bilan yagona xalq, yagona Umma hosil qilgan Muhammadning yordamchilari.
 19. **Oxun** – teolog, ilohiyot o'qituvchisi, mo'lladan yuqori bo'lgan musulmonlarning ruhiy unvoni
 20. **Valima** – to'y
 21. **Vaqf** – islom mamlakatlarida diniy yoki xayriya jamoalari tomonidan sovg'a yoki voris qoldirilgan mulk, odatda, soliq solinmaydigan er
 22. **G'usl** – musulmonlarning to'liq yuvinishi
 23. **Jamoa** – ishonadigan musulmonlar yig'ini
 24. **Zakot** – islomning 5 farzlaridan biri, ko'ngildan chiqarib beriladigan sadaqa, shariat qonunlariga muvofiq zakot muayyan mulkka ega musulmon tomonidan beva-bechoralarga, yolg'iz ayollarga beriladi. Zakot, odatda, savdodan, hunardan, erdan keladigan daromadning 1G'40 hajm miqdorida bo'ladi
 25. **Ijmo'** – sunnizmda diniy o'qituvchilarning Qur'on va Sunnada tilga olinmagan diniy – huquqiy, ijtimoiy masalalar bo'yicha kelishilgan, ishonarli fikrlari
 26. **Ijtixod** – diniy-ijtimoiy masalalar bo'yicha mustaqil fikrga ega bo'lish. X-XI asrlarda bunday fikrga obro'li huquqshunos musulmonlar va teologlar ega bo'lishgan
 27. **Movmod** – musulmon oy kalendarining 3-oyining 12 kunida nishonlanadigan Muhammad payg'ambarning tug'ilgan kuni munosabati bilan o'tkaziladigan tantanali islomiy bayram
 28. **Mujtohid** – islom huquqi, axloq-odob masalalari bo'yicha o'z fikrlariga ega bo'lgan, huquqiy-ijtimoiy diniy-teologik bilimlarda yuqori darajaga erishgan, diniy o'qituvchi. Mujtohidlar tomonidan mazhablar huquqiy maktabi tashqil qilingan deb hisoblanadi
 29. **Muta** – vaqtinchalik nikoh
 30. **Fikh** – bu kundalik hayot tarzining islom shariatiga muvofiq bo'lishni ta'minlovchi qonundir. U diniy ibodatlarni o'tashda, ijtimoiy hayotda, musulmonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda va diniy marosimlarni ado etishda amal qilishi lozim bo'lgan qoidalardir.
- Fikh shuningdek, musulmonlarning jamiyat va oilaviy hayotlardagi axloq va tartib qoidalar me'zonidir.

Izohlar ro'yxati

1. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T.: O'zbekiston, 1995, 9-bet.
2. Kerimov G.M. Shariat i ego suhnost.-M.: Nauka, 1987,7-bet.
3. Usmonov M. Islom va hozirgi zamon. – Islom spravochnigi kitobida. – T.: O'z.S.E. Bosh redaksiyasi, 1987, 7-bet.
4. Qarang: Ostroumov N.P. Shariat.-T., 1912, 25-bet.
5. Qur'oni Karim. – T.: Cho'lpon, 1992, 374-bet.
6. Mo'minov A Imomi A'zam Abu Xanifa. G`G` «Mulokot» jurnali, 1994, 7-8 soni , 39-bet.
7. Temur tuzuklari _ T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991, 57-58-betlar.
8. Ahmad Hodi. Islomiya. – T.: Movarounnahr, 1992, 7-bet.
9. Boboev X. IX-XI asrlar Movarounnahr huquqshunoslik maktabi va O'zbekistonda qonunchilik. G`G` Tafakkur jurnali, 1994, 1 son, 26-bet.
10. Qarang: Sulaymonova X.S. Sobranie sochineniy. Tom. 1. – T.: Fan, 1967, 39-bet.
11. Qarang: Shokirov Yu. Islom shariati asoslari. – T.: Mehnat, 1992, 5-bet.
12. Qarang: Abdulaziz Mansur, Baxmaniyor Shokir. Musulmonchilikdan ilk saboqlar. – T.: Kamalak, 1992, 26-bet.
13. Karimov D.A. Qiyos kak odin iz istochnikov musulmanskogo prava. S-Respublika ilmiy nazariy konferentsiyasi ishtirokchilarining ma'ruza va chiqishlar to'plami. – T., 1995, 25 may, 96-bet.
14. Qur'oni Karim. – T.: Cho'lpon, 1992, 66-bet.
15. Islom spravochinigi. T.: O'z.S.E. Bosh redaksiyasi, 1986, 195-bet
16. Maxmasani S. Islom huquq falsafasi. 2-bosmaxona. – Beyrut, 1952, 14-bet (arab tilida).
17. Qarang: Abdumalik Koraboy o'g'li. G`G` «Xalq so'zi» gazetasi, 1995, 20 yanvar.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., 1992.
2. I.A.Karimov. O‘zbekiston XXI-asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., 1997.
3. I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T., 1996.
4. I.A.Karimov. Hushyorlikka da‘vat. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi muxbirining savollariga javoblar. T., 1999.
5. I.A.Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T., 2000.
6. Koran. Kazan., 1907
7. Olouddin Mansur. Qur‘oni Karim. T, Cho‘lpon. 1992.
8. A.X.Saidov. Osnovo` musulmanskogo pravo. T., 1994
9. L.R Syukyaynen. Musulmanskoe pravo. M.. «Nauka», 1986
10. R. Sharl. Musulmanskoe pravo. M., Nauka., 1959.
11. A.R Raxmanov., Islamskoe pravo. T., “Yangi asr avlodi”, 2003.
12. Hadis. 4-x. Tomax. T. 1992-1996.
13. M. Radjabova. Shariatda jinoyat va jazo. T. «Adolat». 1996.
14. Usulul fiqh. Islom qonunshunosligi asoslari. T. «Adolat» 1997.
15. Qo‘shimcha adabiyotlar.
16. A.V. Jurevskiy. Xristianstvo i islam. 1990
17. A.Doev, B.Kubaev. Vechnaya istina islama. Bishkek., 1995.
18. Yu.B. Vaxtin. Jizn praroka Muhameda. T.. 1995.
19. M.V Vaxabov. Islam i jenhina. M., 1958
20. Xrestomatiya po islamu. M., 1994.
21. Islam. Spravochnik. T., 1989.
22. S Axmedov. Sotsialnaya doktrina islama. M., 1982.
23. G.A Matkarimova. Terror i terrarizm. Xurriyat. 1999. 24-30 mart
24. R.Faxruddin, Xulafoi roshidan. T., 1992.
25. Nizommulk. Siyosatnoma yoki siyar ul-mulk. A., 1997.
26. A.X.Saidov. Burxoniddin Marg‘inoniy-buyuk huquqshunos. «Iqsodiyot va huquq» nashriyot uyi. Toshkent-1997.

MUNDARIJA

Kirish	3
1-Mavzu. «Islom huquqi» fanining predmeti, uslubi va ahamiyati	5
2-Mavzu. Islom huquqi tizimi: sohalari va institutlari.....	10
3-Mavzu. Islom huquqi manbalari	16
4-Mavzu. Islom huquqida yoʻnalish va mazhablar	35
5-Mavzu. Islomda noan'anaviy oqimlar va diniy ekstremizm	41
6-Mavzu. Inson huquqlari: islomcha yondashuv va konstitutsion amaliyot	46
8-mavzu. Islom huquqida oila, nikoh va meros masalalari	53
9-Mavzu. Islom huquqida jinoyat va jazo	57
Nazorat uchun test savollari	71
Referat (nazorat ishlari) mavzularining namunaviy roʻyhati.....	81
Izohlar	83
Adabiyotlar	86

Dilshod SATTOROV

«ISLOM HUQUQI»

o'quv-uslubiy qo'llanma

Muharrir: G.G'ulomova.

Texnik muharrir: J. Abdujalilov.

Kompyuterda sahifalovchi: A.Xudaybergenova.

Bosishga ruxsat etildi:

Hajmi: b.t. Adadi: Buyurtma: №

TDYI kichik bosmaxonasida bosildi.

Toshkent shahri, Sayilgoh 35.